

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
“SAN‘ATSHUNOSLIK” FAKULTETI  
“MUSIQIY TA‘LIM” KAFEDRASI**

**“MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA MUSIQA O‘QITISH  
METODIKASI”**

**O‘QUV QO‘LLANMA**



**110000 – T a‘lim**

**60111300 – Musiqa ta‘limi**

**Guliston – 2022**

UDK: 373

KBK: 74

X-69

Xodjakulov B. X.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi [matn]: o'quv qo'llanma.-Guliston: GulDU, 2022.-118 b.

*Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan fan dasturida keltirilgan mavzular asosida tuzilgan. Keltirilgan ma'lumotlar shu soha mutaxassislarining mavjud darsliklari, ilmiy izlanishlari hamda uzoq yillik shaxsiy pedagogik tajribamiz asosida yozilgan. Mazkur qo'llanma shu soha pedagoglari dars mashg'ulotlarini olib borishda foydalanishlari uchun sodda va tushunarli qilib yozildi.*

**Tuzuvchi:**

**Xodjakulov Bahodir Xudoykulovich,**  
GulDU, Musiqa ta'limi kafedrası mudiri

**Taqrizchilar:**

**A. Abdullayeva,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist  
"Madaniyat va san'at fidokori"  
ko'krak nishoni sohibasi

**I. Qudratov,**  
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti  
Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-9015-1-3

2022

## KIRISH

Musiqaga bolalikdan uygʻongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivojida oʻz taʼsirini oʻtkazadi, boshqa koʻnikma va qobiliyatlarning shakllanishini taʼminlaydi, yaxshi musiqali koʻnikmani shakllantiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning ijodiy sifatlarini sayqallab, uning tabiatini ham yorqin ranglar bilan bezaydi. Musiqaning ushbu ifodaviy, tasviriy imkoniyatlari Sharq mutafakkirlari – Farobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi va boshqalar tomonidan yuqori baholangan. Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq. Davlat uchun insonni yuksaklikka koʻtarishda yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblagan. Estetik idrok – bu ikki asosiy komponentlar yigʻindisidir: emotsionallik va tushunarlilik, lekin bunga yana xayol va harakat momenti – ritm ham qoʻshiladi. Musiqa estetik va maʼnaviy kayfiyatning ulkan manbaidir<sup>1</sup>.

Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yoʻlida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmogʻi kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuygʻu uygʻotadi, musiqa sanʼati va taʼlim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga daʼvat etadigan, insonning ichki olamini boyitadigan, iymon-eʼtiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uygʻotadigan qudratli botiniy kuch – maʼnaviyatning yuksalishini taʼminlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki oʻsib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni oʻstirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, maʼnaviy va qatʼiy axloqiy sifatlarini tarbiyalab boʻlmaydi. Musiqaga yoshlikdan uygʻongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivozida kuchi taʼsir oʻtkazadi, boshqa koʻnikma va didlarning shakllanishini taʼminlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va maʼnaviy kayfiyatning ulkan manbayidir.

---

<sup>1</sup>Sh.X. Xaydarov. Jizzax viloyati Xalq taʼlimi xodimi. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022.

Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda to'g'ri aks ettirilgan musiqali asarlardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir. Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiya vazifalari bilan bog'liq, ular umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unda muhabbatini tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalar badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bolalarda musiqiy idrok rivojlanishining eng yorqin xususiyatlariga eshitish hissi, musiqiy quloq, har xil tabiat musiqalariga hissiy javob sifati va darajalarini ko'rsatish mumkin.

Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbasi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir. Ibn Sino ham musiqa hissiy ta'sir kuchini e'tirof yetgan holda uni o'zining meditsina kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqa ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflagan: "Go'dakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri – uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi – ruhiga tegishlidir". Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional

o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmoshii kerak.

Pedagog sifatida uzoq yillardan beri faoliyat olib borar ekanman shunga amin bo'ldimki, bolalarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish uchun eng yaxshi yosh davri 3-5 yoshdagi bolalar hisoblanar ekan. Ularning musiqani o'zlashtirishi juda yuqori va eslab qolish qobiliyati ham yuqoriligi sabab har bir ohang ayniqsa, sho'hchang ohanglar ular psixikasiga ham ta'siri sezilarli.

Musiqaning bola hissiyotiga, ruhiyatiga, o'y-xayollariga va intilishiga, ularning hayot mazmuniga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan o'zaro bog'liq bo'lgan edi. U mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi. Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvi natijasida xalq musiqasi shakllanadi.

Xalq san'ati manbalariga asoslangan musiqa hamisha jozibador bo'lib, qalbdagi turli his-hayajonlar uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor, ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o'zining aniq ko'rinishi bilan bog'liqdir.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o'rni va o'ziga xos xususiyatlari bor. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya – bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdan iboratdir. Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini,

psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonini belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi.

Agar kichik yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg'unlashtira olsak, bundan-da ziyoda qudratni topa olmaymiz.

San'at – kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at vositasida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi kelajak avlodni estetik tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shu sababli u estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda kichik yosh chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan. Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, MTMda, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini,

xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda qiladi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqa ham fan, ham san'atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqa san'ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo'ldoshi. Stendalning aytishiga ko'ra, musiqa – san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir. “Musiqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi”. Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u-munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, xayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Bolalar bilan musiqali ish olib borish, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqali targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga yerishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitilib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Musiqaga kichik yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi, bolalarning badiiy ijodkori hamda iqtidorini rivojlantirishi kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqiy asardan o'rinli foydalanish alohida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go'zalliklarni idrok etishga bevosita bog'liqdir. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi.

Musiqqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq. Darhaqiqat, musiqa savodini o'rganish bog'cha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar. Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar bir tizimga solinmagan bo'lsa-da, musiqa o'qituvchisi bolalarda

musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bolalar muassasalarida musiqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari, ayniqsa, o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlari orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati, asosan, quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.



Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishga o'rgatish;
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish;
3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish;
4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish;
5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish;
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish;

7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofnii obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish;
2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash;
3. Bolada badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish<sup>2</sup>.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofdagi qo'shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarak-atrofnii bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullantirishning sababi, bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqiy-ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor: 1.Ko'rgazmali metod; 2.So'zlab berish metodi; 3. Amaliy faoliyat metodi.

1. Ko'rgazmali metod. Eshitishga asoslangan metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2.Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shib olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi.

3.So'zlab berish metodi. Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi

---

<sup>2</sup> B. Boltayev, J. A. Xodjayev. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi (darslik). – Samarqand. – B. 83.

musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tassavvurini jonlantiradi. Soʻzlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. tushuntirish – yangi asarni tinglash, qoʻshiq aytish, oʻyin va raqslarni qoʻshib, mashq qilish davomida oʻynalaniladi;

2. izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qoʻshiq aytishning turli yoʻllarini koʻrsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi;

3. koʻrsatma berish – bolalar oʻyini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: oʻng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga choʻzish kabi.

Amaliy faoliyat metodi. Bu faoliyatda bolalarga qoʻshiq aytish va musiqali-ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar taʼsirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni oʻrgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

Musiqa mashgʻulotlari – har bir bolaning musiqiy qobiliyatini maqsadga muvofiq va har tomonlama taʼlim-tarbiya beruvchi mashgʻulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishtirish kabi faoliyatlarni uzviy bogʻlab olib boradilar. Musiqa faoliyatini bajarish bolalarni faolroq boʻlishlariga asos boʻladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq oʻtadi.

Musiqa mashgʻulotlari butun guruh bilan bir vaqtda oʻtkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bogʻliq.

Bir yashar bolalarda mashgʻulotlar qisqa oʻtadi.

Ilk yosh guruhida 10 – 13 daqiqa olib boriladi.

Kichik guruhida 15 – 20 daqiqa olib boriladi.

Oʻrta guruhida 20 – 25 daqiqa olib boriladi.

Katta guruhda 25 – 30 daqiqa olib boriladi.

Tayyorlov guruhida 30 – 35 daqiqa olib boriladi.

Musiqa mashgʻulotlar haftasiga ikki marta oʻtkaziladi. Unda guruhning barcha bolalari ishtirok etadi. Musiqa mashgʻulotlari – musiqa tinglash, qoʻshiq

o'rgatish, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, raqsga tushish, musiqiy-didaktik o'yinlar, bolalar cholg'u asboblari chalishga o'rgatish va musiqaga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotga o'tgan sayin bolalarga musiqaviy ta'lim-tarbiya berishning qaysidir vazifasi hal etib boriladi. Musiqa rahbari ushbu ishda rahbarlik qiladi, to'g'ri yo'l ko'rsatib, maslahat va tavsiyalarini berib boradi.



Tarbiyachi o'z dasturiga o'zbek kompozitor va bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlaridan kiritishi lozim. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk bolalik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- bolalarga tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok ettirish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go'zallik tushunchasini to'liqlikicha anglashni o'rgatish;
- bolalarda badiiy ijodkorlikni shakllantirish;

– bolalarda go‘zallikni o‘z hayotlariga, o‘z faoliyatlariga olib kirishni o‘rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘lim muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta‘limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o‘ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o‘qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o‘ylashga o‘rgatishdir.

Musiqa san‘atining ahamiyati. Musiqa shunday san‘at turiki, u insonlarning kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg‘otishining o‘zini bir mo‘jiza deb atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri – ta‘lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san‘atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta‘limotga suyanib, bolalarning obyektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste‘dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma‘naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, Bolalarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e‘tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta‘sir o‘tkazadi.

Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Shuning uchun ham barcha xalqlar musiqalari jozibadordir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan

bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, yezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqqa “til”i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl – musiqqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg‘ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqqa “ti”ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar boyligini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochadi. O‘sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg‘u bilan ta’kidlashgan. Kelajak jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o‘ta o‘ziga xos badiiy ifoda “til”iga ega bo‘lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu “til”ning manbaidir. Albatta, musiqqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta’sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi.

Musiqaning insonga ta’siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o‘rinda Asafyevning “...musiqqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin”, – degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

Demak, bolalarning estetik, musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqqa san’atining o‘rni beqiyosdir. Musiqqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks yetgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir.

Musiqqa qobiliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari Qobiliyat – ma’lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Psixologiya fanining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqish va rivojlanish manbai layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug‘ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo‘lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda kishiga ta’sir etadigan tashqi voqealar yig‘indisi tushuniladi. Muhit o‘z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo‘linadi. Insondagi musiqiy layoqatining rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko‘rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe‘l-atvor – shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi. Bolalarning musiqqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emotsional ta’sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V.Vetlugina “... musiqqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va, eng avvalo, hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi”, - deb ta’kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o‘ziga xos ravishda amalga oshirish imkoni qobiliyatdir. Shu o‘rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo‘lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo‘ladi, degan fikrga qo‘shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo‘lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay,

ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli Respublikamizdagi har bir maktabda hozirgi kunda musiqiy-estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Olimlardan Platon inson qobiliyatlari tug'ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha narsa uning ideal bilimlar dunyosida bo'lgan paytidan xotiralar bo'lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan. Frensis Galton o'zining "talantning tug'maligi, uning Qonuniyatlari va oqibatlari" (1869) nomli kitobida "... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir...", - deb aytgan. Biroq ko'pgina mashhur ijrochilar buyuklikning sababi to'qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog'liqligini ta'kidlashgan. Lekin faqat mehnat bilan ham qobiliyatni cheksiz darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Kishining qobiliyati ma'lum bir imkoniyat va shaxsiy xususiyatlari doirasidagina shakllanadi.



Estetik va emotsional muhit musiqa olamida bolaga emotsional qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlargagina bog'liq bo'lmay, balki bola musiqiy

rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy hamda psixologik bilimlarga ham bog'liq. Tadqiqot ishimizning keyingi paragrafida maktabgacha ta'lim muassasalari mashg'ulotlari jarayonida tarbiyalanuvchilarining yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish borasida fikr yuritamiz.

## **MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR MUSIQA TARBIYASINING VAZIFALARI**

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berishi, tevarak-atrofnı obrazli - emotsional idrok etishi va bola xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. bolaning musiqaviy qobiliyatini rivojlantirish;
2. bolalarni ashula aytish va musiqaviy-ritmik malakalarga o'rganish. Ularda musiqani qabul qilish, his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash;
3. bolada badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Bu vazifalarning hammasi bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langan.

Birinchi vazifani ko'rib chiqamiz. Musikaviy deganda nimani tushunish kerak? Bu sifat o'z ichiga qimmatli ikki tomonni oladi:

- a) emotsional jonkuyarlilik – musiqa asarining uning obrazli mazmuniga aloqador qayg'ura olish qobiliyati;
- b) bolalarga juda nozik eshitishni, asarning musiqa-tovush materialini ajratishni ta'minlaydigan musiqa idroki va musiqaviy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqaviylikni har ikkala tomoni ham ajralmas birlikda turadi va bir vaqtning o'zida tarbiyalanadi. Musiqaviylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini – ularning atrofdagi qo'shimcha obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa o'z navbatida, ularning tevarak-atrofini bilishda, estetik baholashni tarbiyalashda, badiiy didni, musiqaga muhabbatni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolaning musiqaviyligi uning aktiv musiqaviy faoliyati orqali tarbiyalanadi. Pedagog mashg'ulotlarda bolalar diqqatini tashkil etish va yo'naltirish orqali qabul qilayotgan narsalar haqida o'ylash, taqqoslash va qiziqish uyg'otishga yordam beradi.

Bolalarda musiqa mazmuniga tushunarli munosabatda bo'lish paydo bo'ladi, musiqani tinglashga ishtiyoq tug'iladi. Musiqaviy asarlarni tinglash bolalar ishtirokisiz bo'lmasligi kerak. Musiqa orqali beriladigan kayfiyat ularda javob kayg'usini uyg'otish kerak. Emotsional jonkuyarlikni tarbiyalash yo'llari turlicha. Mohir metodik usullar orqali bolalarni musiqa asarlarining bajarilishiga jalb qilish mumkin: ashula aytish, raqs, o'yinlarga. Emotsional jonkuyarlik bo'yicha avvalgi tajriba bilan chambarchas bog'liq. Bola qanchalik tanish musiqa asarini tinglasa, shunchalik u musiqaviy faoliyatda aktiv hamda maqsadga qaralgan hamda ishtirok etadi. Suhbat musiqaga yanada ongliroq munosabatda bo'lishga yordam beradi. O'yinchoqlar, rasmlar she'riy va obrazli so'zlar qo'llanishi, musiqa orqali qo'zg'atilgan kuy ogohlikni chuqurlashtiradi va shu asosda musiqani yanada nozik tinglash ortadi. O'z navbattida ular bolaning aktiv faoliyatini hisoblagan qo'shiq aytish va harakatlarida mustahkamlashadi.

Bolani musiqaviy asarlarni idrok etish tug'risidagi masalaga to'xtaymiz. Idrok san'ati o'zidan kiyin psixologik faoliyatni namoyon qiladi, qaysiki, intellektual, bilish, emotsional momentlarni birlashtiradi. Musiqa san'ati asarlarini tushunish masalasi o'zidan o'zi kelib chiqishi mumkin emas. Uni o'rgatish kerak. Musiqa asarlarini idrok etish hissiyotidan boshlanadi. Musiqa asarlarini idrok etish emotsional jonkuyarlikni vujudga keltiradi. Bolaning bu holatida unga tanish mazmun va quvonch-idrok asosida emotsiyalarning paydo bo'lishidir. Bolalarda asarni tushunib qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash zarur.

Musiqani idrok etish ilk bolalikdan shakllanadi. To'plangan emotsional musiqaviy taassurotlar qo'shiq aytishga, musiqa asboblarini chalishga, badiiy xalq qo'shiqlarini aytishga olib keladi. Hissiyot, eshitish, idrokning rivojlanish asosida bolalarda musiqaviy taassurotlar to'plana boshlaydi. 7 yoshli bola musiqa mazmuniga qarab qayg'uradi va fikr yuritadi. Biz bola oldiga musiqani idrok etishning payida bo'lishi vazifasini qo'yamiz. Keyin esa tashqi ta'sir etish orqali musiqaviy taassurotlarni yig'indisi vazifasi shakllantiriladi.

Estetik idrok – bu 2 asosiy komponentlar yig'indisidir: emotsionallik va tushunarlilik. Lekin bunga yana xayol va harakat momenti – ritm ham qo'shiladi.

Keyin maktabgacha yoshdagi bolalar tanish musiqani biladilar, marsh, plyaska, alla musiqalarni ajratadilar, musiqaning soʻkin va quvnoq xarakterini ajratadilar, lekin uning yosh xususiyatlari kuchiga koʻra soʻz orqali ifodalay olmaydilar. 4-5 yoshda bolalar obrazlarni detallashtiradilar, musiqaning kontrast xarakterlarini qisman ajratadilar, musiqa asarlarining ifodaliligi forma va vositalarini tushunadilar. Pedagogning saviyasi va talabiga soʻz orqali javob qaytaradilar. 6-7 yoshli bolalar quyidagi terminlar orqali: kirish, kuplet, birga aytish boʻlim. temp va boshqalar, differensiyalashtirishlari va umumlashtirishlari mumkin. Ular musiqa asarlarining ifodaliligi xarakter va vositalarini tushunadilar va oʻyin obrazlariga qarashadi.

Shunday qilib musiqa idrokini tarbiyalash quyidagicha boradi:

1. musiqa materialini ajratib olish;
2. tarbiya va taʼlim metodlarini sistemalashtirish;
3. ishning turli bosqichlaridan foydalanish;
4. musiqa asarlarining turli-tuman tematiklaridan foydalanish (ijtimoiy, tabiat, mehnat, bolalar turmushi, ertaklar);
5. musiqa asarining obrazlar soni va formasiga qarab asta-sekin murakkablashib borishi.

Musiqaning emotsionalligi sababli uning tovushi materialini qabul qilishni bilish zarur, uni eshitish, differensiyalashni bilish kerak. Bu malaka bolalar bilan musiqa asarlarini (oddiylarini) analiz qilish, ular diqqatini musiqa ifodaliligi vositalariga qaratish yoʻli bilan rivojlantiriladi. Musiqa asarlarini analiz qilish orqali bola musiqaning oʻziga xos tilini ajrata boshlaydi – musiqaning xarakteridagi dunyodagi obrazlar bilan bogʻliqlik ular emotsional kayfiyatini (lirika, bardamlik, tantanavorlik va boshqalar) ajratadi. Pedagog bolalarda aktiv faoliyatni vujudga keltirish uchun obraz va sheʼrdagi soʻzlar orqali ashula, oʻyin, eshitish uchun pesa syujetini yoritadi, bolada paydo boʻladigan xayolni qoʻzgʻaydi, obrazlarni chaqiradi, uning syujeti asosida fikrlash harakati bilan musiqa asarining programmasiga uni jalb qiladi.

Shunday yoʻnalishdan keyin musiqani idrok etish bolada emotsional tushunarli boʻladi. Soʻz orqali natijani ifodalash va asarga baho berish

tarbiyachining mohir rahbarligi ostida asta-sekin badiiy-musiqaviy didni paydo qiladi.

**Shunday qilib, badiiy-musiqaviy did quyidagi jarayonda shakllanadi:**

1. musiqa asarini to‘lalgicha idrok etish;
2. uning ma’nosini tushunib olish;
3. agar o‘rinli bo‘lsa, bajarish.

**Amaliyotda u namoyon bo‘ladi:**

1. Asar bahosida;
2. badiiy talablarga javob beradigan asarlarni qabul qilishga intilishda;
3. asar tanlashda idrokda badiiylikni boshdan kechirish va asarlarni ijro etishda.

**Vazifa:**

1. Musiqaviy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Emotsional hissiyot nima?
3. Bolalarni pedagogik aktiv faoliyatini vujudga keltirish uchun nimalar orqali qiziqtiriladi?
4. Qanday badiiy asarlarni bilasiz?

Bolaning musiqaviyligi uning aktiv musiqaviy faoliyati orqali tarbiyalanadi. Pedagog mashg‘ulotlarda bolalar diqqatini jalb etish va yo‘naltirish orqali qabul qilingan narsalar haqida o‘ylash, qiziqish, taqqoslash, qiziqish uyg‘otishga yordam beradi. Bolalarda musiqa mazmuniga tushunarli munosabatda bo‘lish paydo bo‘ladi, musiqani tinglashga ishtiyoq tug‘iladi. Musiqaviy asarlarni tinglash bolalar ishtirokisiz bo‘lmasligi kerak. Musiqa orqali beriladigan kayfiyat ularda javob uyg‘otish kerak. Emotsional jonkuyarlikni tarbiyalash yo‘llari turlicha. Mohir metodik usullar orqali bolalarni musiqa asarlarini bajarilishlariga jalb qilish mumkin: ashula aytish, raqs tushish. Bu emotsional jonkuyarlik bo‘yicha avvalgi tajriba bilan chambarchas bog‘liq. Bola qanchalik tanish musiqa asarini tinglasa, shunchalik musiqaviy faoliyatda aktiv hamda maqsadga qaratilgan jarayonda ham faol ishtirok etadi. Suhbat – musiqa yanada ongliroq munosabatda bo‘lishga yordam beradi. O‘yinchoqlar, rasmlar she’riy va obrazli so‘zlar qo‘llanilishi musiqa orqali qo‘zg‘atilgan kuy – ogohlikni chuqurlashtiradi va shu asosda musiqani

yanada nozik tinglash ortadi. O‘z navbatida ular bolaning aktiv faoliyatidan hisoblangan qo‘shiq aytish harakatlarida mustahkamlashadi.

Endi bolaning musiqaviy asarlarni idrok etish tog‘risidagi masalaga to‘xtalsak. Idrok san‘ati o‘zidan keyin psixologik faoliyatni namoyon qiladi. qaysiki, intellektual, bilish, emotsional momentlarni birlashtiradi. Musiqa san‘ati asarlarini tushunish masalasi o‘zidan o‘zi kelib chiqishi mumkin emas. Uni o‘rgatish kerak. Musiqa asarlarini idrok etish hissiyotlardan boshlanadi. Musiqa asarlarini idrok etish emotsional jonkuyarlikni vujudga keltiradi. Bolaning bu holatida unga tanish mazmun va quvonch – idrok asosida emotsiyalarning paydo bo‘lishidir.

Bolalarda asarni tushunib qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash zarur.

Musiqani idrok etish ilk bolalikdan shakllanadi. To‘plangan emotsional musiqaviy taassurotlar qo‘shiq aytishga, musiqa asboblarini chalishga, badiiy xalq qo‘shiqclarini aytishga olib keladi. Hissiyot, eshitish, idrokning rivojlanishi asosida bolalarda musiqaviy taassurotlar to‘plana boshlaydi. 7 yoshli bola musiqaning mazmuniga qarab qayg‘uradi va fikr yuritadi. Biz bola oldiga musiqani idrok etishning payida bo‘lishi vazifasini qo‘yamiz. Keyin esa tashqi ta‘sir etish orqali musiqaviy taassurotlarning yig‘indisi vazifasini. Estetik idrok – bu 2 asosiy komponentlar yig‘indisidir: emotsionallik va tushunarlik. Lekin bunga yana xayol va harakat momenti – ritm ham qo‘shiladi. Keyin maktabgacha yoshdagi bolalar tanish musiqani biladilar, marsh, plyaska, alla musiqalarini ajratadilar, musiqaning sokin va quvnoq xarakterini ajratadilar, lekin uni yosh xususiyatlari kuchiga ko‘ra so‘z orqali ifodalay olmaydilar. 4-5 yoshda bolalar obrazlarni detallashtiradilar, musiqaning kontrast xarakterlarini qisman ajratadilar, musiqa asarlarining ifodaliligi forma va vositalarini tushunadilar. Pedagogning savoli va talabiga so‘z orqali javob qaytaradilar. 6-7 yoshli bolalarda quyidagi terminlar orqali; kirish, kuplet, birga aytish, temp va boshqalar, differensiyalashtirishlari va umumlashtirishlari mumkin. Ular musiqa asarlarining ifodaliligi xarakter va vositalarini tushunadilar va o‘yin obrazlariga qo‘shiladi.

Shunday qilib musiqa idrokini tarbiyalash quyidagicha boradi:

1. musiqa materialini ajratib olish;

2. tarbiya va ta'lim metodlarini sistemalashtirish;
3. ishning turli bosqichlaridan foydalanish;
4. musiqa asarlarining turli-tuman tematikalaridan foydalanish (ijtimoiy, tabiat, mehnat, bolalar turmushi, ertaklar);
5. musiqa asarining obrazlar soni va formasiga qarab asta-sekin murakkablashib borishi.

Musiqaning emotsionalligi uchun uning tovush materialini qabul qilishni bilish zarur, uni eshitish, differensiyalashni bilish kerak. Bu malaka bolalar bilan musiqa asarlarini (oddiylarini) analiz qilish, ular diqqatini musiqa ifodaliligi vositalariga qaratish yo'li bilan rivojlantiriladi. Musiqa asarlarini analiz qilish orqali bola musiqani o'ziga xos tilini ajrata boshlaydi – musiqaning xarakteridagi dunyodagi obrazlar bilan bog'liq emotsional kayfiyatini farqlaydi (lirika, bardamlik, tantanavorlik va boshqalar).

Pedagog bolalarda aktiv faoliyatni vujudga keltirish uchun obrazli va she'riy so'z orqali ashula, o'yin, eshitish uchun pesa syujetini yoritadi, bolada paydo bo'ladigan xayolni qo'zg'aydi, obrazlarni chaqiradi, uni syujet asosida fikrlash harakatiga musiqa asarini programmasiga jalb qiladi.

Shunday yo'nalishdan keyin musiqani idrok etish bolada emotsional tushunarli bo'ladi. So'z orqali natijani ifodalash va asarga baho berish tarbiyachining mohir rahbarligi ostida asta-sekin badiiy-musiqaviy didni paydo qiladi. Shunday qilib, badiiy-musiqaviy did quyidagi jarayonda shakllanadi:

1. musiqa asarini to'laligicha idrok etish;
2. uning ma'nosini tushunib olish;
3. agar o'rinli bo'lsa, bajarish;

**Amaliyotda u quyidagicha namoyon bo'ladi:**

1. Asar bahosida.
2. Badiiy talablarga javob beradigan asarlarni qabul qilishga intilish.
3. Asar tanlashda idrokda badiiylikni boshdan kechirish va asarlarni ijro etish.

Bolalarda musiqiy tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o'rgatish, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, to'p bo'lib

yyengil yurish va yugurishdan sekin-asta har tarafga, to'g'riga, erkin-sochma, doira bo'ylab yengil yurish va yugurishga o'rgatish kabilarni shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida juda ko'p mashqlar jamlanmasi kundan kunga ko'payib bormoqda. Bolalarni 3-4 sodda va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to'p bo'lib raqs tushishdan juftlikda, sochma tarzda, shundan so'ng doiradagi raqslar ijro etishga o'rgatish. Raqs harakatlaridan «koptokni yuqoriga ot», «arqonni tort», «tokcha», «ko'zguga qara», «xo'rozcha», «maysani sila» bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

Kuylash: Cholg'u asbobi va kattalarga jo'r bo'lib kuylash. Tabiiy ovozda zo'riqmasdan kuylash malakalarini shakllantirish. Kuylash vaqtida to'g'ri nafas olishga, avval «gulni hidlab», so'ng kuylay boshlashga, o'tirgan yoki turgan holatda to'g'ri kuylashga o'rgatish. Qo'shiq mazmunini tushunib kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajarishga o'rgatish.

Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish: Bolalar cholg'ulari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, karnay, surnay, nog'ora bilan tanishtirish. Metallofon, uchburchak, bolg'achada chalish usullarini o'rgatish. Ularni tovushidan farqlay olish. Qo'shiq, raqs va o'yinlarda cholg'ularni jo'r qilish.

O'yin: Musiqiy faoliyatlarda olingan bilimlarni o'yinlarda namoyon bo'lishiga erishish. Doira jo'rligida «Chumchuqlar va mushuk», «Ayiqchalar raqsi», xalq o'yinlaridan «Chori-chambar», «Chapak chalish», «Qaldirg'och» kabilarni o'ynash. Bolalarga tushunarli, qiziqarli bo'lgan voqeaband o'yinlarni tashkil qilish. O'yinda musiqaga mos harakatlanish, nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish, bolalar cholg'ulari, o'yinchoq va qo'g'irchoqlardan foydalanish.

Bolalarning mashg'ulotlardan olgan bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida «Kuyini top», «Do'stingning ovozidan tanib ol», «Xaltachada nima bor?», «Qaysi cholg'u yashiringan», «Qush va qushchalar», «O'rmonda» kabi musiqaviy-didaktik o'yinlarni mashg'ulot vaqtida va mustaqil faoliyatlari davomida guruh xonalaridagi musiqa burchaklarida tashkil etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari quyidagilar:

- turli hil mazmun va kayfiyatdagi musiqani tinglash, eslab qolish;
- tinglangan kuylarni tanib olish va ularning bastakori nomini bilish;
- kuy, qo‘shiq va raqs haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- karnay, surnay, nay, nog‘ora, doira kabi xalq cholg‘u asboblarini tanish va ovozidan farqlash;
- qo‘ng‘iroqcha, shiqildoqlar, doiracha, buben, metallofon, sunaycha, bolg‘acha; uchburchak kabi bolalar cholg‘ularida chalish usullarini bilish;
- birgalikda kuylay olish;
- qo‘shiq kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajara olish;
- harakatli o‘yinlarda faol ishtirok etish;
- turli predmetlar bilan harakatlar bajarishni uddalash.

Bolada badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Bolalarni musiqa tinglash, qo‘shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish kabi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

## **BOLALAR MUSIQIY FAOLIYATINING MAZMUNI**

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida musiqiy ta‘limning asosiy vazifasi, bizningcha, shunday ko‘rinadi: “Musiqa san’ati vositasida bolaning his-tuyg‘ularini, uning xarakteri va irodasini tarbiyalash, musiqaning uning qalbiga kirib borishiga yordam berish, hissiy munosabatni uyg‘otish, atrof-muhitga jonli mazmunli munosabat bildira olishga o‘rgatadi.

*Maktabgacha yoshdagi bolalikdagi musiqiy faoliyat yosh turlari va shakllariga qarab belgilanadi:*

1-3 yil (yetakchi faoliyat – obyekt-manipulyatsiya): shuning uchun onomatopiya, musiqiy barmoq, logotip-ritmik, motorli o‘yinlar, musiqali ertaklar, topishmoq qo‘shiqlar va boshqalar kabi shakllar qo‘llaniladi.

3-5 yil (o‘yin faoliyati, rolli o‘yin): shuning uchun qo‘shiq o‘yinlari, musiqiy o‘yinlar – fantaziyalar, musiqiy asosdagi o‘yin muammoli vaziyatlar, sayohat

o‘yinlari, musiqiy didaktik o‘yinlar, musiqiy asarlar asosidagi etyud o‘yinlari, topishmoq konsertlari, suhbatlar kabi shakllar qo‘llaniladi.

5-7 yil (murakkab integratsiyalashgan faoliyat): quyidagi shakllar qo‘llaniladi - muammoli va vaziyatli vazifalar, musiqiy va didaktik o‘yin, kompyuter musiqiy o‘yinlari, loyiha faoliyati, teatrlashtirilgan tadbirlar, dumaloq raqs o‘yini, musiqiy improvizatsiya o‘yinlari, musiqa tanlovlari, festivallar, konsertlar, integratsiyalashgan tadbirlar, yig‘ish (shu jumladan musiqiy taassurotlar), bolalarning mustaqil musiqiy faoliyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bevosita o‘quv musiqiy faoliyatining asosiy shakllari: musiqa darslari, bayramlar va mustaqil musiqiy faoliyat. Bayram o‘z zahirida bolalarni milliy va jahon an‘analari bilan tanishtiruvchi bolalar badiiy faoliyatini tashkil etishning yaxlit shakllaridan biridir. Bayramda mustaqil ijodiy harakatlarni rag‘batlantiradigan improvizatsiya xarakteridagi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun vazifalarni kiritish tavsiya etiladi. O‘yin-kulgilarni tashkil qilishda bolalar tadbirning hammualliflari sifatida ishlaydi, turli g‘oyalar, tasvirlar taklif qiladi, rollarni taqsimlaydi, atributlarni, bezaklarni va taklif etilgan mehmonlarning bayramda ishtirok etish usullarini tanlaydi. Ushbu musiqiy faoliyatning barcha turlari va shakllari maktabgacha yoshdagi bolalarning bevosita o‘quv musiqiy faoliyatida qo‘llaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini kattalar ishtirokisiz yoki kam yordam bilan tashkil etish o‘qituvchi uchun eng qiyin vazifadir. Bu bolaning tashabbusi, musiqiy taassurotlari va tajribalarini baham ko‘rish, o‘zini namoyon qilish, musiqa san‘ati orqali o‘zini o‘zi amalga oshirishga bo‘lgan katta intilishga asoslanadi. Mustaqil musiqiy faoliyatning namoyon bo‘lish shartlari: musiqa bilan muloqot qilish jarayonida hissiyotlar, his-tuyg‘ular, tasvirlarning to‘planishi. Ushbu ish uslubidan foydalanish natijasida bolalar o‘zlarining yonida boshqasini ko‘rishni, u bilan muloqot qilishni, bir-biriga yordam berishni, do‘stlashishni o‘rganadilar. Termin deb ataladigan ta‘lim texnologiyalari majmuasini yaratish uchun asos “Ijtimoiy o‘yin o‘rganish uslubi” harakat tiliga aylandi. Sotsial-o‘yin texnologiyalari keyinchalik uslubiy nozikliklar bilan boyitildi “germenevtika” – tushunish san‘ati haqidagi fanlar. Mahalliy zamonaviy didaktika

innovatsion yoʻnalish – drama hermenevtikasi bilan toʻldirildi. Dramatik hermenevtika teatr pedagogikasining texnologiyalari, usullari va usullaridan keng foydalanish gʻoyasiga asoslanadi, bu oʻqituvchilarga xatti-harakatlarning xususiyatlarini sezgir idrok etishni oʻrganishga, shuningdek, bolalar bilan muloqot qilish erkinligi va oʻzgaruvchanligiga ega boʻlishga yordam beradi. V.M. Bukatov bu yondashuvni chaqiradi “darsning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, oʻqituvchilar tomonidan birgalikda yashashi”. Dvigatel faoliyati, rollarni almashtirish va kichik guruhlarda ishlash – bular drama – hermenevtik yondashuvda oʻzaro bogʻliq va bir vaqtning oʻzida qoʻllaniladigan uchta asosiy elementdir. Darsda bolalar oʻzlari uchun yangi kasblarni kashf etdilar: rejissor, ssenariynavis, dramaturg. Shunday qilib, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻqitishda dramatik-hermenevtik yondashuv nafaqat oʻqituvchi tomonidan taklif qilingan materialni kattalardan majburlashsiz, oʻyin uslubida, materialni chuqurroq anglagan holda mustaqil ravishda oʻzlashtirishga imkon beradi, balki oʻz hissasini qoʻshadi. kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, tushunish, oʻzaro munosabatlarni rivojlantirish. Va buni eslaylik “Musiqiy taʼlim – bu musiqachini tarbiyalash emas, balki, eng avvalo, insonni tarbiyalash”. Bolalar bilan bevosita taʼlim faoliyatining asosiy shakli musiqa darslari boʻlib, ular davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni tizimli, maqsadli va har tomonlama tarbiyalash, har bir bolaning musiqiy qobiliyatini shakllantirish amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar turli faoliyat turlarini (qoʻshiq aytish, musiqiy harakat (raqs), musiqa tinglash, bolalar cholgʻu asboblari chalish, musiqiy va oʻquv faoliyati, musiqiy ijodkorlik) almashishni oʻz ichiga oladi va shu bilan bolalarning musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishni taʼminlaydi. Sinflar bolaning shaxsiyatining koʻplab ijobiy fazilatlarini tarbiyalashga hissa qoʻshadi. Ular bolalarni umumiy quvonchli, estetik tajribalar, birgalikdagi harakatlar bilan birlashtiradi, xulq-atvor madaniyatini oʻrgatadi, maʼlum konsentratsiyani, aqliy harakat, tashabbus va ijodkorlikni talab qiladi.

Musiqiy harakatlarni oʻrganish jarayoni ham xuddi shunday – yangi raqsdan bolalar asta-sekin uning individual elementlarini oʻrganadilar va tanish musiqiy

o'yinni takrorlaydilar. Musiqiy darsni tuzishda o'qituvchi quyidagi talablarni hisobga olishi kerak: bolalarning aqliy, jismoniy, hissiy stressi; faoliyatni izchil taqsimlash, repertuarni o'rganish.



Musiqiy ta'limning vazifalari boshqa ta'lim sohalariga integratsiyalashgan. Masalan, "Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish" ta'lim sohasida biz xalqimizning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, maishiy an'analar va bayramlar haqida g'oyalarni shakllantirish haqida gapiramiz. "Kognitiv rivojlanish" ta'lim yo'nalishi tasavvur va ijodiy faoliyatni rivojlantirishni o'z ichiga oladi; o'zi, boshqa odamlar, atrofdagi dunyo obyektlari, atrofdagi dunyo obyektlarining xususiyatlari va munosabatlari (shakli, rangi, o'lchami, materiali, tovushi, ritmi, tempi, miqdori, soni, qismi va butunligi) haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish; makon va vaqt, harakat va dam olish, sabab va oqibatlar va boshqalar), Yer sayyorasi odamlarning umumiy uyi sifatida, uning tabiatining xususiyatlari, dunyo mamlakatlari va xalqlarining xilma-xilligi haqida. "Nutqni rivojlantirish" ta'lim sohasida biz nutqning tovush va intonatsion madaniyatini rivojlantirish haqida gapiramiz. "Jismoniy rivojlanish" ta'lim yo'nalishi muvofiqlashtirish va moslashuvchanlik kabi jismoniy fazilatlarini rivojlantirish vazifalarini nazarda tutadi; muvozanatni, harakatlarni muvofiqlashtirishni, ikkala qo'lning katta va kichik motorli ko'nikmalarini

rivojlantirish; vosita sohasida maqsadlilik va o'zini o'zi boshqarishni shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bolani musiqiy tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Bular bolaning musiqa olamiga kirishi bilan bog'liq vazifalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy bilimi va madaniyatini rivojlantirish vazifalari, musiqaga san'at turi sifatida qadriyat munosabati, musiqiy an'analar va bayramlar. Bular, shuningdek, musiqiy asarlarni idrok etish tajribasini rivojlantirish, musiqiy tasvirlar, kayfiyat va his-tuyg'ularga empatiya, maktabgacha yoshdagi bolalarning ovozli hissiy va intonatsion tajribasini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalardir. Musiqa bolalarni atrofdagi dunyo, narsalar va tabiat dunyosi, eng muhimi, inson dunyosi, uning his-tuyg'ulari, tajribalari va his-tuyg'ulari bilan tanishtirish uchun mumkin bo'lgan tillardan biri sifatida ishlaydi. Musiqa mashg'ulotlarida tashkil etilgan musiqiy-harakatli faoliyat, bolalar cholg'u asboblari chalish, musiqa-barmoq o'yinlari bolaning jismoniy fazilatlarini, harakat qobiliyatlarini va harakat qobiliyatlarini rivojlantiradi, vosita sohasida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TINGLASH**

**Musiqa tinglash:** Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko'nikmasini paydo qilish. Marsh, qo'shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o'rgatish: Musiqa tinglash badiiy ta'limning muhim vositalaridan biri bo'lib, u darsning barcha faoliyat turlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Tinglash bolalarda hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda musiqa tili, ifoda vositalari, janr va shakllarini o'rganish muhimdir. U musiqani badiiy-g'oyaviy jihatdan to'g'ri idrok etib, estetik zavqlanishga imkon beradi. Tinglash qoidalari sinfda jimlikni ta'minlab, o'quvchilarni musiqani diqqat-e'tibor bilan eshitishga o'rgatib, onglilik va faollikni rivojlantiradi hamda musiqa madaniyatini shakllantiradi.

Musiqa san'ati asarlarini tushunish masalasi o'zidan o'zi kelib chiqishi mumkin emas. Uni o'rgatish kerak. Musiqa asarlarini idrok etish hissiyotidan

boshlanadi. Musiqa asarlarini idrok etish emotsional jonkuyarlikni vujudga keltiradi. Bolaning bu holatida unga tanish mazmun va quvonch-idrok asosida emotsiyalarning paydo bo'lishidir. Bolalarda asarni tushunib qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash zarur.

**Musiqani idrok etish ilk bolaikdan shakllanadi.** To'plangan emotsional musiqaviy taassurotlar qo'shiq aytishga, musiqa asboblari chalishga, badiiy xalq qo'shiqlarini aytishga olib keladi. Hissiyot, eshitish, idrokning rivojlanishi asosida bolalarda musiqaviy taassurotlar to'plana boshlaydi. 7 yoshli bola musiqaning mazmuniga qarab qayg'uradi va fikr yuritadi. Biz bola oldiga musiqani idrok etishning payida bo'lishi vazifasini qo'yamiz. Keyin esa tashqi ta'sir etish orqali musiqaviy taassurotlarni yig'indisi vazifasini. Darslar davomida har bir musiqiy asarda muayyan voqelik, his-tuyg'u va mazmun bo'lishi haqida o'quvchilarga dunyoqarashiga mos tarzda tushuntiriladi. Shu orqali bolalarda musiqiy taassurot va tinglash ko'nikmasi shakllanadi. Tinglash faoliyatini butun dars davomida olib borish o'quvchining asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida muayyan bilimlarga ega bo'lishiga yordam beradi, tinglash madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilarning faolligini oshirish va tinglash malakasini shakllantirish uchun "Topqirlik" mashqidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avvalgi darslarda tinglangan kuy-qo'shiqlar karnaycha – (katak, tasvirlar)lar ostiga joylashtiriladi. Bolalar istalgan karnaychani tanlab, undan yangragan ohangning nomi va muallifini aytishadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni diqqatni tezkor jamlashga o'rgatib, xotirasini mustahkamlaydi. Tinglanadigan musiqiy asar tuzilishi, badiiy-g'oyaviy mazmuni jihatidan o'quvchilarning yosh xususiyati va o'quv dasturiga mos bo'lishi, yangrash vaqti 1-1,5 daqiqadan oshmasligi lozim.

***Tinglash jarayonini quyidagicha amalga oshirish mumkin:***

- 1) bolalar diqqatini jamlash. Asar haqida o'qituvchining kirish so'zi;

- 2) o'qituvchi ijrosidagi yoki CD formatdagi asarni tinglash;
- 3) asarni suhbat orqali musiqiy, badiiy-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish;
- 4) asarni yaxlit qayta tinglagach, o'quvchilarning taassurotlarini eshitish.

Tinglanadigan asarlardan parchalar (mashq-qo'shiqlar) kuylash, chapak va cholg'u asboblari cholib, ularga ritmik jo'r bo'lish va musiqaga mos harakatlar bajarish chog'ida bilim va malaka takomillashib, mustahkamlanadi. 5–7-sinf o'quvchilari mustaqil fikr yuritadigan, aqlan va jismonan rivojlangan, musiqiy va estetik didi shakllangan bo'ladi. Shu bois, bu yoshdagi bolalar zamonaviy musiqa san'ati va uning ko'zga ko'ringan vakillari ijrosini tinglaydi. 7-sinf o'quvchilari bilan tinglash faoliyatini amalga oshirish jarayonida diqqatni jamlash, musiqani anglash, uni idrok etish, cholg'ularni va musiqiy janrlarni bir-biridan farqlashga o'rgatish tavsiya etiladi. Tinglash asnosida o'quvchilarga quyidagi mazmunda bir nechta topshiriqlar berish lozim:

1. Kuyning xarakterini toping.
2. Kuy qaysi cholg'uda ijro etilgan?
3. Kuyning o'zbek milliy kuylariga o'xshash jihatlari bormi?
4. Ushbu asar siz avval tinglagan kuylardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Asarni tinglash jarayonida tasavvuringizda qanday rang yoki obrazlar gavdalandi?

Bu kabi topshiriqlar orqali o'quvchilarning badiiy ijodkorlik va tinglash ko'nikmasi

shakllanadi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga eng tushunarli va sevimli bo'lgan faoliyat turi jamoa bo'lib kuylashdir. U musiqa san'ati janrlari orasida ommaviyligi bilan ajralib turadi. O'quvchilarning musiqiy didi va estetik qarashlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish o'quvchilarni jipslashtiradi.

Jamoa bo'lib kuylashda o'quvchilarning ovozini zo'riqtirmaslik, ovoz sifatлари (tembr, diapazon)ni o'stirish va rivojlantirish maqsadida kuylashdan oldin, albatta, barcha sinflarda ovoz sozlash mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Bunday mashqlarni prima, tersiya va kvinta oralig'ida bajarish, o'quvchilarning ovozini 0,5 tondan ikkinchi oktava – mi tovushigacha ko'tarish maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinflar uchun o'yin tarzida chapak chalib ovoz sozlash mashqlarini o'tkazish yaxshi natija beradi. Milliy ohanglarimizdan tuzilgan ovoz sozlash mashqlarining ham foydasi katta. Mashqlarni guruhlarda bajarish o'quvchilarni o'zaro hamjihatlikka va hamkorlikka o'rgatadi. Pedagog bolalarda aktiv faoliyatni vujudga keltirish uchun obrazli va she'riy so'z orqali ashula, o'yin, eshitish uchun pesa syujetini yoritadi, bolada paydo bo'ladigan xayolni qo'zg'aydi, obrazlarni chaqiradi, uni syujet asosida fikrlash harakati musiqa asarini programmasiga jalb qiladi. Shunday yo'nalishdan keyin musiqani idrok etish bolada emotsional tushunarli bo'ladi. So'z orqali natijani ifodalash va asarga baho berish musiqa rahbarining mohir rahbarligi ostida asta-sekin badiiy – musiqaviy didni paydo qiladi.

***Ovoz sozlash mashqi uchun quyidagi kuydan foydalanish mumkin:***

Bolalarning ovoz boylamlari kattalarnikidan ancha farq qilib, baland pardalarda jarangdor yangraydi. Ularning ovozi o'z navbatida soprano yoki diskant (o'g'il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ga bo'linadi. ***Soprano*** yoki ***diskant*** deb bolalarning yuqori ovoziga aytiladi. Bunday ovoz yyengil, o'zgaruvchan, yumshoq yangragani sababli qo'shiqlarda asosiy kuy yo'lini ta'sirchan ijro etadi. Uning diapazoni birinchi oktava -do dan ikkinchi oktava –sol gacha bo'lgan oraliqni egallaydi.

*Alt* esa pastroq ovoz bo‘lib, birmuncha yo‘g‘on va kuchli tembrga yaqinligi bilan ajralib turadi. Diapazoni kichik oktava -sol dan ikkinchi oktava –re gacha bo‘ladi.

Jamoaviy kuylash vocal – xor ijrochilik mahorati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, hamohanglik, so‘z, talaffuz, musiqiy badiiy vositalar, nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda o‘quvchilarda gavnani to‘g‘ri tutish, yuz, bo‘yin, yelka mushaklarini erkin qo‘yib, kuylayotgan paytda halqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, boshni erkin tutishni nazorat qilib borish va shu tarzda kuylash malakasini shakllantirish tavsiya etiladi.

Jamoa bo‘lib kuylashda legato, ya‘ni ohangning bir tekis bog‘lanishi; non legato – bog‘lamasdan alohida ijro etish (tovushlar orasida nafasni ushlab); stakkato – tovushlarni uzib, qisqa ijro etish (tovushlar orasida nafas olmaslik) kabi ijro uslublaridan keng foydalanish o‘quvchilarning ijro mahorati va zehni o‘stiradi.

Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. MTMda amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg‘ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg‘ulotning musiqa tinglash qismi oldida o‘ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko‘ra tinglash imkoniyati ancha keng bo‘ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg‘u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e‘tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg‘ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- bolalarni o‘z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;

- bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;

Musiqa haqida boshlang‘ich ma‘lumotlar berishni o‘rgatadigan asarlar

nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish.

Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtda bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzatish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib, tez so'nadi.

— 5 yoshli bolalarda diqqat-e'tiborning bir muncha emotsional turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. Yyengil, kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana boradi.

— 6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzdagi diqqat-e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Musiqa haqida o'z taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Asarni 2-3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi-yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bog'chaning tayyorlov guruhlarida bola o'z yoshiga muvofiq musiqa asarini to'la idrok etishga qodir bo'ladi. Bog'chada olingan bilim zahirasida malaka va ko'nikmasi, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga

yordam beradi

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy-uslubiy vazifalari: 1.Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg'ularini rivojlantirish.

1. Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.
2. Musiqa tinglash alohida metodlar orqali o'tkaziladi.

Shunday qilib, dasturda ko'zda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish, musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni o'ylash.

2. Musiqa tinglashga turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllanishi.

3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga musiqa tinglashi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bolalarga ular uchun tushunarli bo'lgan, ayniqsa, milliy musiqalardan ko'proq eshittirish qobiliyatini, musiqiy obrazni farqlay olishni, asardagi his-tuyg'ularni sezishni rivojlantiradi. MYoB ga musiqa madaniyatining elementar asosini singdirishda bolalarning yoshini alohida nazarda tutish kerak.

### **Musiqa savodi**

Musiqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda maktabgacha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq. Darhaqiqat, musiqa savodini o'rganish maktabgacha yoshdan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida MTMga qatnab, u yerdagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniye orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar sistemaga solinmagan bo'lsa-da, tarbiyachi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bolalar muassasalarida musiqa

ta'limiga asos solinadi, shuning uchun tarbiyachi musiqa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, maktabgacha yoshdagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, **tayyorlov bosqichi**. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad, bolalarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda **nota savodi**, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichikintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. MTM sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. MTMda olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

MTMda olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin: 1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishtga o'rgatish.

2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.

3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.

4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.

5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va

badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.

6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.

7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini MTM hayoti bilan bog'lash, MTMda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

**Musiqa savodi.** Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

**Musiqa tinglash** faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

**Musiqa ostida ritmik harakat bajarish** faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar.

Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Tarbiyalanuvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlashni (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy

dunyoqarashi shakllanib boradi.

Bolalar cholgʻu asboblari joʻr boʻlish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi boʻlmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni taʼkidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab oʻtilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman boʻlsa ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qoʻymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuygʻular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatadi.

### ***Vokal malakalari***

Vokal musiqasi - qoʻshiq aytish uchun moʻljallangan asosiy turlardan iborat boʻlib, bular yakka ijrochi, ansambl, duet, trio, xor boʻlib ijro etish, bir ovozda yoki koʻp ovozda musiqa asbobi joʻrligida yoki joʻrligisiz ijro etiladigan musiqiy asarlarni ifodalaydi.

Vokal sanʼati – qoʻshiq aytish mahorati.

Bu nafas olish bilan birga talaffuz, tovush hosil qilishning oʻzaro bir-biri bilan bogʻlanishi tushuniladi. Nafas olish tez va chuqur boʻlishi hamda shovqinsiz boʻlishi, nafas chiqarish esa sekin boʻlishi soʻzlari aniq, tushunarli boʻlishi kerak. Bu borada tilning, labning holati toʻgʻri boʻlishi va pastki jagʻning erkin harakat qilishi nazorat qilib borilishi lozim.

### ***Vokal va xor malakalari***

1. Vokal malakalari.
2. Tovush hosil qilish.
3. Nafas olish.
4. Diksiya (talaffuz) soʻzlarni aniq talaffuz qilish.
5. Xor malakalari (soʻz, tiniqlik)
6. Vokal va xor malakalari (intonatsiya, ansambl).

### **Yoshiga qarab guruhlar**

**Kichik guruhda.** Tabiiy ovoz bilan zo‘riqmasdan qo‘shiq kuylash. So‘zlarni tiniq va to‘g‘ri talaffuz qildirish.

**O‘rta guruhda.** Tabiiy ovoz bilan zo‘riqmasdan mayin qo‘shiq kuylash. Qisqa musiqiy frazalar orasida nafas olish. Qo‘shiqni birga boshlab birga tugatish

**Katta guruhda.** Tabiiy ovoz bilan zo‘riqmasdan mayin qo‘shiq kuylash. Qisqa musiqiy frazalar orasida nafas olish. Qo‘shiqni birga boshlab birga tugatish.

**Tayyorlov guruhda.** Jarangdor tovush bilan mazmundor va mayin qilib qo‘shiq ijro etish.

Qo‘shiq aytishni boshlashdan oldin nafas olish, yelkalarni ko‘tarmasdan nafasni oxirigacha sarflashga harakat qilish. Unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va so‘zlarni to‘g‘ri aytishga harakat qilish. Unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bilan so‘zlarni to‘g‘ri aytishga harakat qilish. So‘z oxirida unli tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish. Hamma birgalikda mustaqil ravishda kuylash, qo‘shiqni goh tezlatib, goh sekinlatib kuylashga harakat qilish.

Vokal-xor malakalari qo‘shiq aytish jarayonida egallanadi. Qo‘shiq aytish yullari musiqiy asarlarning murakkablashgani sayin qo‘shiq aytish malakalari ham murakkablashib boradi. Bu jarayon yuqorida keltirilgan jadvalda o‘z aksini topgan. Bu javdalda dasturning umumiy hajmi berilgan bo‘lib, bir muncha guruhlararo murakkablashib boradi. Undagi ayrim notali misollar qo‘shiq aytish malakalarini oshirishda ishlatiladi. Bolalar yilning oxiriga borib quyidagilarni bilishlari kerak:

**Kichik guruh.** Pedagogning yordami bilan eng sodda qo‘shiqlarni musiqiy asboblarda yordamida kuylash.

**O‘rta guruh.** Musiqiy asboblarda yordamida va asboblarsiz eng oson qo‘shiqlarni kuylash.

**Katta guruh.** Tarbiyachining yordami bilan musiqiy asboblarning jo‘rligi va jo‘rsiz tarzda, mustaqil ravishda qo‘shiq kuylashni bilishi, o‘rganilgan qo‘shiqlarni eshlashlari, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ijro etilayotganligini sezishi, tovushlarning past-balandligini va cho‘zilmalarini sezishi, to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishlari kerak.

**Maktabga tayyorlov guruhi.** Qo‘shiqni jo‘rli va jo‘rsiz, mazmundor qilib aytishlari, o‘rganilgan qo‘shiqlarni eshlashlari, jamoa va yakka holda qo‘shiq

aytishlari, o'zlarini eshitib, xatolarini tuzatishlari, kuyning harakatini aniqlab farqlashlari, notalarning nomlarini bilishlari, tovushlarning nota chizishning qayeriga joylashishini, pastdagi notalarning qaysi chiziq'larga joylashishini bilishlari hamda ayrim tovush o'xshatmalari qilishni bilishlari kerak. Pedagog bir yilda bolalarga nimalar o'rgatganligini, qaysi bolalarning musiqiy qobiliyati rivojlanganliklarini va x.k. aniqlab borishi va qilingan pedagogik ishlarni hisobga olib borishi kerak.

Shunday qilib, qo'shiq o'rgatish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: **Rang-barang qo'shiqlar bilan tanishtirish.**

Bu qo'shiqlar bolalarni ma'naviy dunyosini boyitadigan, yaxshi xislatlarga undaydigan, estetik zavq bag'ishlaydigan hamda bolalarning musiqiy ilhomini ko'taradigan bo'lish kerak;

Maktabgacha yoshidagi bolalarga mos qo'shiqlar va raqslar estetik tarbiya omili sifatida

Qo'shiq aytgan yetar murodga, to'lar kuchga, quvvatga! (xalq so'zi)

Ulug' ajdodlarimiz o'z asarlarida barkamol shaxs tarbiyasi va inson aql-zakovatining shakllanishida, musiqa ilmining o'rnini muhim ekanligini aytib o'tishgan. Bu sohaning o'ziga xos «sho'ba»lari ichida musiqa madaniyati tarbiyasi san'atining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan. Shu bois ham ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Marog'iy, Al Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Darvesh Ali Changiy, Alisher Navoiy) musiqaga ham ilm sohasi, ham san'at, ham tarbiya vositasi sifatida alohida ehtirom bilan qarashgan, uning turli muammolariga oid yirik asarlar, risolalar yaratganlar. Bu asarlar musiqiy-nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy nufuzini yo'qotgan emas. Biroq har qanday sohada bo'lgani kabi, musiqiy ta'limda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablari mavjud bo'lib, u har bir ijtimoiy davrning ta'limga buyurtmasi, ehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishda qo'shiqlar o'rgatish texnologiyasining o'rnini muhimligi mazkur o'quv qo'llanma

orqali yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Musiqqa mashg'ulotlarida qo'shiq kuylash bolalarga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta'sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi bolalarda musiqaga barqaror qiziqishni tarbiyalaydi, muhimi ular yaxshi musiqani, janrlarni, xalq va mumtoz musiqani ajratishga o'rganadilar.

Tadqiqot natijalari bolalarning qiziqish bilan qo'shiq kuylab, musiqqa tinglab, kompozitorlar hayoti bilan tanisha boshlaganliklarini ko'rsatdi. Hatto avvaliga musiqqa madaniyati mashg'ulotlariga e'tiborsizlik bilan qaragan bolalar ham, oxir-oqibatda musiqqa mashg'ulotlariga ko'tarinki ruhda, biror bir yangilikdan xabardor bo'lish niyatida kela boshladilar.

Bolalarda musiqqa mashg'uloti tarkibidagi turli xil faoliyatlarga bo'lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko'pchilik bolalarda musiqqa tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish jarayonlariga savodli, ya'ni ongli ravishda yondashish malakalari shakllandi.

Bolalarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ularda o'z fikrlarini bemalol bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Musiqqa mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bolalarning musiqiy bilimlarga, jumladan, musiqqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. Bolalar endilikda musiqiy boshqotirmalarni bemalol yechadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo'ldilar.

Tajribalar mashg'ulotlarning samaradorligi ularning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Musiqqa «til»i barchaga tushunarli va yaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko'tarish, quvonch va rohat baxsh etish bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir.

Qo'shiq kuylash faoliyati bolalar tarbiyasida musiqqa yetakchi o'rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo'lib, u bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin

egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. Qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnovozlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiqlarni o'rganish bolalarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur va shu kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi amalda o'z isbotini topdi.

Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan ilk kunlaridanoq, san'atga, ayniqsa, musiqaga intilish va qiziqishlari yuqori bo'ladi. Shuning uchun musiqa mashg'ulotlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu rahbarning mutaxassis, o'z sohasining ustasi sifatida bilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog'liqdir.

Qo'shiq kuylash – bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. U bolalarda nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan rivojlantiradi. Chunki bola kuylayotganda og'iz, burun, nafas yo'llari, ko'krak qafasi, umuman olganda, barcha a'zolari

faoliyat olib boradi. Bola kuylash jarayonida tik gavdasini erkin va to'g'ri tutishi, to'g'ri o'tirishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiqchiligi ko'nikmalarini tarbiyalash. Kuylash jarayonida nafas yo'llari ham rivojlanadi.

Bolalarga kuylash jarayonida matn va musiqa uyg'unligida bo'lganda matn va kuyga e'tibor beriladi. Qo'shiqda matn va musiqiy kuy birikib, tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatib turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ta'sirchanlik bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Bolaning kichik davridan qo'shiqni ma'nosini tushunmasa ham, uning mazmunini va musiqasiga tushunmasa ham unga hissiy munosabatni bildiradi. Bolaning rivojlangani sari, nutqi va hayot davomida olgan ko'nikmalari qo'shiqni umuman kuyni tushuna olishga yordam buradi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Qo'shiq kuylash bolalarning nutqini ham rivojlanishiga zamin yaratadi. Qo'shiq so'zlari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zlarni bo'g'inlab, xatosiz o'rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar.

Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash – musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi.

Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va

ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolarning nutqini rivojlantiradi.

Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matnga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek: «Qo'shiqda, ayniqsa, xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi uning jumbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud».

Ko'pgina hollarda o'g'il bolaning shahdam yurib marshni kuylayotganini, qiz bolaning esa qug'irchoqni allalashini kuzatishimiz mumkin.

***Bolaning ovozi*** – tabiiy cholg'udir, chunki bu cholg'u u yoshligidan mavjud. Mana shuning uchun ham uning hayoti davomida hamroh bo'ladi va turli o'yinlarda foydalanadi. Undan tashqari qo'shiq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo'llanadi. Masalan, raqs, xorovod, bolalar cholg'ularida ijro etganda.

Qo'shiq – bu bolaning dunyoqarashini kengaytirib, yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Qo'shiqlarda tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga, ajdodlarga hurmat o'zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy axloqlarni o'stirishga yordam beradi.

Qo'shiq o'rgatish jarayonida bolalardan katta aqliy mehnat talab etiladi. U yonidagi bolani eshitishni, uning qo'shig'iga o'z munosabatini bildirishni, musiqiy jummalarni bir-biri bilan solishtirishni, taqqoslashni, fortepiano jo'rligini tinglay olishi, qo'shiqni garmonik va melodik tizimini eshita olishni va ijro sifatini baholashni o'rgatadi.

Qo'shiq bola organizmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, nutqini o'stiradi, ovoz apparatlarini rivojlantiradi, qo'shiqchilik nafasini shakllantiradi. Bola qo'shiq kuylashda, asosan, musiqiy hissi, emotsional ta'siri, musiqiy eshituvi (slux), ritm hissi rivojlanadi. Qo'shiq kuylashning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri bu – jamoa bo'lib ko'ylashdir.

Bola eshituv qobiliyati (slux) va ovozini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Qo'shiq – tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, asosan ovoz va eshituv organlarining mujassamlashuvi asosini tashkil etadi, ya'ni eshituv apparati va qo'shiqchilik ovozining o'zaro bog'liqligidir. Eshituv qobiliyatining takomillashuvi – bolalarning kichik yoshidan rivojlanadi. Ular musiqa rahbari yoki tarbiyachi kuylab berganda qo'shiq, kuy yoki ohangni

sofligicha eshitadilar va shundayligicha kuylaydilar.

Kichik yoshdagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni kuylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyin o'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan (tovush paylari rivojlanmagan, nozik, nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bola ovozi yetarli darjada yorqinligi bo'lmaydi.

Bolaning tabiiy ovozi *rel - sil*, ya'ni undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovush zo'riqishi va siqib kuylashi mumkin. Bu bolalarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarga yo'l qo'ymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi kerak. Bunda asosiy e'tiborni qo'shiqchilik diapazoniga qaratamiz.

Berilgan jadvalda bolalarning ovozi pastki, yuqori va ishchi diapazoni mavjuddir. Bolalarga qo'shiq o'rgatayotganda va repertuar tanlaganda nimalarga e'tibor berilishi kerak? Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zga tutib tanlanadi. Unda har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diapazoni bolalar ovozigacha mosligi, badiiy g'oyaviy mazmuni, bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishi kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

1. Qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.
2. Qo'shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug'at boyligiga mosligi va ularning nutqini va tafakkurini o'stirish uchun xizmat qilishi.
3. Qo'shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli, g'amgin, bayramona, ko'tarinki ruhda), lad va tessiturasini, ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo'lishi.
4. Qo'shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.
5. Qo'shiq shakli (1, 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi) naqaratning

mavjudligi.

Qo‘shiqni tanlashdagi bolalarga qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo‘shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g‘oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg‘otadi.

Badiiy qo‘shiqlar sirasiga D.Omonullayevaning bolalar uchun yozilgan «Diloromning qo‘shig‘i», «Buvijonim», «Aziz bo‘ston – O‘zbekiston», «Navzo‘zim», «O‘zbekiston – Vatanim manim»; N.Norxo‘jayevning «O‘ynasang-chi tipratikan», «Nevaralar qo‘shig‘i», «Kapalak va kamalak», «Kakligim», «Shaftoliga savolim», «Navo‘zim – sho‘x sozim», «Salom bergan bolalar», «Buvijonim yaxshisiz», «Gullar manim kulganim», «Yaxshi bola», «Biz askarmiz»; Sh.Yormatovning «Ay-yay-yay», «Islom bobo»; A.Mansurovning «Muzqaymoq», «Vatanginam»; F.Nazarovning «Inoq o‘ynaymiz», «Paxtaoy», «Qish chog‘lari» va boshqa ko‘plab O‘zbekiston kompozitorlarining qo‘shiqlari bolalar ijodiyotida so‘nmas iz qoldirib, ularning badiiy tarbiyasi va didini o‘stirishga yordam beradi. Qo‘shiqni tarbiyachi ifodali qilib ijro etib beradi.

Qo‘shiq mazmuniga mos tasviriy san‘at uning mazmuniga va tuzilishiga xos savol- javoblar qilib, qo‘shiqni musiqiy jumalarga bo‘lib o‘rgatadi. So‘ngra qo‘shiq mazmunga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o‘rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzning aniqligi ma‘lum me‘yorga tushgandan so‘ng, qo‘shiqning badiiy ijrosiga yerishildi. Qo‘shiqni vaqt-vaqti bilan sayr vaqtida, mashg‘ulotdan-mashg‘ulotga takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni bolalar xotirasidan ko‘tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir mashg‘ulotda, ayniqsa, yangi qo‘shiqni o‘rganishdan oldin, ilgari o‘rgatilgan qo‘shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi aytim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi.

Bolalar toliqmasligi uchun qo‘shiq o‘rgatish shakllari o‘zgartirib turiladi. Masalan: guruhlarga bo‘lib o‘rgatish; yakkaxon va guruh jo‘rligida; musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib; qo‘shiq matniga mos raqs elementlarini o‘ylab ko‘rishga va o‘zlari uni ijro etishga undab ko‘rish yaxshi samara beradi.

Qo‘shiq mukammal o‘rganilgandan so‘ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, mashg‘ulot shakllarini (noan‘anaviy mashg‘ulotlar) o‘zgartirilib turish

ham mashg'ulotlarda bolalarning zerikishini oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi.

Yil davomida bolalar 10-12 ta qo'shiq o'rganishlari ko'zda tutiladi. Bunga erishish uchun qo'yiladigan vazifalar: bolalarda sof intonatsiya va qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish; bolalarga yakka va tarbiyachi bilan qo'shiq kuylash, a'kapella tarzida ijro etish; musiqiy eshituv qobiliyatini, kuyning balandligi, ularning uzunligi, kuyning yo'nalishi, o'zini eshita olishi (kuylayotganida), ijro vaqtida o'zining xatolarini eshita olishini rivojlantirish; ovoz rivoji, tabiiy ijroga erishish; bolalarda ijodkorlik malakalarini rivojlantirish, ular ijro etgan qo'shiqlarini xorovodlar va o'yinlarda qo'llash.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI QO'SHIQ KUYLASHGA O'RGATISH**

Yuqorida qo'shiq kuylash jarayonida kichik yoshdagi bolalar va ular kuylash jarayonida ovozlarining ahamiyati, qanday nota tanlanishi va kuylashlari kerakligi, cheklov va mumkin bo'lgan holatlar haqida fikr keltirgan bo'lsak, ana endi yuqoridagi jarayonlarning amaliy tahlili xususida so'z yuritamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar ovozi ularning o'zlashtirish qoliliyatlarini imkoniyatidan kelib chiqqan holda, kuylash malakalari qo'shiq yodlash va o'rgatish jarayonida rivojlanadi. Asar murakkablashgani sari malaka rivojlanadi. Bog'chada tarbiyalash jarayonida bilishi kerak: Kichik va o'rta guruh – musiqa rahbari musiqa asbobi yordamida oddiy, murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni kuylay olishi kerak. Katta guruh – asbobsiz faqat musiqa rahbarining yordami bilan yoki musiqa rahbarisiz musiqa asbobi jo'rligida kuylashi, tovushlar balandligi va cho'zimlarini farqlay olishi, qo'shiq kuylash jarayonida to'g'ri, tik, yelkani ko'tarib o'tirishi kerak.

Maktabgacha tayyorlov guruhi – yodlagan qo'shig'ini ifodali kuylab berish, oldin yodlagan qo'shig'ini eslab kuylashi, kuylash jarayonida yonidagi bolalarni eshita olishi va kamchilik – u xatolarini to'g'rilay olishi, tovushlarning yuqoriga va pastga harakatlanishini farqlay olishi, notalar qisqa uzunligini va notalarning nomlarini bilishi kerak.

Qo'shiq kuylashga o'rgatishning metodlari va yo'llari musiqa rahbari

bolalarga qo‘shiqni o‘rgatishdan oldin qo‘shiqni tanishtirishi, kompozitori haqida, asarning matni, mazmuni haqida gapirib berishi kerak, bir so‘z bilan aytganda bolalarda bu qo‘shiqni o‘rganish uchun qiziqishlarini uyg‘otishdir.

Qo‘shiq qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo‘llari:

1. Qo‘shiqda sakrama harakatlar ko‘p. Bular bolalar kuylashi uchun murakkabdir. Shuning uchun sof kuylashga alohida e‘tibor qaratish kerak.

2. Qo‘shiqda punktir ritmlaridan ham keng foylanilgan va ularni aniq talaffuz etish kerak.

3. Ligali notalar. Bunday notalar asosan jumlar oxirida uchraydi va buni to‘g‘ri va sof kuylashga erishish kerak.

Bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi muhitni ta‘siri juda kattadir. Boladagi eng muhim individual xususiyatlar oiladagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta‘sirida shakllanadi. Qo‘shiqning ohangiga bo‘lgan intilish bola ongida ona allasi orqali rivojlantiriladi. Bunda ota-ona, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, san‘at, musiqiy madaniyatga bo‘lgan munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham Respublikamizda oila tarbiyasiga davlat siyosati darajasida qaralib kelinayotganligi bejiz emas. Ma‘lumki, yosh bolalar juda ta‘sirchan, qiziquvchan, taqlidchan, tez o‘zgaruvchanligi sababli ular uchun atrofidagi barcha ijobiy va sal‘biy holatlarga munosabat birday yaqin hisoblanadi.

Har tomonlama barkamol madaniyatli shaxs avvalo, oilada shakllanadi. Yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi, turli voqea-hodisalar, urf-odatlar, san‘at, madaniyatga oid ta‘ssurotlari ko‘pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko‘rish, konsert tomosha qilish, teatr, konsert tomoshalariga borish, o‘z taassurotlarini o‘rtoqlashish kabilar bolalar dunyoqarashini o‘stirib, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot, san‘at, musiqani mohiyatini tushinishga, badiiy va g‘oyaviy idrok etishga olib keladi. Bu esa uning kelajagini belgilashda, san‘atning muayyan turi bilan bog‘lanib qolishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fan, adabiyot, san‘at sohasida Yevropa klassik musiqasining buyuk namoyondalari Bax, Betxoven, Bize, Motsart, Verdi, Shopen, rus kompozitorlari Glinka, Borodin, Balakirov, Rimskiy-Korsakov, Chaykovskiy,

Prokofev, Shostakovich, o'zbek bastakor va kompozitorlari M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Y.Rajabiy, T.Jalilov, M.Burhonov, S.Jalil va ko'plab xalq hofizlari va sozandalarning hayotida ular tug'ilib o'sgan oilani ta'siri juda katta bo'lgan.

Hozirgi kunda musiqa rahbarlari oldidagi eng muhim vazifalardan biri musiqiy tarbiya va musiqiy madaniyatni oilaviy hamkorlikda tashkil etishdir. Bu boradagi faoliyatni maqsadli yo'lga qo'yish, samarali ish shakl va usullaridan foydalanish bolalarni yuqorida ta'kidlanganidek madaniyat va san'atning muayyan sohalariga izchil bog'lanib qolishlari, kelajakda yetuk xonanda, sozanda, bastakor-kompozitor bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Musiqa rahbarlariga bu borada quyidagi tavsiyalarimizni bildirishni lozim deb topdik:

- musiqa rahbarlari har bir bolaning oilasi bilan yaqindan tanishishi, doimiy aloqani yo'lga qo'yishi;

- bolalarni musiqa san'atining muayyan turlariga qiziqishi, qobiliyatiga qarab, ularning ota-onalarini bu haqda xabardor qilish, maktabda va oilada mustaqil qo'shimcha shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratishi;

- musiqa mashg'ulotlariga, to'garaklar, ijodiy markazlarga qatnashishlarini ota-onasi tomonidan ham nazorat qilib borilishiga e'tibor qaratish;

- bolalar ishtirok etadigan turli madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, konsertlarga ularning ota-onalarini taklif qilish;

- ota-onalar uchun maxsus ma'ruza konsertlar, madaniyat, san'at vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

- bolalarga individual topshiriqlar berish, mustaqil shug'ullanishlari va topshiriqlarni bajarilishi yuzasidan ota-onalar fikrlarini so'rab turish.

Bunday hamkorlik bo'yicha tashkil etiladigan ishlar bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini, ularning musiqa bo'yicha individual qobiliyat va iqtidorlarini o'stirishga, iste'dod kurtaklarini keng ochilishiga va musiqiy madaniyatni yuksalishiga imkon yaratadi.

Musiqa rahbari ko'pchilik oldida musiqa targ'ibotchisi sifatida chiqib o'z faoliyatini bajarishda rus musiqiy pedagogi D. V. Kabalevskiy aytganidek-  
*“..o'zining eng asosiy vazifasini xoh zaldagi konsert paytida, xoh musiqa*

*mas'uloti bo'lsin, bolalar bilan suhbatlashayotganda, ularni musiqaga qiziqtirish, emotsional jalb qilish, o'zining musiqaga muhabbatini ularga singdirish zarurligini bir daqiqaga ham unutmasligi kerak*".

Musiqqa tarbiyasi bolalarga musiqqa tinglash, qo'shiqlarni yodlash musiqqa bilan harakatlarni bajarish, musiqqa asboblarini chalish, musiqqa va musiqachilar haqidagi kitoblarni o'qish, teatr konsert, filarmoniyaga borish singari musiqaviy faoliyatning har xil turlarini o'rganishdan iboratdir. Musiqqa tinglanganidan keyingi bolalardagi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bu bilan bolalar o'rtasida bir-birlarini anglash ruhi va o'zaro ishonch vujudga keladi.

Musiqqa rahbarining bolalar diqqatini qo'shiq mazmuniga jalb qila olishi, bolalarda o'zlari ijro etadigan musiqqa asarlarini emotsional ma'nosini anglashga intilishini vujudga keltirish, ularning olam haqidagi tushunchalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bola musiqqa



qarab harakat qilar ekan, unda beixtiyor emotsional moyillik va ritmni his etish shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi musiqqa ta'limi va tarbiyasining vazifasi

bolalarni Vatanga sadoqat, do'stlik, tinchliksevarlik, mehnatga muhabbat ruhida kamol toptirish ularning musiqaviy didi bilan estetik saviyasini oshirishdan iboratdir.

Bizning mamlakatimizda bolalarni estetik ruhda tarbiyalash uchun kerakli hamma shart sharoitlar mavjuddir. "Yoshlar markazlari", "Bolalar va o'smirlar ijodiyoti markazi", muzey, teatrlar, kutubxona va madaniyat uylari bolalarning sevimli imaskaniga aylangan.

Bolaning yosh chog'idanoq nafosatni bilishga va sevishga oilada ota-onasi yordam berish kerak. Birinchi prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat - yyengilmas kuch" asarida o'zbek xalqida san'atga xavas oiladan boshlanadi, deb bejizga aytmagan. Ota-onalar farzandidagi san'atga bo'lgan mehr-muhabbatni birinchi galda payqaydilar. Bolalar yoshligidanoq san'atga xavasmand bo'ladilar. Bolalarda ana shu his tuyg'uni, nafosatni sevish tuyg'ularni rivojlantirish har bir ota-onaning vazifasidir, ba'zi ota-onalar o'z bolalarini estetik ruhda tarbiyalashga noto'g'ri munosabatda bo'lishni ham bilamiz. Ba'zi ota-onalar bolalarni musiqaga, rassomchilikka, san'atning qaysi bir turlariga ya'ni, qiziqqan sohasiga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Sendan yaxshi musiqachi chiqmaydi, deb bolalarning qiziqishini so'ndiradilar. Ko'pgina ota-onalarimiz ajoyib san'at turi musiqaning simfonik, klassik janrida ijro etiladigan asarlarni tushunmaydilar va bolalariga ham tushuntirib bera olmaydilar. Bu borada esa yoshlarimizni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Bolalarning bu kabi xususiyatlari har bir rahbardan ijrochilik mahorati bilan bir qatorda katta pedagogik mahoratga ega bo'lishlikni talab qiladi. Shuning bilan bir qatorda musiqa mashg'ulotlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Rahbar, avvalo, bolalarni musiqa olamiga olib kirarkan, bolalarda musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, musiqiy tilni tushuntirishga, dunyoqarashini shakllantirishga, musiqiy didini o'stirishga, go'zallikni his qilishga, musiqiy o'quvini rivojlantirishga harakat qiladi.

Musiqa ta'limining o'ziga xos yo'naltirilgan ma'lum bir vazifalari ham

mavjuddir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari musiqa mashg'uloti va ertaliklar yordamida qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

1. Bolalarga musiqaga ixlos uyg'otish, musiqiy qobiliyatini (ritm tuyg'usi, musiqaviy diqqati, tasavvur va xotirasini, badiiy didini) o'stirish.

2. Bolalarda milliy merosimizga e'tibor, ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirishga ishtiyoq, farzandlik, bolalik va jamoatchilik oldidagi burchini anglash, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish, didsizlik, xunuklik, g'oyasizlik, danganlik, tubanlik kabi salbiy hislarga nisbatan murosasiz bo'lishni tarbiyalash.

3. Bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, ularning hayotga, o'qishga, mehnatga va turli hatti-harakatlarga go'zallik olib kirishi qobiliyatini rivojlantirish, o'z-o'ziga va atrof muhitdagi barcha nasalarga go'zallik kirita olishga o'rgatish.

Musiqa mashg'uloti ma'lumki, xorda kuylash, musiqa savodi, kuylash kabi asosiy musiqa faoliyatlarini o'z ichiga oladi va bolalarni ular bilan tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Mashg'ulotning har bir turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak kabi turli bolalar musiqa asbobidan chalib, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarining chalinishi, qo'l harakatlari bilan imitatsiya qilish, chapak kabi elementlardan keng foydalanish yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqa mashg'uloti avvalo bolalarni dunyoqarashini o'zgartirib, madaniyatli, estetik jihatidan barkamol bo'lib o'sishlarida munosib o'rin tutadi. Musiqani idrok etishga, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti va tarixini, milliy qadriyatlarimizni o'rgatadi va san'at durdonalari bilan tanishtiradi, vokal-xor malakalarini rivojlantiradi, musiqiy qobiliyatini o'stiradi, hamda unga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi.

Musiqa mashg'ulotlarida rahbar bolaga dastavval bor musiqani eshita bilishni o'rgatadi, musiqa mazmunini, go'zalligini tushunishiga, musiqaga bo'lgan

qiziqishini va ixlosini uygʻotishga, musiqiy tushunchalarni, musiqa qirralarini, turlari va shakllarini, janrlarini ochib beradi va madaniy ozuqa beradi. Musiqa taʼlimiy jarayonlarni sifatli amalga oshirish uchun, avvalo rahbarning qanday malaka va qobiliyatga ega ekanligiga bogʻliqdir. *Rahbar oʻz kasbining mutaxassisi boʻlishi, musiqani quvonch baxsh etadigan jonli sanʼat sifatida sevishi, unga ehtirosli munosabatda boʻlishi hamda oʻzi sevmaydigan narsalarga bolalarda muhabbat uygʻota olmasligini, hech qachon unutmasligi lozim.* Rahbar oʻz oʻrni va qadrini bilishi kerak. Mashgʻulotda rahbar obyekt, bolalar esa subyekt boʻlishlari lozim. Rahbar barcha maʼnaviy kuchlarini safarbar etish, gʻoyatda bardoshli, bolalarni va oʻz ishini chinakam sevish kerak.

**Kuylash faoliyati** bolalarning musiqa oʻquv qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa boʻlib kuylash jarayonida bola oʻz ovoz ijrosini boshqaradi, oʻrtoqlarining ijrolarini eshitib koʻzatadi va ular bilan birga joʻrnavezlik qilishga intiladi. Zotan, tinglash va kuylash oʻquv dasturi taʼlim mazmunining asosini tashkil etadi. Bolalarda kuylash va tinglash faoliyatlarini oʻrganishi bilan birga cholgʻuchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari ham har tomonlama rivojlantiriladi, bilim va malakalarni oʻzlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida egallash imkoniyatlari yaratiladi.

## **MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA MUSIQAVIY TARBIYA BERISH METODLARI**

Musiqaviy tarbiya metodlarining tanlanishi bolalarning qaysi metodlarga tayangan holda bilim olishlariga ham bogʻliqdir. Bunda birinchi manba musiqaning oʻzi boʻlishi tabiiy, chunki «faqat musiqagina insonda musiqaviy hissiyotlarni uygʻotishi mumkin». Bu borada bolalar bilan ishlash, dastlab, musiqa tinglash tajribasi va kunikmasini orttirib borishga qaratilgan buladi. Bolalarnig yoshi qanchalik kichik boʻlsa, ularda musiqa tinglash tajribasini orttirishga ketadigan davr ham shunchalik katta boʻladi.

Bilim olishning ikkinchi manbai pedagog soʻzidir: bu soʻz bolalarning musiqaviy obraz haqida yaxlit tassavurga ega boʻlishini, musiqa asarining

mazmunini aniq tushunib olishini ta'minlaydi.

Uchinchi manba bolalarning bevosita musiqa bilan shugullanishidir, chunki musiqa bilan shugullanmasdan, uni mashq qilmasdan, qo'shiq aytish va musiqal-ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirish, shu soha bilan bogliq bilimlarni o'zlashtirish ham mumkin emas. Binobarin, faqat praktik faoliyatgina har tomonlama rivojlanishga yordam beradi, ijtimoiy hodisalarga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi, tashabbuskor, ongli va aktiv bo'lishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, biz musiqaviy tarbiya metodlarini tanlashda – jonli kuzatuvdan abstrakt fikrlashga va undan praktikaga qarab borishga tayanamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa ta'limi va tarbiyasi berishning o'zaro uzviy boglangan uchta metodi bor:

- 1) ko'rgazmali metodi;
- 2) so'zlab berish metodi;
- 3) amaliy faoliyat metodi.

Bu metodlarning har biri ma'lum spetsifik xususiyatlardan kelib chiquvchi qator usullarni o'z ichiga oladi. O'rganish protsessida ulardan qaysi birini tanlash muayyan musiqa mashg'ulotining konkret vazifasi, ijro yetilayotgan musiqa materialining murakkabligi, o'qitishning etaplari va bolalarning umumiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Bolalarga turli metodik usullardan foydalangan holda musiqaviy ta'lim-tarbiya berishda pedagog quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

a) bolalarga tavsiya etilayotgan musiqa materialining badiiyligini va uning sifati ijrosini ta'minlash;

b) muayyan bolalar kollektivining o'ziga xosligini, uning umumiy va musiqaviy taraqqiyot darajasi, uyushqoqligini hisobga olish;

v) maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqani obrazli va aniq idrok eta olishini e'tiborga olish;

g) asar mazmunini va musiqaviy ifoda vositalarini bolalar hissiyotini va ongiga yetkaza bilish;

d) bolalarni aktivlashtirish, ularning e'tiborini musiqa sadosiga torta bilish;

e) ta'lim berish jarayonida bolalarda musiqaviy obrazni idrok etish

qobiliyatini tarbiyalash.

Yuqorida keltirilgan metodlarning har birini alohida ko‘rib chiqaylik:

**KO‘RGAZMALI METOD.** Bu metod bolalarga turli hodisalarni, atrof-muhitdagi voqealarni, kishi va hayvonlarning hissiyoti, harakatni yorqin va badiiy obrazlarda ko‘rsatishga, ularni hayot va turmush jixozlar bilan tanishtirishga asoslanadi.

1) eshitishga asoslangan ko‘rgazmalilik. Bunda bolani o‘rgatish bevosita musiqa eshitish orqali bo‘ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg‘ulot paytida yoki bola tomonidan qo‘shiq va musiqaviy-ritmik harakatlarning ijro yetilishi paytida bo‘lishi mumkin.

2) ko‘rishga asoslangan ko‘rgazmalilik. U musiqa sadolari bilan qushib olib boriladi. Bu usulga quyidagilar kiritiladi: qo‘shiq aytish usullari, yo‘llaridan, turli o‘yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko‘rsatish; muayyan musiqa asari bilan bogliq o‘yinchoqlarni, rasm, kostyum va boshqa predmetlarni ko‘rsatish va h.k.

**SO‘ZLAB BERISH METODI.** Bu metod bola ongiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faoliyatini ma’noli va mazmunldor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so‘zi musiqa asarining programmasini tushunib olishda bolaga yordam beradi: uning tasavvurini jonlantiradi, ijodiy aktivligani oshiradi.

So‘zlab berish metodini quyidagi usullari bor:<sup>3</sup>

1) **tushuntirish.** Bu usuldan yangi asarni tinglash, qo‘shiq aytish, o‘yin va raqslarni qo‘yish, mashq qilish paytida foydalaniladi. Tushuntirish aniq va qisqa, ortiqcha qaytariqlarsiz bo‘lishi kerak. Musiqa material va topshiriqlar bolalar tomonidan o‘zlashtirila boshlangan dastlabki (birinchi) davrda tushuntirish yana bir bor takrorlanadi. Obrazli hikoya qilish tipidagi tushuntirishlar programmali musiqa asarlarini tinglashda va syujetli musiqaviy o‘yinlarni ijro etishda qo‘llanishi mumkin. Obrazli hikoya bolalarning qiziqishini, ularning emotsional kechinmalarini kuchaytiradi, obrazlarni anglab olish qobiliyatini orttiradi, tasavvurni rivojlantiradi. Obrazli hikoya musiqa asarining syujet yo‘li rivojiga aynan mos bo‘lishi kerak. Quyida kompozitor **Ye. Teslichyovanning** «Quyuncha» va «Ayiqlik» asaridan «Quyuncha»

---

<sup>3</sup> Altibayeva G.M. MT da musiqa o‘qitish metodikasi maruzalar matni. – TerDU. 2018.

va «Ayiq» musiqasini syujetli ijro etish bo'yicha obrazli hikoya qilishga misol keltiramiz: «O'rmonda qish tongi. Yalanglikda quyonlar chopishadi, aylanishadi, sakrab-sakrab o'zlarini isitishadi, Ular o'yinga shu darajada berilib ketishdiki, hatgo o'z uyasida uxlab yotgan ayiqni uyg'otib yuborishdi. Ayiq o'rnidan turib, uyqusiga kim halaqit berayotganini ko'rgani ketdi. Quyonlar ayiqni ko'rib tumtaraqay qochishdi, butalar orasiga berkinishdi. Ayiq ketgandan so'ng yana yalanglikka chiqib sakray boshlashdi»;

2) **izohlash.** Bunday izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarni, qo'shiq aytishnyang turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq formada beriladi. Izohlarning noaniq bo'lishi ko'gshncha tushunmaslikka va yomon ijro etishga sabab bo'ladi. Izohlash ko'rsatish bilan uzviy boglangan bo'lishi kerak. Pedagog bolalarni izohni oxirigacha tinglashga o'rgatadi. Masalan, bolalar biror narsani o'rganish jarayonida pedagog ko'rsatayotgan harakatlarni u bilan izma-iz takrorlay boshlasa, pedagog ularga «harakat qilmay, e'tibor bilan tinglang va bu harakatlarning qanday bajarilishini oldin ko'rib oling» deydi, qo'shiq aytish o'rgatilayotgan bo'lsa (masalan, «Kotya, Kotyonka, Kotok») va bunda cho'ziq notalarni qanday aytish kerakligi tushuntirilishi lozim bo'lsa unda pedagog bolalarga «qani, kelimg, o'zimizni bir tinglab ko'raylik, oxirgi notani hamma cho'zib kuylaganmikin, kotik ham eshitsin uchun bu notani uzoq cho'zishdimikin» deb izoh beradi;

3) **ko'rsatma berish.** Ko'rsatmalar odatda bolalar turli o'yin, raqs va mashiqqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan, «O'ng yelka tomondan aylanish kerak», «Oyoq barmoqlarini pastga cho'zing» kabi. Bunday ko'rsatmalar u yoki bu harakatni qanday bajarish kerakligini anglab olishga, harakatlarni bajarish usullari bilan bog'liq tushunchalarni aniqlashga yordam beradi;

4) **poetik nutq.** Programmali musiqa asarini ijro etishdan oldin kichikroq prozaik yoki poetik asarni yoxud ulardan biror parchani o'qitish (o'qib berish) bolalarning musiqa asari obrazini chuqurroq his etish va tushunib olishga yordam beradi. Masalan, P.I.Chaykovskiyning «To'rg'ay» («Javoronok») asarini ijro etigtdan oldin bolalarga V.A.Jukovskiyning quyidagi to'rtligini o'qib berish mumkin:

Quyoshda qora o'rmon qizg'ish tus oldi, Vodiydagi siyrak bug' bir oz oqargay. Shunda tong qo'shigini kuylashga tushdi, Moviy osmonda uchgan ovozdor to'rg'ay.

Ba'zan yangi qo'shiq tinglashdan oldin pedagog qo'shiq tekstini bolalarga o'qib berishi ham mumkin;

5) **suhbat.** U odatda musiqa tinglab bo'lganidan so'ng o'tkaziladi. Suhbat jarayonida bolalar musiqadan olgan taassurotlari haqida gapirishadi, unda ifodalangan obrazlar va hodisalarga munosabat bildirishadi, baho berishadi. Bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar qisqa lo'nda va ta'sirchan bo'lishi kerak;

6) **so'rash.** Bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar doimo savollar yordamida bo'ladi. Pedagog asar mazmuni bilan bog'liq holda bolalarga savollar berar ekan, bu savollarni ortiqcha detallashtirmasligi kerak. Savollar yordamida badiiy obrazning mazmuni, xarakteri oydinlashtiriladi, musiqa asarlarining ta'sir kuchini ta'minlovchi forma va vositalar aniqlanadi. Masalan, raqs kuyi ijro etilgandan so'ng pedagog bolalardan «Men ijro qilgan kuy raqs kuyimi yoki marshmi?», Bu musiqaning xarakteri qanaqa?», «Bu kuyga qanday harakat mos keladi?» deb so'rashi mumkin;

7) **tanbeh berish.** Bu usuldan bolaning ma'lum sabablarga ko'ra diqqati bo'linganda va xayoli asosiy vazifadai chetga chiqqanda foydalaniladi. Tanbeh berish jiddiy bo'lishi, ammo odob doirasidan chetga chiqmasligi kerak.

**AMALIY FAOLIYAT METODI.** Bolalarning konkret faoliyati ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan hamda sistemali mashg'ulotlar tarzida olib boriladigan ta'lim-tarbiya sifatida qaraladi.

Qo'shiq aytish va musiqal-ritmik harakatlarni bajarishda bolalarga shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali qilib bajarishga intilishsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin. Bunday murakkablashtirish bolalarning ko'nikma darajasiga va ta'lim programmasiga xilof bo'lmasligi kerak. Ba'zi qiyin holatlarga duch kelganda esa bolalar bilan alohida individual ishlash tavsiya qilinadi.

Musiqaviy tarbiyaning barcha metodlaridan pedagog bir butun sistema

sifatida foydalanadi. Soʻz bolani asarning mazmunini his etishga va tushinishga undaydi, musiqa esa bolada paydo boʻlgan taassurotni emotsional jihatdan



chuqurlashtiradi. Musiqa hissiyotga taʼsir qiladi, ayni paytda fikr ham tugʻdiradi. Fikr esa konkret, soʻzlarsiz yalongʻoch holda boʻlmaydi.

Bolalar musiqa asarini, ayniqsa, programmasiz (maʼlum syujet mazmuniga ega boʻlmagan) asarni tushuna olishi uchun pedagog musiqani

idrok qilish, his etish protsessida bevosita boshchilik qilishi, buning uchun musiqa asarining mazmunini tushuntirib borishi, badiiy obrazlarni tushuntirishda esa nihoyatda ehtiyotkor boʻlishi kerak. Soʻz va musiqa bola faoliyatini yoʻnaltirib boradi. Masalan, pedagog qoʻshiq aytishning baʼzi usullarini bolalarga koʻrsatish va tushuntirish bilan birga baʼzi frazalar, naqorat yoki soʻzlarni eshittirib ham beradi. Maʼlum musiqa-ritmik topshiriqni oʻzlashtirish va bajarishi uchun bolalar shu musiqa va topshiriqni eshitibgina qolmay, balki uning qanday ijro etilishini koʻrishi ham kerak. Musiqa asarlarining badiiy obrazi shu daraja taʼsirchan boʻladiki, pedagog tushuntirish jarayonida bu obraz taʼsirini soʻndirmasligi, musiqa asarining mazmunini uzib qoʻymasligi, balki, aksincha, yuksak pedagogik takt va mahorat bilan uni yanada chuqurlashtirib rivojlantirishi kerak. Buni musiqaviy tarbiya metodlaridan aralash foydalanganda doimo yodda tutish zarur boʻladi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, musiqa asbobi bilan chalinadigan kuyni tinglashdan oldin pedagog tomonidan soʻzlanadigan tushuntirish nutqi poetik, obrazli yoki sharhlovchi xarakterda boʻlishi mumkin. Qoʻshiq aytishga oʻrgatish jarayonida soʻzlanadigan nutq mazmuni musiqa va adabiy tekstlarning uzviy bogʻliqligi bilan belgilangadi. Qoʻshiq adabiy tekst orqali oʻz mazmuni haqida oʻzi maʼlumot beradi, shunisi bilan musiqa asbobida chalinadigan kuydan farq qiladi. Shuning uchun pedagogning qoʻshiq haqidagi koʻrsatma va suhbatlari shu qoʻshiqning badiiy obraziga mos

bo'lishi kerak. Qo'shiqning adabiy teksti, ayniqsa u murakkab poetik oborotlardan tarkib topgan bo'lsa, alohida tushuntirishni talab qiladi. Ma'lum musiqa asari bo'yicha bolalar bilan ishlashning maqsadga metodik usullarini topish uchun pedagog bu asarni yaxshi bilishi, badiiy ta'sir vositalari bilan tanishib chiqishi, asar mazmuni va xarakterini chuqur o'rgangan bo'lishi shart. Shundagina musiqa ijrosida bolalarning anglab olishini ta'minlovchi oddiylik va ta'sirchanlikka erishishi mumkin bo'ladi.

Endi maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqaga o'rgatishning qanday etaplari borligini ko'zdan kechiraylik:

**1-etap** – musiqa asari bilan dastlabki tanishish etapi. Asar bilan dastlabki uchrashuv paytida (1-etapda) qo'shiqchining ovozi va musiqa asbobining sadosi hamda mashq yoki raqs paytidagi harakatlar bola idrokining obyektiga bo'ladi. Bu etapda bolani musiqa asari bilan tanishtirish, uni musiqa tinglashga, musiqada ifodalanayotgan his-tuyg'ularga hamdard bo'lishga erishishi asosiy maqsad qilib olinadi. Musiqani tinglay olishga o'rgatishning birinchi etapida bolalarda musiqa asariga qiziqish uyg'otish irradiansiyasi sodir bo'ladi. Bu paytda bolalarning umumlashtirish va farqlay olish qobiliyati ham ancha kuchsiz bo'ladi. Yangi musiqa materialini o'zlashtirishda eshitish, ko'rish va harakat qilish analizatorlari qatnashadi. Bu etapda bolaning bosh miya qobig'i unga ta'sir qilayotgan hodisalarni vaqtincha o'zaro bog'lay olishi mumkin, shuning uchun ham materialni parchalarga bo'lmasdan yaxlit holda bergan ma'qul. Ularni parchalarga ajratib o'rgatish vazifasi ikkinchi etapga qoldiriladi. Pedagog harakatlarni bevosita musiqa sadosi yoki kuy jo'rligida ko'rsatadi. Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog ba'zi kuni turli musiqa asboblari chaldirib, shu asboblarda ijro etilgan kuyni o'zaro taqqoslaydi, shu yo'l bilan uning xotirada yaxshi o'zlashib qolishini ta'minlaydi. Birinchi etap uncha katta bo'lmasligi – bir yoki ikki mashg'ulotdan ortmasligi kerak. Bunda musiqa tinglash, qo'shiqlarni ijro etish yoki musiqa-ritmik harakatlarni bajarishdan, obrazli va poetik nutqdan namunalar ko'rsatish, bolalar bilan savol-javob orqali suhbatlashish, pedagog tomonidan taqdim etilgan materialni bolalarga bajartirib ko'rish kabi usullardan foydalaniladi.

**2-etap** – qo‘shiq yoki musiqa-ritmik harakatlarni ijro eta oladigan bo‘lishni shakllantirish, idrok qilish etapi. Ikkinchi etapning vazifalariga quyidagilar kiradi: musiqani chuqur idrok etish uchun zarur bo‘lgan quvnoq mehnat sharoitini yaratish, o‘z-o‘zini nazorat qila olish, qo‘shiq aytganda ovoz me‘yorini va eshitishni uyg‘unlashtira bilish yoki, raqs va mashqlarda eshitish bilan harakatni o‘zaro uyg‘unlashtira olish qobiliyatini tarbiyalash, buning uchun uzluksiz mashgulotlar o‘tkazib turish; topshiriqlarni to‘g‘ri va aniq bajara oladigan bo‘lishlariga erishish. Bu etapda bolalar ijrosida uchraydigan barcha kamchiliklar aniqlanadi va tuzatib boriladi. O‘rgatishning ikkinchi etapida pedagog materialni qayta-qayta mustahkamlaydi, natijada bolalarning bosh miya qobig‘ida qo‘zg‘alish (uyg‘onish) konsentratsiyasi ancha kuchayadi, ular asta-sekyn topshiriqni to‘g‘ri bajara oladigan bo‘lib borishadi. Umuman, bunday bilimning shakllanishi etapi uzoq vaqt davom etadi. Masalan, bolalar ba‘zi qo‘shiqlarni 9-12 mashgulotdan so‘nggina mustaqil ravishda ta‘sirli qilib aytadigan bo‘lishadi.

Ikkinchi etapda qo‘llanadigan metodik usullarga quyidagilar kiritiladi: musiqani qayta tinglash, qo‘shiq ijrosida yoki musiqiy-ritmik harakatlardan namunalarni qayta ko‘rsatish, qo‘shiqning yoki o‘yin-raqs harakatlarining ba‘zi usullari va yo‘nalishlarini ko‘rsatish, bolalar bilan suhbatlashish, ularga salom berish, obrazli va poetik nutq, turli ko‘rsatmalar, izohlar, tanbehlar, topshiriqni bajarish usullarini qayta mashq qildirish va h.k. Xullas, bu etapda o‘rgatishning barcha usullaridan foydalanish mumkin bo‘ladi.

**3-etap** – ko‘nikmalar hosil qilish va mustahkamlash etapi. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan, qo‘shiq, uyin raqs va mashqlarni mustaqil ijro etadigan darajaga erishiladi.

Uchinchi etapda kuzatilgan maqsad topshirshushrni emotsional-ta‘sirchan qilib bajarishga o‘rgatishdan, bolalarda mustaqillikni, ijodiy aktivlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bu etapda bolalarda diferensiyalovchi (farqlovchi) tormozlanish yuzaga keladi, ikkinchi etapda olingan va pedagogik tomonidan qayta-qayta tushuntirilgan materialdan va mashqlardan uchinchi etapda mustahkam ko‘nikma hosil bo‘ladi, keraksiz, ortiqcha narsalardan tormozlanadi. Shunday qilib,

shartlm reflekslarning bir butgn sistemasi yuzaga keladi, kuylash va musiqa- ritmik harakatlarni ijro etish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishda izchillikka yerishiladi. Eshitish va ko'rash nazorati bilan mustahkamlanadi, to'ldiriladi. Bolaning u yoki bu topshiriqni bajarish usuli avtomatlashadi, ayni paytda, o'z oldiga qo'yilgan vazifani ongli ravishda idrok qiladi va hosil bo'lgan ko'nikmaga tayangan holda ijodiy aktivlikka ham intiladi.

Bolalar bilan ishlashning uchunchi etapida pedagog kuy va musiqa-ritmik harakatlar ijrosini takomillashtiradi, ularda musiqani idrok etish qobiliyatini tarbiyalashda, muayyan musiqa asarining badiiy xususiyatlarini tushuntirishda davom etadi. Bolalarga topshiriqlar og'zaki beriladi. Ba'zan vazifani ko'rsatish uchun bolalar chaqiriladi. Uchunchi etapda pedagog o'yin variantlaridan foydalanadi, topshiriqlarni bir oz o'zgartirib murakkablashtiradi, shunday qilib bolalarni ijodiy aktivlikka da'vat etadi, bunda o'rgatishning turli-tuman metodlaridan foydalanadi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa ta'limi berish turli metodik usullarning barchasidan foydalanishini taqozo qiladi.

Endi metod va metodik usullardan turli yoshdagi guruhlarda qanday foydalanish kerakligini ko'rib chiqaylik.

**Kichik yoshdagi guruh.** Bu guruhda so'zlab berish metodini qo'llashda pedagog ko'proq tushuntirish usulidan foydalanadi. Tushuntirish aniq bo'lishi kerak. Masalan, bolalar «Barmoqlar va qo'llar» o'rganmoqda (xalq musiqasi, kuyi A.Qodirov tomonidan qayga ishlangan). Bundan pedagog baland ovozli musiqaga ikki qo'lning kaftlarini bir-biriga urib chapak chalish kerakligini, past ovozli musiqaga esa barmoqlarni barmoqlarga asta-sekin urish lozimligini tushuntiradi. Qayta ijro etilgan pedagog stulchalarda o'tirgan bolalarga past ovozli musiqada barmoqlarni barmoqlarga urishni, baland ovozli musiqada esa chapak chalishni taklif qiladi, og'zi bilan tushuntirish va amaliy faoliyat o'zaro qo'shib bajariladi, bolalarning vazifani yaxshi o'zlashtirishi ham ta'minlanadi. Ko'rsatmalar bolalar o'yinga yoki raqsga tushayotganda berib boriladi. Masalan, bayroqchalar bilan mashq bajarilayotganda musiqa rahbari «Bolalar, bayroqchalarni Aziza Axmedovna tutganidek to'g'ri tuting», - deb ko'rsatma beradi. Kichik yoshdagi guruhda poetik

nutq ham keng qo'llaniladi. Masalan, «Mushuk» deb nomlangan qo'shiqni (V.Vyalshin musiqasi) ijro etishdan oldin «Kulrang mushukcha oyna yonida mag'rur o'tirardi, Dumini likkillatib, bolalarni kutardi» degan misralarni ifodali qilib o'qib berish mumkin.

Tinglash paytida ham, o'yin, raqs va mashqlar o'rganayotganda ham pedagog bolalar bilan suhbatlashib turadi, ularga «Musiqaning xarakteri qanaqa? Musiqani sur'ati tezmi yoki sekinmi? Bu musiqaning muqaddimasi bormi?» tarzda savollar berib boradi, bu savollarga ko'pincha o'zi javob qaytaradi, chunki bolalarning tajribasi, musiqa sohasidagi bilim yetarli bo'lmaganidan ular yuqoridagi savollarga mustaqil savol-javoblar jarayonida bolalarni musiqa terminalogiyasi bilan mumkin qadar tanishtirib borishi kerak, bu hol ularning kelajak terminalogiyasidan mustaqil ravishda foydalana oladigan bo'lishlari uchun zamin hozirlaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, bolalarga berilayotgan savollarning mazmuni ularga tushunarli bo'lishi kerak. Masalan, «Mushukcha» (V.Vyalshin musiqasi) qo'shig'i tinglangandan so'ng, pedagog bolalardan qo'shiqda nima haqida gapirilganini, mushukcha nima qilganini, u kimni kutganini so'raydi. Obrazli hikoyadan kichik yoshdagi bolalar guruhlarida ancha keng foydalaniladi. Bunday hikoya odatda syujetli o'yin ijrosidai va programmali musiqa tinglashdan oldin bo'ladi.

Bolalar bilan ishlashda ko'rgazmalilik usullariga, ayniqsa, eshitishga asoslangan ko'rgazmalilikka katta o'rin beriladi. Busiz ta'limning ko'rgazmalilik metodi deyarli qo'llanmaydi. Bolalar ijro etishi kerak bo'lgan har qanday musiqa asari avval pedagog ijrosida tinglanadi. Kichik yoshdagi bolalar guruhida ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilikka ham keng o'rin beriladi. Shu maqsadda mashg'ulotlarga rasm va o'yinchoqlar olib kiriladi. Bunday mashg'ulotlar odatda o'yin tarzida o'tkaziladi. Masalan, yangi yil bayramidan so'ng guruhga kichkina archa bilan o'yinchoqlar olib kiriladi. Musiqa rahbari: «Qor bobo bu archani bizga sovg'a qilib qoldirgan. U juda mehribon. Qani, qor bobo va archajon haqidagi qo'shiqni bir tinglaylik-chi! Bu qo'shiqni qor boboning o'zi keltirgan», deydi. Bundan tashqari, bolalarni kuylashga va musiqiy-ritmik harakatlarga o'rgatish paytida pedagogaing o'zi qo'shiq aytish usullari va harakat usullarini ko'rsatadi.

Bolalarning kuylash san'ati, musiqa-ritmik harakatlari bu davrda hali ancha nomukammal bo'ladi, ularda kattalar ijrosiga taqlid sezilib turadi.

**O'rta guruh.** Bu guruhda so'zlab berish metodi o'z ichiga quyidagi usullarni qamrab oladi:

1) **Tushuntirish.** Bu usul o'rta guruhda ancha kengaytirilgan tarzda oo'ladi. Masalan, «Purjinka» nomli asarni mashq qilish paytida musiqa rahbari bolalarga qarab «musiqaning birinchi qismida biz tizzalarni bukib o'tiramiz, purjinka bo'ladi unda musiqa sekin chalinadi, musiqakning ikkinchi - kuchli sadoli qismida biz turgan joyimizda ikki oyoqlab yengilgina sakray boshlaymiz» deydi;

2) **Izohlash.** Masalan, bolalar belgilangan vaqtdan oldin qo'shiq ayta boshlasa, pedagog hamma baravar qo'shiq ayta boshlashi uchun oldin muqaddimaning so'nggi akordini tinglab bo'lishi, shundan so'ng qo'shiq ayta boshlashi kerak deb izoh beradi;

5) **Ko'rsatma berish.** Bu usuldan bolalar harakatda bo'lgan paytda foydalaniladi, Masalan, bolalar marsh sadosiga yurayotganda pedagog: «Ilhom, yelkangni tugri tut», «Mahbuba, musiqaga e'tibor qil» deb ko'rsatma berish mumkin;

4) **Poetik nutq.** Bu usuldan odatda qo'shiq aytishdan oldin tez-tez foydalanib turiladi. Masalan, «Qish o'tib ketdi» qo'shig'ini (N.Metlov musiqasi) aytishdan oldin shu qo'shiq tekistidan quyidagi parchani ifodali qilib o'qib berish mumkin:

Qayin shoxdan chaqqon, Yerga sakradi chumchuq, Yo'qdir bo'lak izg'irin, Sayrayman «churuq-churuq».

5) **suhbat.** O'rta guruh bolalarining fikr doirasi ancha keng, so'z boyligi bir muncha ko'p bo'lib, ular musiqa bilimidan ham ma'lum tajribaga ega bo'ladilar. Shuning uchun musiqa asari tinglab bo'lingandan so'ng, ular bilan kengaytirilgan suhbat o'tkaziladi. Masalan,

A.Fillipenkoning «Qish keldi» qo'shigi tinglangandan so'ng quyidagi suhbat o'tkaziladi: Qo'shiqda nima haqida gapirilgan? Qo'shiqda muqaddima bormi? Qo'shiqning xarakteri qanaqa? Qo'shiq sur'ati tezmi yoki sekinmi? va h.k.

Suhbat odatda savollar yordamida o‘tkaziladi. Ba’zan savollar bolalarga qo‘shiq tinglashdan oldin, hatto topishmoq tarzida berilishi ham mumkin. Masalan, musiqa rahbari bolalarga: «Men qo‘shiqning muqaddima qismini chalaman, siz esa bu qo‘shiqning qanday nomlanishini eslang» deb toshniriq beradi.

Eshitishga asoslangan ko‘rgazmalilik (badiiy-musiqa asarini idrok etish) kichik yoshdagi bolalar guruhida qanday o‘rin tutsa, o‘rta guruhda ham shunday o‘rin tutadi, faqat asarning o‘zi, uning shakli, xarakteri, ifoda vositalari birmuncha murakkablashgan bo‘ladi, xolos. Ko‘rishga asoslangan ko‘rgazmalilik haqida ham shuni aytish mumkin. Ammo o‘rta guruhda qo‘shiq aytishdan yoki asar ijrosidan oldin o‘yinchoqlarni ko‘rsatish birmuncha kamaytirilib, bolalarning amaliy faoliyatiga ko‘proq e’tibor beriladi, ulardan suhbat paytidagi savollarga aniqroq javob berilishi, o‘yin va raqs harakatlarini aniqroq bajarilishi talab etiladi.

### **MUSIQIY- RITMIK FAOLIYAT**

Ijodkorlik – bu voqelikni bilishga, yangi, o‘ziga xos, ilgari bo‘lmagan obyektlarni yaratishga, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan ongli, maqsadli, faol inson faoliyati. Ijodkorlik har bir bolaga xosdir, lekin uning namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni o‘z vaqtida yaratish qanchalik muhim. Bolalar musiqiy ijodining keng doirasi bor. Bu bolaning tasavvurini faollashtiradi, mustaqil qo‘yilgan maqsadga erishishni rag‘batlantiradi, o‘z g‘oyalarini turli shakllarda amalga oshirilishini izlaydi va o‘rganishga yordam beradi. Ritm – musiqiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda musiqaning mazmuni, uning xarakteri, tasvirlari harakatlarda uzatiladi. Buning asosini musiqa tashkil etadi va turli xil jismoniy mashqlar, raqslar, syujet shaklidagi harakatlar chuqurroq idrok etish va tushunish vositasi sifatida ishlatiladi. Musiqiy ritmik mashqlarni shartli ravishda tayyorgarlik va mustaqil bo‘linishi mumkin. Birinchisi, ma’lum turdagi harakatlar oldindan o‘rganilgan mashqlarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, bolalar ritmik, tabiiy ravishda “bahor”ni bajarishni, oyoqdan oyoqqa sakrashni, to‘g‘ri yugurishni, ikki oyog‘iga sakrashni va hokazolarni o‘rganadilar. Kelajakda bu harakatlar o‘yinlarga, raqslarga va dumaloq raqslarga kiradi va ular o‘z vazifasini

bajaradilar. Musiqiy tasvirlar, personajlarni ifodali uzatish vositasi. Musiqiy va ritmik harakatlar bo'limida asosiy o'rinni o'yinlar egallaydi. Musiqiy o'yin – bu musiqiy va ritmik vazifalarni bajarishga qaratilgan faol faoliyat. Bu bolalarda quvnoq, quvnoq kayfiyatni uyg'otadi, harakatlarning rivojlanish faolligiga ta'sir qiladi, musiqiy qobiliyatlarni shakllantiradi. O'yin paytida bola harakatda mashq qiladi, uni o'zlashtiradi, o'yin jarayonida bolaning shaxsiyatining ijobiy fazilatlari rivojlanadi, o'yin orqali u hayotni o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida harakatning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Uning uchun atrofdagi dunyoni egallashda tana sezgilari eng muhim hisoblanadi. Tana tajribasi boladagi barcha ruhiy jarayonlarning to'liq rivojlanishiga yordam beradi: idrok, e'tibor, xotira, tasavvur, fikrlash. Musiqaga ritmik harakat bolalarda yorqin hissiy impulslarni, turli xil motor reaksiyalarini keltirib chiqaradi, harakat quvonchini va zavqini oshiradi. Bolalar musiqiy ritmga juda sezgir va unga quvonch bilan javob berishadi. Ritm – bolaning kelajakdagi jismoniy shakli, uning hayotining kelajakdagi uslubi va ritmi uchun boshlanish, asos, turtki. Bu juda muhim – bolangiz hayotda qanday harakat qiladi va ular qanchalik sog'lom bo'ladi. Buni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Bolaning sog'lom bo'lishiga, uning xohish va qobiliyatini aniqlashga yordam berish kerak. Hech kimga sir emaski, bolalar musiqaga o'tishni yaxshi ko'radilar, lekin o'z-o'zidan paydo bo'ladigan raqs inson intellektual faoliyatining mahsuli emas, balki bilinki darajasida paydo bo'ladigan harakatdir. Muayyan musiqaga ma'lum ketma -ketlikda harakatlar majmuasini aniq bajarish ancha qiyin. Nafaqat harakatni bajarish, balki ularni bir vaqtning o'zida ijro etish zarur bo'lganda, guruhda raqsga tushish yanada qiyinlashadi. Raqsni o'rganayotganda, bolaning ko'plab ko'nikmalari o'rgatiladi: individual harakatlar va harakatlarni kompleksda yodlash, harakatlarni muvofiqlashtirish, musiqa tinglash va uning ostida harakatlarni takrorlash qobiliyati (ya'ni ritm hissi, ijodiy ifoda etish qobiliyati). Bu ko'nikmalarning barchasi bolaning aqliy qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, ya'ni aqlni rivojlantirishga yordam beradi, hatto bola professional raqqosa bo'lmasa ham, u har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Hech kimga sir

emaski, bolalar musiqaga o'tishni yaxshi ko'radilar, lekin o'z-o'zidan paydo bo'ladigan raqs inson intellektual faoliyatining mahsuli emas, balki bilingki, darajasida paydo bo'ladigan harakatdir. Muayyan musiqaga ma'lum ketma -ketlikda harakatlar majmuasini aniq bajarish ancha qiyin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ichki musiqiy tarbiyalashning vazifalaridan biri – har bir bolaning imkoniyatlariga asoslangan musiqiy faoliyatning har xil turlari yordamida musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiy qobiliyatga musiqiy-ritmik tuyg'u ham kiradi. Ritm hissi bolalarga musiqaga chuqurroq javob berishga, uning xarakterini o'zgartirishga, musiqada uzatiladigan musiqiy tasvirni “jonli” o'tkazishga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy va ritmik tarbiyalashda tizimli mashqlar katta rol o'ynaydi. Mimik-bajaruvchi mashqlar ma'lum bir ta'limiy va kognitiv vazifani hal qilishga qaratilgan. O'qituvchi muammoni hal qilish yo'lini ko'rsatadi (harakatlar va ularning ketma -ketligi, natijani baholash mezonlarini belgilaydi; bola mashqni o'qituvchi ko'rsatgan naqshga muvofiq bajaradi. Ritmik o'yin mashqlarining ahamiyati shundaki, ularning o'ynoqi xarakteri maktabgacha yoshdagi bolalarni o'ziga jalb qiladi, ularda ijobiy his -tuyg'ularni uyg'otadi va mashq paytida paydo bo'ladigan keskinlikni yengillashtirishga imkon beradi. Harakatlarning o'yin tabiati bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni qiziqish va osonlik bilan qabul qilishiga, ilgari o'rganilganlarni mustahkamlashga yordam beradi. O'yin mashqlari tufayli musiqiy faoliyatda quvonchli muhit yaratiladi va hissiy ko'tarilish qayd etiladi. Ritm tuyg'usining rivojlanishi temp, metr, ritmik naqsh, shakl tuyg'usini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalarda ritm tuyg'usini rivojlantirar ekanmiz, biz musiqiy harakatga e'tibor qaratamiz. Biz musiqiy harakatni musiqaga emotsional javob berishni, ritmni, harakatlarning ifodaliligini, e'tiborini, xotirasini rivojlantirish vositasi deb bilamiz.

Ritm – musiqiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda musiqaning mazmuni, uning xarakteri, tasvirlari harakatlarda uzatiladi. Shu sababli musiqa va ritmdagi harakat o'rtasidagi bog'liqlik masalasi aniq hal qilindi: musiqaga yetakchi rol, harakat ikkinchi darajali. Musiqiy ta'limning jahon amaliyotida “ritm” atamasi

haligacha ishlatiladi, shuning uchun uni maktabgacha ta'limda ham tan olish mumkin va maqsadga muvofiqdir. Ritmning maqsadi: Musiqani, uning obrazlarini idrok etishni chuqurlashtirish va farqlash va shu asosda ifodali harakat malakalarini shakllantirish. Musiqa va harakat bolalarni tarbiyalashga yordam beradi, dunyoni bilish imkoniyatini beradi. Musiqa va harakat orqali bolada nafaqat badiiy did va ijodiy tasavvur, balki hayotga, odamga, tabiatga muhabbat, bolaning ichki ruhiy olami shakllanadi. Musiqiy-ritmik va raqs harakatlari ruhiy va somatik yyengillik vazifasini bajaradi, insonning hayotiy energiyasini va uning shaxs sifatida o'zini anglashini tiklaydi.

***Ritm vazifalari:***

- Bolalarni musiqiy tasvirlarning rivojlanishini idrok etishga va ularni harakatlar bilan ifodalashga, harakatlarni musiqaning tabiati bilan muvofiqlashtirishga, musiqiy madaniyatning asoslarini rivojlantirishga, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga (musiqaga hissiy munosabat, eshitish, ritm hissi) o'rgating.

Musiqiy janrlarni aniqlashni o'rganing (yurish, qo'shiq, raqs)

***Ritm turlari:***

- o'yin
- raqs
- mashq

Ritm, raqsda bolalarning ijodiy namoyon bo'lishi musiqiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir. Agar bola musiqani, uning xarakterini, ifodali vositalarini yaxshi idrok etgan bo'lsa va vosita ko'nikmalariga ega bo'lsa, bola improvizatsiya qila boshlaydi, o'zining musiqiy va o'ynoqi obrazini yaratadi, raqsga tushadi.

Raqs ijodini rivojlantirish uchun bola:

Musiqaga hissiy javob berishi,

Xayoliy narsalar bilan harakatlarni bajarishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy ritmik va raqs harakatlari yordamida musiqa harakatida o'zini namoyon qilish zarurati.

Musiqiy-ritmik va raqs faoliyati bo'yicha ish tizimini ishlab chiqish. Bu sohadagi rivojlanish muhitini yangilang. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha tadbirlarni joriy etish, iqtidorli bolalar bilan raqsga tushish qobiliyati. Bolalarga raqs improvizatsiyasi va raqs harakatlarini o'rgatish uchun qo'shimcha musiqiy repertuarni to'ldiring va tanlang. O'qituvchilar va ota-onalarga bolalarni bu yo'nalishdagi ishlarida yordam berishga yo'naltiring. Bu vazifalarning bajarilishi bolalarning rivojlanishiga yordam beradi:

Musiqiy faoliyat turlaridan biri bolalar ijodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi – bu musiqiy ritmik harakatlar. Maktabgacha ta'limning federal davlat ta'lim standarti joriy etilishi munosabati bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning samarali usullariga ehtiyoj ortdi. Musiqiy-ritmik ta'lim, shu ma'noda, asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib chiqadi. Hech kimga sir emaski, bolalar musiqaga o'tishni yaxshi ko'radilar, lekin spontan raqs inson intellektual faoliyatining mahsuli emas, balki bilish darajasida paydo bo'ladigan harakatdir. Muayyan musiqaga ma'lum ketma-ketlikda harakatlar majmuasini aniq bajarish ancha qiyin. Nafaqat harakatlarni bajarish, balki ularni sinxron ijro etish zarur bo'lganda, guruhda raqsga tushish yanada qiyinlashadi. Raqsni o'rganayotganda, bolaning ko'plab ko'nikmalari o'rgatiladi: individual harakatlar va harakatlarni kompleksda eslab qolish, harakatlarni muvofiqlashtirish, musiqa tinglash va uning ostida harakatlarni takrorlash qobiliyati (ya'ni, ritm hissi, ijodiy ifoda etish qobiliyati).

***Musiqiy- ritmik harakatlar:***

- chiroyli pozani shakllantirish, ifodali, plastik harakatlarni o'rgatish;
- musiqiy tasvirlar haqidagi tasavvurni, ularni harakatda ifodalash, musiqaning tabiati bilan muvofiqlashtirishni musiqiy ifoda vositasida rivojlantirish;
- har qanday qadam yordamida raqs harakatlarini takomillashtirish;
- raqslarni har xil narsalar bilan ifodali va sifatli to'ldiradi, o'z ta'birini beradi;
- texnika, mimika va imo-ishoralarni kuchli o'zlashtirishga, o'z his -tuyg'ularini durust va pozitsiyada ifodalashga o'rgatish;
- har bir bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning musiqiy va ritmik rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Musiqiy va ritmik harakatlar bolalarning kunlik mashg'ulotlarining asosiy qismini o'yinlar egallaydi. Musiqiy o'yin – bu musiqiy va ritmik vazifalarni bajarishga qaratilgan faol faoliyat. Bu bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi, harakatlarning rivojlanish faolligiga ta'sir qiladi, musiqiy qobiliyatlarni shakllantiradi. O'yin paytida bola harakatda mashq qiladi, uni o'zlashtiradi, o'yin jarayonida bolaning shaxsiyatining ijobiy fazilatlari rivojlanadi, o'yin orqali u hayotni o'rganadi. Musiqiy va ritmik harakatlar odamning ijobiy fe'l-atvori, hissiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish uchun juda muhimdir. Ritmik harakatlar bolalarga musiqada ifodalangan narsalarni o'tkazishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, spektakl sifatiga ta'sir qiladi. Musiqadan xursand bo'lib, uning harakatlarining go'zalligini his qilib, bola hissiy jihatdan boyiydi, ko'tariladi va quvnoq bo'ladi. Shunday qilib, musiqiy-ritmik harakatlar tarbiyaviy jarayon bo'lib, bola shaxsiyatining ko'p jihatlari: musiqiy-estetik, hissiy, irodali va kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy va ritmik ko'nikmalarni shakllantirish muammosi hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy qobiliyatlarning rivojlanishi, musiqiy madaniyat asoslarining shakllanishi maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak. Bolalikda to'liq musiqiy taassurotlarning yo'qligi, keyinchalik o'rnini to'ldirish qiyin. Bolaligida bolaning yonida unga musiqaning go'zalligini ochib beradigan, uni his qilish imkoniyatini beradigan kattalar bo'lishi juda muhim. Musiqiy rivojlanish umumiy rivojlanishga o'zgarmas ta'sir ko'rsatadi: hissiy sohasi shakllanadi, tafakkuri yaxshilanadi, bola san'at va hayotdagi go'zallikka sezgir bo'ladi. Inson tanasining barcha asosiy funksiyalari ma'lum bir ritm bilan tavsiflanadi; ritm yurak urishi, nafas olish, yurish, gapirish va boshqalarga xosdir. Shuning uchun ritm mushaklarning ishiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, musiqaning ritmik tovushlari tashqi stimullaridan chalg'itib, muayyan mehnat operatsiyalarini bajarishga e'tiborni qaratishga yordam beradi. Ritm ba'zi avtomatizmni rag'batlantiradi, bu ham ishni osonlashtiradi. Va nihoyat, musiqa bir vaqtning o'zida bir guruh odamlarning harakatlarida bir xil ritmning paydo

bo'lishiga yordam beradi. Musiqa o'zining ritmik tuzilishi bilan bizni qamrab olish qobiliyatiga ega. Yondiruvchi raqs ohangini tinglar ekanmiz, har birimiz o'z vaqtida, uning barmoqlari beixtiyor ritmni ura boshlaganini, bosh va tana ohang ritmiga ohista tebranayotganini va oyoqlar bir joyda turmasligini bilib olamiz, darhol raqsga tushishga tayyorlanamiz. Harakat tananing sog'lom rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu metabolik jarayonni yaxshilaydi, yaxshi ovqatlanishga, qon ta'minlanishiga, to'qimalarning yangilanishiga hissa qo'shadi, mushaklarga kuch beradi va bo'g'imlarga moslashuvchanlikni beradi. Ritmik harakatlar, raqslar baquvvatlik va ajoyib shaklni saqlashga yordam beradi.

Musiqiy ta'limning samarali usuli sifatida ritm asoschisi – shveysariyalik musiqachi-o'qituvchi, Jeneva konservatoriyasining musiqa nazariyasi, solfejio va uyg'unlik professori, pianinochi, bastakor va jamoat arbobi Emil Jak-Dalkroz (1856-1950). Dalkroz musiqiy pedagogikaning yangi usullarini izlardi.

Jeneva konservatoriyasida talabalar bilan birga o'qiyotganda, u hamma ham ma'lum bir metr ichida ritmik naqshni bajara olmasligiga va musiqa asbobini chalishda harakatlarni yetarlicha aniq muvofiqlashtira olmasligiga e'tibor qaratdi. U o'zining samarali amaliy faoliyati bilan musiqa ritmini odamning motor, mushaklarning reaktivligi bilan chambarchas bog'liqligini anglab, musiqiy ritmni inson tanasining plastik harakatlariga o'tkazish mumkinligini isbotladi. Shunday qilib, asta-sekin u badiiy gimnastika tizimini yaratdi, u keyinchalik ritm deb nomlandi. Ritmik vazifalarning murakkabligi oshgani sayin, ritmik darslarning tarbiyaviy roli ham oshkor bo'ldi: ular o'quvchilarning diqqatini, kontsentratsiyasini, irodasini, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish istagini rivojlantirdi va butun jamoa harakatlarining izchilligini rivojlantirdi. Ritmik darslar ham o'quvchilarning umumiy ohangiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, charchoqni kamaytirdi. Dalkroz o'z tizimining maqsadini quyidagicha ta'riflagan: “Ritmning maqsadi – izdoshlarini o'qish oxirigacha, men bilaman, deb emas, balki, men his qilyapman, deb ayta oladigan darajaga etkazishdir. “Ularda hissiy qobiliyatlari va

ijodiy tasavvurlari rivojlanganidan keyin nima qilish kerakligini ko'rsatish uchun o'zgarish istakni yarating"<sup>4</sup>.

Musiqiy va ritmik ko'nikmalarni shakllantirish amalga oshiriladigan bolalar musiqiy faoliyatining asosiy shakli – bu darslar. Ta'til, o'yin-kulgi va hordiq paytida olingan ko'nikmalar sinfda mustahkamlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy va ritmik ko'nikmalarni shakllantirishda musiqiy faoliyatning imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi, chunki hayotning beshinchi yilida bolalar allaqachon musiqa tinglash tajribasiga ega, ular tanish ohanglarni taniy oladilar, musiqa mohiyatini aniqlay oladilar. Musiqiy ifoda vositalari (dinamikasi – baland, sokin; registrlar – baland, past; temp – tez, mo'tadil). Ular ifodali va ritmik harakat mahoratini namoyon etadi. Eshitish qobiliyati rivojlanadi, bolalarning individual qobiliyatlari yanada aniq namoyon bo'ladi. Ular o'z harakatlari bilan musiqa xilma-xilligini, dinamikasini, tempini, oddiy ritmik naqshlarini, kirish qismiga, musiqa qismlarining o'zgarishiga qarab harakatlarning o'zgarishini yetkazishlari mumkin. Bolalar har xil harakatlarni o'zlashtira oladilar.

Ritm darslariga bir-biri bilan juda yaqin aloqada bo'lgan, ajratish shartli bo'lgan musiqiy-ritmik mahorat va ekspressiv harakat qobiliyatlari bo'yicha ishlar kiradi. Musiqiy-ritmik ko'nikmalar musiqiy vazifalar bilan mashqlar asosini tashkil qiladi. Ular bolalarni musiqiy asarlarning ritmik tuzilish qonuniyatlarini tushunishga undaydi, ularga musiqa tabiatining xilma-xilligini tushunishga, o'zgarish tempini, dinamikasini o'zgartirishga va qayd etishga, harakat orqali metro-ritmik xususiyatlarni takrorlashga va asarlar shaklini tahlil qilishga o'rgatadi. Ayniqsa, ritm va musiqa nazariyasi bilan solfejio, xor kuylash va cholg'u asboblarini chalish o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Ekspressiv harakat ko'nikmalari mashg'ulotlar jarayonida ritmik, erkin, ifodali, muvofiqlashtirilgan, plastmassaga aylanadigan harakatlar madaniyatini o'rgatish va takomillashtirishga qaratilgan. Ular jismoniy tarbiya (asosiy harakatlar, obyektli va bo'lmagan gimnastika mashqlari, qurilish va qayta qurish), raqs (xalq va bal raqslari elementlari, xarakterli raqs harakatlari, zamonaviy raqslarning individual elementlari), syujet maydonidan

---

<sup>4</sup> <https://arsochi.ru/uz/kaleidoscope/muzykalno-ritmicheskie-dvizheniya-kak-sredstvo-vsestoronnego.html>

olingan tasviriy dramatisatsiya. Ifodali harakat malakalari ustida ishlashda harakat va musiqa munosabatlariga eng jiddiy e'tibor qaratiladi.

Musiqiy va ritmik ijodkorlik jarayoni bolalarning o'z musiqiy harakatlari, mashqlari, etyudlari, raqs sahnalari, spektakllar, o'yinlarning kompozitsiyasi va ijroini o'z ichiga oladi. Musiqiy ritmik ijodkorlikning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ikkita tamoyilning sintezini o'z ichiga oladi – ijrochi va mahsuldor: bolalar o'z raqslari, eskizlari, o'yinlarini o'ylab topadilar va ularni bir vaqtning o'zida ijro etadilar, mahsulot jarayonga, ijroga va mahsulotga to'g'ri keladi. Ijodkorlik, bu sub'ektga ham, faoliyat jarayoniga ham qiziqishni shakllantirish samaradorligini belgilaydi. Musiqiy-ritmik harakat bolalarga iboraning uzunligini yoki iboraning assimetriyasini, pulsatsiyadagi u yoki bu ishning xarakterini, musiqaning rivojlanishi, tarqalishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga, shuningdek, o'z fikrini ifoda etishga yordam beradi. Hatto boshlang'ich harakatlar: tepish, urish, qarsak chalish, musiqa bilan to'g'ri muvofiqlashtirilgan, bola rivojlanishining eng muhim asosidir. Ularni bajargandan so'ng, bola ma'lum bir ritm, temp, ohangga, shu jumladan miyaning ikkala yarim shariga ham javob beradi. Shuni esda tutish kerakki, har qanday yoshdagi bolalar bilan ishlashning umumiy qoidalari mavjud. Dars shunday tuzilishi kerakki, faol harakatlar yurish yoki nafasni tinchlantiradigan mashqlar bilan almashsin. Bolalarni yugurish yoki sakrash bilan ortiqcha yuklamang, chunki bu haddan tashqari psixo-emotsional va yurak-qon tomir yuklanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, siz bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishingiz kerak. Faqat ushbu qoidalarga qat'iy rioya qilish ritmik mashg'ulotni samarali qiladi. O'qituvchining musiqiy va ritmik ta'limdagi vazifasi o'quvchilarning musiqiy va estetik ongini shakllantirishga yordam beradi va ularni musiqani his etishga, harakatda estetik his qilishga o'rgatadi; musiqiy didni tarbiyalash; shaxsning musiqiy va madaniy dunyoqarashini shakllantirishga hissa qo'shadi. U o'quvchilarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini yaxshilashga, harakatlarning egiluvchanligini, ularning ritmini, musiqa bilan uzviy bog'liqligini rivojlantirishga, bolalar raqs kompozitsiyalari, variantlarini yaratishda badiiy va ijodiy qobiliyatlarni, tashabbuskorlikni, qarorlarning mustaqilligini tarbiyalash va

rivojlantirishga majburdir. Musiqiy o‘yinlar va mashqlar, qo‘shiqlarni sahnalashtirish uchun.

## **KICHIK VA O‘RTA GURUHLARDA MUSIQA MASHG‘ULOTLARIDAN NAMUNALAR TASHKIL ETISH**

Musiqqa mashg‘ulotlarning faoliyat turlari tavsifi. Musiqqa tinglash, xonandalik hamda cholg‘u asboblarda ijrochilik mahoratini shakllantirish va tarbiyalanuvchilarni ushbu faoliyat turlariga qiziqtirish ko‘nikmasini shakllantirish borasida tinglovchiga qo‘yiladigan talablar. Kichik guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo‘lgan talablar. O‘rta guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo‘lgan talablar. Katta guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo‘lgan talablar. Tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yillik (kunlik, oylik) mashg‘ulot rejasini ishlab chiqishda qo‘yiladigan talablar. Maktabgacha ta‘lim muassasasida olib boriladigan musiqqa mashg‘ulotlarining namunaviy rejasini.

**- Musiqqa tinglash:** Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko‘nikmasini pado qilish. Marsh, qo‘shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash.

**- Musiqani mazmunan tushunishga o‘rgatish:** Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: To‘p bo‘lib yyengil yurish va yugurishdan sekinasta har tarafga, to‘g‘riga, erkin-sochma, doira bo‘ylab yengil yurish va yugurishga o‘rgatish. Bolalarni 3-4 sodd va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to‘p bo‘lib raqs tushishdan juftlikda, sochma tarzda, shundan so‘ng doiradagi raqsar ijro etishga o‘rgatish. Raqs harakatlardan «Koptokni yuqoriga ot», «arqonni tort», «tokcha», «ko‘zguga qara», «xo‘rozcha», «maysani sila» bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

**- Kuylash:** Cholg‘u asbobi va kattalarga jo‘r bo‘lib kuylash. Tabiiy ovozda zo‘riqmasdan kuylash malakalarini shakllantirish. Kuylash vaqtida to‘g‘ri nafas olishga, avval «gulni hidlab», so‘ng kuylay boshlashga, o‘tirgan yoki turgan holatda to‘g‘ri kuylashga o‘rgatish. Qo‘shiq mazmunini tushunib kuylash bilan bir vaqtda harakatlarni bajarishga o‘rgatish.

**-Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:** Bolalar cholg'ulari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, karnay, surnay, nog'ora bilan tanishtirish. Metallofon, uchburchak, bolg'achada chalish usullarini o'rgatish. Ularni tovushidan farqlay olish. Qo'shiq, raqs va o'yinlarda cholg'ularni jo'r qilish.

**-O'yin:** Musiqiy faoliyatlarda olingan bilimlarni o'yinlarda namoyon bo'lishiga erishish. Doira jo'rligida «Chumchuqlar va mushuk», «Ayiqchalar raqsi», xalq o'yinlaridan «Chorichambar», «Chapak chalish», «Qaldirg'och» kabilarni o'ynash. Bolalarga tushunarli, qiziqarli bo'lgan voqeaband o'yinlarni tashkil qilish. O'yinda musiqaga mos harakatlanish, nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish, bolalar cholg'ulari, o'yinchoq va qo'g'irchoqlardan foydalanish. Bolalarning mashg'ulotlardan olgan bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida «Kuyini top», «Do'stingni ovozidan tanib ol», «Xaltachada nima bor», «Qaysi cholg'u yashiringan», «Qush va qushchalar», «O'rmonda» kabi musiqaviy-didaktik o'yinlarni mashg'ulot vaqtida va mustaqil faoliyatlari davomida guruh xonalaridagi musiqa burchaklarida tashkil etish.

- Turli xil mazmun va kayfiyatdagi musiqani tinglash, eslab qolish;
- Tinglangan kuylarni tanib olish va ularning bastakori nomini bilish.
- Kuy, qo'shiq va raqs haqida tushunchaga ega bo'lish.
- Karnay, surnay, nay, nog'ora, doira kabi xalq cholg'u asboblarni tanish va ovozidan farqlash.

- Qo'ng'iroqcha, shiqildoqlar, doiracha, buben, metallofon, surnaycha, bolg'acha, uchburchak kabi bolalar cholg'ularida chalish usullarini bilish;

- Birgalikda kuylay olish;

- Qo'shiq kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajara olish;

- Harakatli o'yinlarda faol ishtirok etish;

- Turli predmetlar bilan harakatlar bajarishni uddalash.

### **O'rta guruhda musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish**

**O'rta guruh (4 yosh) bolalariga qo'shiq o'rgatish texnologiyasi.** O'rta guruh bolalarining atrofdagi hodisalarga qiziqishi ancha ortadi, ular musiqa rahbariga turli savollar bera boshlaydilar. Bu yoshda nutq rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar yuz

beradi: bolalarning soʻz boyligi ortadi, ular tevarak-atrof haqida fikr yurita oladigan boʻladilar. Musiqa rahbari ushbu jihatlarni hisobga olgan holda oʻz rejasini tuzib olishi lozim.

4-yoshli bolalar tanish qoʻshiq va kuylarni bilib oladilar, ularni nomlarini aytadilar. Bolalar tovush balanligi va tembrlarini farqlay oladilar, musiqa rahbarining ovoziga yaxshi moslashadilar, choʻzib kuy oladilar. Musiqa mashgʻuloti bu guruh bolalari uchun 20-25 daqiqani tashkil etadi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishning yana bir oʻziga xos shakli sifatida mashgʻulotlarda musiqiy faoliyaning barcha shakllarini musiqa rahbari tomonidan ishlatish talab etiladi. Tarbiyalanuvchida musiqa mashgʻulotiga nisbatan qiziqish ortsin. Shuningdek, musiqa rahbari tomonidan amalga oshirilgan ishlar musiqa mashgʻuloti jarayonida rivojlanib borsin.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda maktabgacha taʼlim muassasalarida olib boriladigan musiqa taʼlim-tarbiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Birinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqaga boʻlgan qiziqishlarini oshirish borasida oʻquv dasturda repertuar tanlashda ularning yoshiga xos jihatlarni eʼtiboga olish;

Ikkinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida ularda musiqiy ohangga boʻlgan his-tuygʻularni hosil qilish yoʻli bilan Ona-Vatan, xalq, millatga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalash, shu orqali ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;

Uchinchiidan, bolalarni musiqa tinglash, qoʻshiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholgʻu asboblari joʻr boʻlish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;

Toʻrtinchiidan, bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qoʻshiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga oʻrgatish hamda unga odatlantirish;

Beshinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlardan zavq olishlari, shu asosda ularning musiqiy did va badiiy fikr yuritishlarini rivojlantirish;

Oltinchidan, musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs ifoda etishga o'rgatish;

Yettinchidan, musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlar jo'rligida milliy ohang-kuy va musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;

Sakkizinchidan, musiqa mashg'ulotlari mazmunini maktabgacha ta'lim muassasasi, Vatan, shahar, mahalla, tabiat, jamiyat hayoti bilan bog'lash, ta'lim muassasalarida<sup>5</sup> o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalari musiqa mashg'ulotlarida bola hayotini, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etish uchun repertuar tanlash lozim bo'ladi. Olib boriladigan musiqiy tarbiya ishlarini badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshirish, musiqiy tarbiyaning ilg'or tajriba va turli metodlaridan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotini bolalarga badiiy-estetik zavq

uyg'otishini, ularning his-tuyg'ularini shakllantirishda, ijodiy fikrlash qobiyati va nutqini o'stirishda xizmat qilishni ta'minlash lozim. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslardan ham foydalanish bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlikni shakllantirib, qomatning



<sup>5</sup> Altibayeva G.M. Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi maruza matni. – Termiz. 2018.

to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu jarayon bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ishlar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'limni va tarbiyani ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarini bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning musiqa tinglashga bo'lgan ishtiyoqlarini qo'llab quvatlash va rivojlantirish. Tinglangan asarining mazmuni va xarakterini ajrata olish, bu haqida suhbat qurish va o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishga o'rgatish. Kuy tovush va ohanglardan tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lish. Bolalarni musiqiy asarning 2 va 3 qisimli shakli bilan tanishtirish, qismlar o'zgarishini farqlashga o'rgatish, fortepiano, g'ijjak, chang, qonun kabi cholg'ular bilan tanishtirish, ular ijrosidagi kuylardan bahramand qilish. Musiqa asarlarining qismlar o'zgarishiga mos harakatlarni o'zgartirish, marsh, qo'shiq, raqs kuylariga mos harakatlarni mustaqil bajarish, boshlovchining ketidan musiqaga mos yurish, yugurish va sakrash. Raqs harakatlarini mustaqil ravishda aniq bajarish, qo'l harakatlarini erkin va mayin bajarishga o'rgatish. Guruh bo'lib, kichik guruhlariga bo'linib, yakka holda harakatlanishga o'rgatish, xonaning bir qismidan ikkinchi qismiga (markazdan burchakka, o'ngdan chapga va h.k.) o'tishda o'z harakatlarini boshqara olish, raqs harakatlarining nomlarini bilish va aniq bajarish. 4-5 harakatni ketma-ket, o'zaro bir-biriga bog'lab hamda musiqaga moslab ijro eta olish. Raqslarda kayfiyatlarni bildiruvchi harakatlardan «yo'q», «arazlash», «yarashish» va h.k. ifoda etish, yuz, ko'z imo-ishorasining berilgan kayfiyatga mos bo'lishiga o'rgatish uchun, avvalo, oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni shu jarayonga tayyorlash, ularda bilim va malakani shakllantirish lozim. Buning uchun pedagog va talaba o'rtasida huddi MTM da bo'ladigan jarayonlardan andoza olib mashg'ulotlarni ayni shu jarayonga moslashtirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

### **5 yoshli bola bilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar:**

- bolalar cholg'ularida ijro etish usullarini bilish;
- bolalar cholg'ularini ovoz tembridan farqlay olish;
- bolalar cholg'ulari orkestrida ijro etish;

- o'z harakatlarini musiqa tempiga moslay olish.
- xor bo'lib, anamal va yakka kuylay olish;
- fortepiano, g'ijjak, chang, qonun cholg'u asboblari ko'rinishi va ovozidan farqlash, nomlarini bilish.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa, buyum o'yin faoliyati hisoblanadi. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ish-larini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni juhatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, piyoladan choy ichiladi, karavotda yotiladi, qo'girchoqni «onasi» erkalaydi va hokazo. Shuning asosida syujetli-rolli o'yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi. Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'grisidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, bolalar boghasining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

– o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir. Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o‘yinning mazmuni, tashkil yetilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o‘yining rivojlanish darajasiga ta’sir etish mumkinligini ko‘rsatdi. Bolalar o‘yini o‘zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o‘yinlar.

2. Qoidali o‘yinlar. Ijodiy o‘yinlarni bolalar o‘zlari o‘ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zlari o‘yin jarayonida belgilashadi. Ijodiy o‘yinlarga dramalashgan o‘yinlar, qurilish o‘yinlari, tabiiy materiallar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar kiradi. Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o‘yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, musiqaviy o‘yinlar, ermak o‘yinlar. Bolalarga ta’lim-tarbiya berish maqadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilish «Bolajon dasturi»da belgilangan vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi. O‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o‘yinni bogcha yoshi davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. O‘yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o‘zaro ta’sir yetgan holda shakllanadi. O‘ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurini, kattalarga va o‘rtoqlariga bo‘lgan munosabatini bilib olish mumkin.

O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, bogchaning ta’lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifokor E. A. Arkin o‘yinni ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan. O‘yin ta’lim va mashgulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bogliq bo‘lib juda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o‘yinlarda

muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, xayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi. O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uygonadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga taqlid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi. A. V. Zaporozjets o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari sistemasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi butun rivojlanishi uchun xayol yoki obrazli tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qimmatga egadir, deydi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi<sup>6</sup>. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashgulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, o'qib berish va hokazolardir. Bola o'ynayotib, o'z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bilishga o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l ochiladi. O'yinda

---

<sup>6</sup> Altibayeva G.M. Maktabgacna ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi maruza matni. Termiz 2018.

aqliy rivojlanish bilan bogliq holda axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O‘yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o‘yin bolada yaxshi hislarni, ulug‘vor orzular va intilishlarni, sog‘lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O‘yinda bola o‘z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o‘z maqsadiga qat’iy turib etishishga o‘rganadi. O‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, bu jarayonda bolalar o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o‘yin do‘stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o‘yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o‘yinga jalb qilish, bolalar o‘rtasida do‘stlikka, haqqoniylikka, o‘rtoqlarini javobgarlikni sezishga asoslagan munosabatlar o‘rnatishdan iboratdir. O‘yinni bolalar o‘z ixtiyorlari bilan o‘ynaydilar, ammo boshqa hech bir faoliyatda o‘yindagi singari bolalarning hulqi bilan bogliq bo‘lgan qat’iy qoida yo‘q. Bunday qat’iy qoida ijodiy o‘yinga ham, qoidali o‘yinga ham, qoidani bolalar o‘zlari o‘rnatadigai o‘yinga ham tegishlidir.

### **MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA BAYRAM TADBIRLARINI O‘TKAZISH HAMDA SSENARIYLARINI TUZISH**

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq sayillarini tashkil etish va o‘tkazishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar maktabgacha yoshdagi bolalarni rus xalq madaniyatining kelib chiqishi bilan tanishtirish, uning an’analarini saqlab qolish uchun barcha vositalardan foydalanishga intilishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq an’analari ruhida tarbiyalashgina ularda milliy o‘zlikni anglash, o‘z xalqiga hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishi mumkin, bundan tashqari, ular boshqa xalqlar madaniyatining ahamiyatini o‘rganish va tushunishga, ularga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishga ochiq bo‘ladi. Shuning uchun, meningcha, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xalq bayramlarini tashkil etish bolaning har tomonlama va barkamol rivojlanishiga qaratilgan.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar bizni xalq an'analari, bayramlariga yangicha qarashga undaydi, ya'ni: milliy madaniyatimizni asrab-avaylash, xalq xarakterini o'zimizda jamlash, kamol topadigan munosib shaxsni tarbiyalash muhim. Xalq an'alarini asrash.

Bolalar bog'chasidagi hayot yorqin, taassurotlarga boy, yaxshi qiziqarli kitob kabi bo'lishi kerak, uning eng yaxshi sahifalari bayramlar bo'lishi kerak. Bolalarga bolalar bayramini unutilmas qilishiga yordam berish, bolalar uchun ajoyib mo'jizalar olamiga deraza ochish, bola qalbida yorqin iz qoldirish. "Romashka" bolalar bog'chasida ko'p yillardan buyon Lihtibryan to'garagi faoliyat ko'rsatmoqda, bu to'garaklar davomida ona yurt tarixini, ajdodlar an'analari va urf-odatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa asrab-avaylashga olib keladi. Xalq an'analari va bolalarni ular bilan tanishtirish. Zero, xalq bayramlarida madaniy tajriba jadal o'zlashtiriladi. Bayramlar bolalarni Mordoviya xalqining urf-odatlari, marosimlari, folklorlari bilan tanishtiradi. Bolalar bog'chasida nishonlanadigan bayramlar bolalarda quvonchli kayfiyatni yaratadi, ijobiy hissiy yuksalishni keltirib chiqaradi, bayram madaniyatini shakllantiradi: bayram an'analari, uni tashkil etish, mehmonlar odobi haqida hikoyalar. Bayramga tayyorgarlik bolalarda yaqinlashib kelayotgan bayramga qiziqish uyg'otadi; qiziqish asosida ularning axloqiy-axloqiy fazilatlari, badiiy didi shakllanadi. Bayramlar tizimi bolalar va kattalarning ma'naviy hamjamiyatini, insoniy his-tuyg'ularni rivojlantiradigan tuproqni yaratadi: sevgi, mehr-oqibat, o'zaro yordam. Bayramlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda qo'rqq bolalar hissiyotli, tashabbuskorlarga aylanadi. Ular ixtiyoriy ravishda o'yin jarayonida ishtirok etadilar, bu maktabgacha yoshdagi bolaning tabiatiga mos keladi, bu yerda bola organik ravishda yangi musiqiy tasvirlarni o'rganadi, ko'nikmalarga ega bo'ladi, tasavvurni rivojlantiradi. Maxsus ssenariy bo'yicha tayyorlangan, puxta o'ylangan bayram nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham quvonch bag'ishlaydi<sup>7</sup>.

Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa

---

<sup>7</sup> Read more at: <https://minikar.ru/uz/pritchi/rol-narodnyh-prazdnikov-v-vozpitanii-detei-doshkolnogo-vozrasta/>

merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir.

Bayram ertaliklari estetik ya'ni nafosat tarbiyasi berishda muhim tadbirlardan biridir. Ertaliklar bog'cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir.

O'zbekiston Mustaqillikka yerishdi. Istiqlool sharofati tufayli qadryatlarimiz, unutilgan, lekin bola tarbiyasida nihoyatda zarur bo'lgan urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Shu sababli bayram ertaliklari shaklan va mazmunan o'zgarmoqda. Bolalar bog'chalarida nishonlanadigan asosiy bayramlar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni.
2. O'qituvchi va murabbiylar kuni.
3. Mehrjon bayrami.
4. Yangi yil bayrami.
5. Vatan himoyachilari kuni.
6. Xalqaro xotin-qizlar bayrami.
7. Navro'z bayrami.
8. Xotira va qadrlash kuni.
9. Gul va qushlar bayrami.
10. Sog'lomjon va polvonjon bayram ertaligi.
11. Bolalarni maktab quchog'iga kuzatish tadbiri.

Har bir bayramning o'z ma'nosi va alohida xususiyati bor.

Masalan, 1-sentabrda nishonlanadigan **Mustaqillik bayramida** vatanni sevish va e'zozlash, unga munosib farzand bo'lib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bayram katta guruh bolalari bilan o'tkazilib, ular O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydilar. Kichik va o'rta guruh bolalari

tomoshabin sifatida qatnashadilar. Ertalikdagi o‘yinlar, insseniroykalarda xalqimizning yerishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz ko‘rsatilishi kerak. Musiqa rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondoshib, zamonaviy bolalar qo‘shiqlari bilan bir qatorda, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini ham dasturga kiritishimiz lozim.

**Mehrjon bayramida** mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini ifodalab, «Quyosh bobo»ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodehqon» mehnatini, «Ona yer» sahovatini, mehr muruvvatini, «Kuzjon»ning to‘kin-sochinligini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok yetishlariga erishish lozim. Bu bayramni katta, o‘rta va kichik guruh tarzida o‘tkazish mumkin. Bayram tantanalarida iloji boricha o‘zbek milliy asboblarini (karnay, sunray, nog‘ora) jalb qilish tavsiya etiladi. Imkoniyat bo‘lmasa, fonogrammadan foydalanish lozim. Askiyalar va kichik sahnalashtirilgan ertaklar ham bo‘lishi tavsiya etiladi. Qo‘shiq, lapar (aytishuv) va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli bo‘lishi kerak.

**Yangi yil bayrami** butun dunyoda ramziy qabul qilingan bo‘lib, jahon bolalarining eng sevimli bayramidir. Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qo‘shiq va o‘yinlar Qorbobo, Qorqiz va turli ertak qahramonlari, o‘rmon hayvonlari ishtirok yetib, bolalar bilan xursandchilik qiladilar.

**Navro‘z bayramida** uyg‘onayotgan borliq, tabiat ulug‘lanadi. Qadriyat, urf-odat udumlarini aks ettiruvchi mazkur bayram, tabiat uyg‘onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go‘zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko‘kalamzorlashtirish, mehnatni ulug‘lash kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Qo‘shiq-yallalar kuylanadi, o‘lan aytishuvlar va turli xil qiziqarli o‘yinlar o‘tkaziladi. Bu bayramni bog‘cha sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovlida o‘tkazish mumkin.

Qadimda Sharq xalqlari o‘z sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg‘u asboblardan yoki fonogrammadan foydalanish lozim. Badiiy qismda quvnoq qo‘shiqlar yangraydi<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Altibayeva G.M. Maktabgacna ta‘limda musiqiy tarbiya metodikasi maruza matni. – Termiz. 2018.

**8 mart bayramida** bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga bo'lgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qo'shiq, She'r, raqs, o'yinlarida ifodalaydilar. Ularning mehnatlarini ye'zozlab, minnatdorchilik bildirib, o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarini taqdim etadilar. Ular uchun katta, o'rta va kichik guruhlarda konsert uyushtiriladi. Bayram uchun to'g'ri tanlangan qo'shiq, musiqa, sahna ko'rinishlari bolalarda xushchaqchaq kayfiyat tug'dirishda katta ahamiyatga ega. Ular bayramning umumiy xarakteriga, mazmuniga mos bo'lishi kerak. Agar bog'chada xalq cholg'u asboblardan tuzulgan bolalar ansambli bo'lsa, uni ham bayram dasturiga kiritish kerak.

Buyuk siymolar tavallud topgan kunlar uchun badiiy musiqiy nafosat soatlarini tashkil etish, bolalarda milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirib boradi. Ularning rasmlarini ko'rsatib, buyuk xizmatlari haqida ma'lumotlar berish, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish esa bolalar ma'naviyatini oshiradi. Shuningdek, bayramlar bolalarni Respublikamizda yashaydigan barcha millat va xalqlarning urf-odatlarini, qo'shiq va o'yinlari bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda katta o'rin egallaydi.

Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlari bayram ertaliklari tashkil etish va ularga ssenariylar tuzish bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilatlar yosh avlodga bog'cha yoshidan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqiylikni musiqaviy obrazlar orqali idrok yetib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularni ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Kichik va o'rta guruhlarda bayram ertaliklari.

1. Mustaqillik bayrami. Bu bayram tadbiri 1-sentabrda o'tkaziladi. Tadbir O'zbekiston Davlat madhiyasining yangrashi bilan boshlanadi. Bolalar Vatanimiz haqidagi she'rlarni yoddan o'qib, qo'shiqlar ijro etadilar.
2. Mehrjon bayrami - Bobodehqon va ona zaminni ulug'lovchi bayramdir. U 25-oktabrdan 5-noyabrgacha o'tkaziladi.

3. Archa bayrami. Bu bayramda Qorbobo, Qorqiz va sevimli ertak qahramonlari ishtirok etadilar.
4. 8-mart – Onajonlar bayrami.
5. Navro‘z bayrami 21-martdan boshlanadi.
6. Sog‘lom va polvonjon tadbiri esa 1-iyunda o‘tkaziladi.

### **Katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari**

1. «1-sentabr – Mustaqillik bayrami». Bayram tadbirlari orqali bolalarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘ulari tarkib toptiriladi.
2. 1-oktabr – «O‘qituvchilar va Murabbiylar kuni».
3. Til bayrami. Bu bayram «Til – dil kaliti», «Ona tilim – jonu dilim» nomlari ostida nishonlanadi.
4. «Mehrjon bayrami» – hosil bayrami.
5. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni. Shu munosabat bilan «Qomusimiz – nomusimiz» tadbiri o‘tkaziladi.
6. «Archa bayrami» yertaligi.
7. 14-yanvar. «Vatan himoyachilari kuni».
8. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan konsert uyushtiriladi.
9. 21-mart – Navro‘z bayrami. Bu tadbirda, asosan, u urfodatlarimiz va qadriyatlarimiz haqidagi sahna korinishlari va kuy qo‘shiqlar ijro etiladi.
10. Gullar va qushlar bayrami may oyida o‘tkaziladi. Bolalar O‘zbekiston gullari va qushlari haqida She‘r hamda qo‘shiqlar aydatilar.
11. «Sog‘lomjon va polvonjon», «Sog‘lom tanda – sog‘ aql» tadbirlari 1-iyunda o‘tkaziladi. Bayramda turli estafeta va bellashuvlar uyushtiriladi.
12. Maktabda kuzatish bayrami. «Xayr, bog‘chajon – salom, maktab!».

**Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa mashg‘ulotlari hamda bayram tadbirlari uchun MTM larda tuziladigan ssenariylarga misollar. Mustaqillik bayrami va Bilimlar kuniga bag‘ishlangan tadbir ssenariysi.**

***1-boshlovchi:*** Istiqloq, bunchalar qo‘zal bu noming,  
 Non kabi e‘zozli jondek shirin bol.  
 Yer shari yo‘lladi otashin salom  
 Assalom, o‘zbekim, qutlug‘ istiqloq!

**2-boshlovchi:** Assalom, maktabim, muqaddas dargoh

Assalom, ustozlar kasb kori saboq

Assalom, do'stlarim menga qo'sh qanot

Sinfdosh, hayotga ishonch bilan boq

**1-boshlovchi:** Bugun dunyo tanigan Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shayotgan, aziz mehmonlar, assalomu alaykum.

**2-boshlovchi:** Umrining aziz damlarini o'quvchilar ilm olishiga sarflayotgan, aziz ustozlar, assalomu alaykum

**1-boshlovchi:** Dunyoning barcha shodliklarini ortidan ergashtirayotgan, aziz ukajonlarim, assalomu alaykum

**2-boshlovchi:** Birinchi qo'ng'iroq tantanalarining, aziz sohibi sohibalari, assalomu alaykum

**1-boshlovchi:** Bugun qalbimizda o'zgacha shukuh

**2-boshlovchi:** Kechagina dillarimizni hayajon ga solgan so'nggi qo'ng'iroq sadolari Bizni bugun birinchi qo'ng'iroq sari yetaklayapdi.

**1-boshlovchi:**

Davralarning to'ri siz uchun, ustoz

Maqtovlarning zo'ri siz uchun, ustoz

Siz bor maktablarning fayzi bo'lakcha

Siz bor kuylagan kuyning avji o'zgacha

Siz ekkagan gullarning avji o'zgacha.

Qalbimizning qo'ri siz uchun, ustoz,

Maqtovlarning zo'ri siz uchun, ustoz.

**2-boshlovchi:** Assalom, ona yurt tonglar o'lkasi

Ta'rif, tavsifingning yo'q nihoyasi.

Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq

Birgalikda: Bu o'zbek elining o'z madhiyasi.

(O'zbekiston Respublikasi madhiyasi o'quvchilar tamonidan ijro etiladi)

**1-boshlovchi:** Bugungi bayramona kechamizda bizning quvonchli onlarimizga sherik bo'layotgan aziz mehmonlar yana bir bora xush kelibsiz, ishonchimiz komil biz uchun ajratgan qadrli onlaringizdan afsus chekmaysiz degan umiddaman.

**1-boshlovchi** Sizning tashrifingiz biz uchun faxr,

Shoir tavsifida aytigan axir.

Dunyoning shodligi yig'ilsa butun

Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

**2-boshlovchi:** Raxmat iliqdil izxorlaringiz uchun qo'limiz ko'ksimizda ta'zimdamiz.

**2-boshlovchi:** Go'zallardan go'zal jannat makonim

Sen o'zingsan tanxo O'zbekistonim

Asrlarga yuz tutgan ulug‘ makonim

Jannat bo‘yidagi gulsan, Vatanim.

**1-boshlovchi:** Ulug‘ donish ajdodlarim beshigisan

Taraqqiyot kalitining eshigisan

San’atkorning aytgan qo‘shig‘isan

G‘olib farzandlarining yutug‘isan, Vatanim.

**1-o‘quvchi:** Vatan sening nomingni,

Doim kuyga solaman.

Farzandlik burchin oqlab

Senga sodiq qolaman.

**2-o‘quvchi:** Istiqlol ulug‘ ne‘mat,

Bobolarim orzusi.

Momolarim duosida,

Mangu, ma’vo qolg‘usi.

**3-o‘quvchi:** Ona yurtim, bog‘laring chaman,

Istiqloling abadiy bo‘lsin.

Sen suyuqli, ulug‘san,

Yagonasan, muqaddas Vatan.

**4-o‘quvchi:** Sen buyuk, muqaddassan,

Onajon – O‘zbekiston.

Ayyoming bo‘lsin qutlug‘

Zavol ko‘rma hech qachon

**2-boshlovchi:** Azizlar, bizning eng beg‘ubor damlarimiz o‘tgan aziz dargoh qaysi deb e’tirof eta olasiz?

**1-boshlovchi:** Albatta, jonajon maktabimizdir.

Salom, nurli maskanim,

Salom, qadrdon do‘stlar.

Salom, sirdosh kitoblar

Bari murodga eltar.

**1-o‘quvchi:** Maktabim – jonajon maskan,

Qadrdon – onajon maskan.

Sen qalbinga ziyo berding

Muqaddas, mehribon maskan.

**2-o‘quvchi:** Seni intizor kutdik,

Birinchi qo‘ng‘iroq.

Maktab bag‘riga keldik

Olay deb saboq.

**3-o‘quvchi:** Ziyo maskan bog‘ingda,

Eng sara gullar terdim.

Bag‘ringda ulg‘ayib men

Sen-la, kamolga etdim.

**2-boshlovchi:** Bu ulug‘ dargohimizga jajji ukajon va singillarimizni taklif qilamiz.  
Marhamat.

Davraga chorlaymiz sizni, ukajon

Keling quvonchiiz siz ila to‘lsin

Dunyoda beg‘ubor, farishtaginam

Kelajagi buyuk, ukajonginam

**2-boshlovchi:** Bugungi shodiyona damlarimizga yakun yasash payti yetdi nazarimda

**1-boshlovchi:** Albatta, demak bilimlar kuni va Mustaqillik kuniga bag‘ishlangan  
tadbirimiz nihoyasiga yetdi.

**1-boshlovchi:** Chalaqol, singiljon, qo‘ng‘iroqingni,

Jarangi borliqni larzaga solsin.

Sog‘inib, sog‘inib kutgan dargohga

Ustozlar qoshiga boshlasin bizni

**2-boshlovchi:** Chalaqol singiljon qo‘ng‘iroqingni,

Bu sasni qanchalik orziqib kutdik

Chorlagin bizlarni sinfirmiz sari,

Nurli ovozi ko‘ngini yoqsin.

**1-boshlovchi:** Chalaqol singiljon qo‘ng‘iroqingni,

Jarangi borliqni larzaga solsin.

Sog‘inib, sog‘inib kutgan dargohga

Ustozlar qoshiga boshlasin bizni

**2-boshlovchi:** Chalaqol singiljon qo‘ng‘iroqingni,

Bu sasni qanchalik orziqib kutdik

Chorlagin bizlarni sinfirmiz sari,

Nurli ovozi ko‘ngini yoqsin.

### **Gullar va qushlar bayrami ssenariysi. Katta guruhlar uchun. (Musiqiy bezaklar bilan)**

O‘quvchilari bilan turli mavzularda tadbirlar o‘tkazish ta‘lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga, bolalarda narsa va voqealarga nisbatan qiziqishni kuzatish, izlanish va boshqa bilim malakalarini vujudga keltirishda juda katta yordam beradi.

Gullar va qushlar bayramini o‘tkazishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda jonajon tabiatga muhabbat, xalqimizning qadimiy an‘analariga hurmat hissini tarbiyalab borish. O‘zbekiston tabiatida uchraydigan gullar va qushlar haqidagi

tasavvurlarini kengaytirish. O‘zbekiston Qizil kitobi, yo‘qolib va kamayib borayotgan gullar va qushlar haqida ma’lumot berishdan iboratdir. Bu bayram maktab hovlisida yoki maktab zalida o‘tkaziladi. Bayramga ota-onalar, o‘qituvchilar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari taklif etiladi.

Zal yoki MTM hovlisi “Gullar va qushlar bayrami” mavzusiga oid rasmlar, bahorda ochiladigan gullar, qushlarning tuluqlari, o‘quvchilarning mavzuga oid rasmlari, tabiat, uning go‘zalligini asrashga da’vat etuvchi shiorlar, ekologiya va tabiat muhofazasiga doir, turli-tuman gullar va qushlar haqida ma’lumot beruvchi bukletlar bilan chiroyli bezatiladi. Bayram jarchilarning chiqishi bilan boshlanadi.

1-jarchi: - Bolalar-u bolalar

2-jarchi: - Tog‘da ochilgan lolalar!

1-jarchi: - Eshitmadim demanglar,

2-jarchi: - Eshitganlar jilmanglar!

1-jarchi: - Bugun maktabimizda

2-jarchi: - Zo‘r tomosha bo‘ladi! - Ho-ho-hoy!

**1-boshlovchi** (qo‘li ko‘ksida):

Bismillohdan boshlanadi a‘molimiz,

Assalomdan yorishadi jamolimiz

Do‘stimizga aylantirar begonani,

Assalomdan etishadi kamolimiz.

**2-Boshlovchi:**

Ey,ozod yurtimning gulg‘unchalari,

Sho‘xu sayroqi bulbulchalari.

Bu kun davramizga aylang marhabo,

Tilga kirar tabiatning sho‘x qushchalari.

**1-boshlovchi:**

Assalomu alaykum, mehridaryo, qalbi keng muhtaram ustozlar-u, bilimga chanqoq, zukko, aziz bolajonlar! Mana, mustaqil Vatanimiz uzra fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor hamon davom etmoqda.

**2-Boshlovchi:** Bahor! Bahor – bu yangilanish, yasharish demakdir. Bahor insonlar qalbiga quvonch, yuziga tabassum olib keladi. Bahor kirib kelar ekan, ona tabiat jonlanadi, daraxtlar qishki to‘nini tashlab, bahor libosini kiyib, tabiat ko‘rkiga yana ko‘rk, husn qo‘shadi. Issiq o‘lkalarga uchib ketgan qushlar yana o‘z yurtlariga qaytadilar.

**1-boshlovchi:** Bahor- bu ko‘pgina bayramlar fasli hamdir. Jumladan, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami, 21-mart Navro‘z bayrami. Mana shular qatorida bugun biz yana bir bayramni – “Gullar va qushlar bayrami” ni namoyish etmoqdamiz.

**2-Boshlovchi:** Sizlarning barchangizga yaxshi kayfiyat tilagan holda davramizga bahoroy va uning elchilarini taklif etamiz.

### **Bahoroy va gullar kirib keladi**

(Gulchambar taqqan Gulbahor siymosidagi qiz kirib keladi)

-Lolalardan gulxanlar yoqib,

Bahor keldi, gulbahor keldi.

Chakkasiga qizil gul taqib,

Dilbar keidi gulchiroy keldi.

(Gulbahor o‘zi bilan birga lola, boychechak va atirgullarni mehmonga olib kelganini aytdi)

### **Boychechak:**

Hali erimasdan qor,

Dala qirda gul bahor.

Chiqdi mitti gul-chechak,

May elchisi boychechak.

### **Atirgul**

Mana senga pushti gul,

Xohlasang oq gulga qo‘n,

Atirgul ham go‘zaldir,

Anor kiygan qizil to‘n.

### **Lola**

Lola kabi ochildi

Tomda ikki qizg‘aldoq.

Tiz barobar o‘tlardan

Terda lolaqizg‘aldoq.

### **Hamma**

Gul bu yaxshilikdan erur nishona,

Soflik do‘tlik doim unga hamxona.

### **1-boshlovchi:**

Bugun o‘zgachadir jilvagar olam,

Bugun o‘zgachadir borliqda xanda,  
Bugun ko‘zlarida kular quyosh ham,  
Shafaq gulshanida tarang chirmanda

## **2-Boshlovchi:**

Bu tong egnida atlasdan ko‘ylak,  
Harirga o‘rangan qizlarday gulgun.  
Ilk bora ko‘z ochib chiqqan boychechak  
Sanamlar qulida go‘zaldir bu kun

Endi navbat o‘quvchilarimiz ijrosidagi qo‘shiqqa

### **Qo‘shiq “Hey lola”**

(O‘quvchilar „Hey, lola“qo‘shig‘ini ijro etadilar ).

-Tom ustida nelar bor hey, lola,  
O‘rdak bilan g‘ozlar bor hey,lola  
O‘rdak ketib g‘oz qolsin hey, lola  
Dushman ketib do]st qolsin hey, lola

-Tom ustiga chiqaylik hey, lola  
Suqsur kelsa otaylik hey,lola.

U suqsurning patina hey lolayey,  
Qizlarimizga taqaylik hey, lola.

## **2-Boshlovchi:**

Endi navbat gullar va qushlar haqidagi she‘r vaa ashulalarga

### **She‘rlar:**

1-o‘quvchi:

Bu yurt o‘g‘lonlari mehri butundir,  
O‘tli qalblar yurtiga ishonch ustundir,  
Xush kelding,bahorim,dillarga hamdam  
Bizning quvonchlardan quvonsin olam.

## **2-o‘quvchi:**

Chechaklar barq urib, keldi bahorim,  
Don-dunim, osh nonim ham rizqu ro‘zim,  
Jahonga tik boqqan sen, qora ko‘zim,  
Xushkelding bahorim, dillarga hamdam,  
Bizning quvonchlardan quvonsin olam.

## **3-o‘quvchi:**

Lolazor bo‘lar qirlar,  
Dalalar-u bog‘lar ham.

Baxtiyorlik timsoli.  
Gulga dildan extirom.

#### **4-o'quvchi:**

Atirguli chinni gul,  
Nastarinlar ochilgan.  
Yo'lning ikki yoniga  
Baxmal gilam to'shalgan.

#### **5-o'quvchi:**

Raxmat deydi kekxa yosh,  
Gul o'stirgan kishiga.  
Axdimiz maqsadimiz,  
Yordam bermoq ishiga.

#### **6-o'quvchi:**

Marxabo aziz do'stlar,  
Quvonchlik gul bayramga  
Iliq tabassumingiz,  
O'xshab ketadi gulga.

#### **Ola hakka.**

Uchar par-par ola hakka,  
Daraxtzor-u chakalakda.  
Qo'nar o'ynab butoqqa,  
Alanglaydi har yoqqa.

#### **Ukki.**

Qushlar qo'shig'i ukki,  
Qayrilma tumshuq dukki.  
Ko'zi yonar olovdek,  
Kalamushni ov qilar,  
Tekinxo'rni daf qilar.

#### **Kaklik.**

Tog' tovug'i go'zal kaklik,  
Oyoqlari po'paklik.  
Qizil tumshuq, qizil ko'zlik,  
Patlari mayin, kulrang ko'xlik.

#### **Raq's "Qaldirg'och"**



Nima ekan bu qush nomi,  
Sevar to'qay o'rmonni.  
Qo'shiq aytarkan kak-ku,  
Shu sababdan nomi kakku.

#### **Mayna.**

Satang qushcha mayna qush,  
Chorbog'imda sayrar xush,  
Parlari qora baxmal,  
Tergandek tillo zarhal.  
Oshaman deb bulbuldan,  
Mayna deb olgan shundan.

**1-boshlovchi:**

Tabiatda bugun o'tli uyg'onish,  
Nur bilan kiradi dilga orzular.  
Yuraklar shodlikdan etadi xonish,  
Labdan labga ko'char mayin kulgular.

**2-Boshlovchi:**

Quyosh kirib kelar har xonadonga,  
Barobar ulashar yog'dusin bugun.  
Quyosh tabassumi etar jahonga,  
Ushalar dildagi orzular bugun

**1- Boshlovchi:** Endigi navbat gullar va qushlar haqidagi ma'lumotlarga

**2-Boshlovchi::** Marhamat tinglang va eslab qolishga harakat qiling !

**Ma'lumotlar:** 6 ta o'quvchi gullar, 6 ta o'quvchi qushlar haqida ma'lumot beradi.

**Raqs:** Yakkaxon

**1-boshlovchi:** Davlatimiz biz o'quvchilarning ta'lim olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Jumladan, boshlangich sinflardayoq chet tillarini mukammal o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

**2-boshlovchi:** Keling, shu gaplarimizning isboti sifatida o'quvchilarimizdan ingliz va rus tillarida bahorni madh etuvchi she'rlardan tinglasak marhamat!

**She'rlar:** 4 ta bolalar rus tilida, 4 ta katta guruh tarbiyalanuvchilari ingliz tilida she'rlar aytadi.

**1-boshlovchi:** Ey, menga ertaklar so'ylagan zamin

Ergashib izingdan qolmasman sening  
O'zgalar naznida bog'i eramni  
Jiydang yaprog'iga olmasman sening  
Vatan qayda bo'lmay sen hamrohimsan  
Bobolarim yotar sajdagohimsan

**2-Boshlovchi:** Bahorga burkangan sen sevgan elda,

Ovozing yangradi jo'shqin zabardast.  
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

**Tarbiyachi:** Bahor faslida biz nafaqat go‘zal bayramlarimiz balki buyuk shoir va shoirlarimizning tavvalud ayyomlarini ham nishonlaymiz.

**Tarbiyachi:** Jumladan, 1-mart bahorning ilk kunida atoqli shoiramiz Zulfiyaxonim, 26-aprel kuni o‘zbek adabiyotining zabardast shoiri Muhammad Yusuf tavvallud topgan kun. Keling, fursatdan foydalanib ular ijodidagi bahor, tabiat va ayolni tarannum etuvchi she’rlardan bahramand bo‘lsak, marhamat!

## She’rlar

### Raq’s “Dutor”

**2-Boshlovchi:** Bayramimiz yanada quvnoq o‘tishi uchun keling, bolajonlar, “Gul bazmi” aytishni boshlaymiz, Qani davrani kengroq olinglar-chi.

-Bilaman gul tilini  
O‘qiganman ilmini  
Darrov ko‘rsam taniyman,  
Rango-rang ming xilini

-Chaman-chaman ochilar,  
Bahor chog‘i gullola.  
Gulni yaxshi ko‘radi,  
Katta-kichik har bola.

-Chaman-chaman gul bog‘m,  
Ko‘pdir mening o‘rtog‘im.  
Keling, dostlar, o‘rtoqlar,  
Birga teraylik gullar.

-Asra qizil gulingni,  
Saqla qizil gulingni  
Bahosiga yetmasa  
Sotma qizil gulingni

Ochildimi boychechak  
Enli har yon gul demak.  
Chunki bahor elchisi.  
Shu mitti gul boychechak.

**Tarbiyachi:** Aziz bolajonlar hamda hurmatli tadbir qatnashchilari shuning bilan birga bugungi “Gullar va qushlar bayrami” nomli tadbirimiz o‘z poyoniga

yetdi. Barchamiz Ona tabiatni asraylik, zero:

Tabiatning, go‘zalligi, sofligi,

Bizga kerak qanchalar,

Insoniyat taqdiri

Bog‘liq erur shunchalar

Shunday ekan, biz barchamiz ona tabiat in‘omlarini ko‘z qorachig‘iday asrashimiz lozim. Xayr, sog‘ bo‘linglar!

### **Xayr, bog‘cha – salom, maktab**

Maktabga tayyorlov guruhlar uchun bayram ssenariysi bog‘cha sahnasi bayramona bezatilgan. Devorda atrofi gullar bilan bezatilgan “Xayr, bog‘cha – salom, maktab” so‘zlari yozilgan plakat ilingan. Bolalar sahnaga qo‘llarida gul va bayroq-chalar bilan kirib keladilar. O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yangraydi.

Boshlovchi: – Assalomu alaykum, ota-onalar, aziz buvijonlar, mehribon tarbiyachi ustozlar! Sizlar bilan 5 yil davomida birga bo‘lib, bugun xayrlashmoqdamiz. Sizlarni “Xayr, bog‘cha – salom, maktab” nomli xayrlashuv oqshomiga bag‘ishlangan bayramimizni tomosha qilishga taklif etamiz. Tadbirni muassasa rahbari ochib beradi.

Muassasa rahbari:

– Yuzlaring yal-yal yonib, odimlaysan mardona

Bir qo‘lingda sumka bor, birida-chi guldasta.

Oylar o‘tar, yil o‘tar, ulg‘ayasan bir kun sen,

Seni kutar koinot, kutadi qahramon el.

1-bola:

– Bu dunyoda chamanlar ko‘p,

Bu dunyoda vatanlar ko‘p,

Barchasida yashnar gullar,

Barchasida yashnar dillar.

Mening uchun yer-u bo‘ston,

O‘zbekiston, O‘zbekiston!

Barcha bolalar:

– Mo‘tabar va aziz opa-jonlarimiz, sizlarga ta‘zim qilamiz!

Madina:

– Nima uchun bu kunni,

Qutlug‘ bayram qilamiz.

Chunki tez kun ichida,

Biz maktabga boramiz.

Barotjon:

– Bugun hamma shod-xurram,  
Dadam, oyim va opam.  
Tabriklashib ketishar,  
Hatto xolalarim ham,  
Salom maktab, jon maktab!

*Bolalar ijrosida* “Xayr bog‘cham, bog‘cha opam” qo‘shig‘i kuylanadi.

Boshlovchi:

– Tabriklaymiz-tabriklaymiz,  
7 yoshga to‘libsiz.  
Tabriklaymiz hammamiz,  
Katta bola bo‘libsiz.

1-bola:

– Xayr, bog‘cham, gul bog‘cham,  
Bag‘ri to‘la nur bog‘cham.  
Xayr, o‘yinchoqlarim, bolg‘acha-yu, o‘rog‘im,  
Xayr paqircha-yu, kuragim,  
Xayr g‘oz-u, o‘rdagim.  
Oq quyonim yaxshi qol,  
Mashinacham yaxshi qol.

2-bola:

– Ona kabi mehribon,  
Ilm-fanlarga makon.  
Yayrab o‘qiyman har on,  
Qadrdomim, maktabim.

3-o‘rta guruh bolalari:

– Opajonlar, akajonlar yetti yoshga to‘libsiz,  
Tabriklaymiz biz sizni, siz o‘quvchi bo‘libsiz.

**4-O‘rta guruh bolalari:** – Men ham sizday bo‘laman, Maktabga ham boraman.  
“2” baho olsangiz, Xafa bo‘lib qolaman. *Bolalar “Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘ini aytib beradilar.*

**5- O‘rta guruh bolalari:** – Mehr nuri yog‘ar doim, yuzingizdan ustozlar.  
Yursam deyman bu tabarruk, izingizdan ustozlar.

**1- O‘rta guruh bolalari:** – Biri gul, biri bulbul, o‘g‘il qizlar shod bugun.  
Qalbidan gul tutadi, mehribon ustoz uchun. Bolalar “Ustozlar” qo‘shig‘ini aytib beradilar.

**2- O‘rta guruh bolalari:** – Xayr, g‘uv-g‘uv mashinam, O‘rtoq bo‘lgansan sen ham.  
Maktab yoshiga yetdim, Endi o‘qiyman men ham.

**Tarbiyachi:** – Navbatni darslarimizga beramiz birinchi dars matematika. Misollarni eshiting!

1-misol: – Qorga yiqildi Vali, uning ketidan Ali, keyin yiqildi Jabbor, qorda qancha bola bor. Bolalar javobi (3 ta).

2-misol: – Quyunchani uyiga tashrif buyurdi do‘sti. To‘nkaga o‘tirvolib, sabzini mazza qilib, Har biriga beshtadan, yedilar qarsillatib, Kim bilar sanog‘ini, nechta yeyilgan sabzi. Bolalar javobi (10 ta).

*Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinadi*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tanaffusga qo‘ng‘iroq chalindi. Hozir bizning qizlarimiz chiroyli raqs ijro etib beradilar. Qizlar ijrosida “Bog‘ ichida” raqsi. Darsga qo‘ng‘iroq chalinadi.

**Tarbiyachi:** – Aziz bolajonlar, qo‘ng‘iroq bizni jismoniy tarbiya darsiga chorlayapti. “Biz Alpomish o‘g‘lonlari” qo‘shig‘i. Bayroqchalar bilan mashq. Tanaffusga qo‘ng‘iroq chalinadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, yana sizlarning bilimlaringizni sinab ko‘ramiz! – Qor erib shoshar, ariqlar toshar. Gullar ko‘p asl, bu qaysi fasl?

**BOLALAR:** – Bahor!

**Tarbiyachi:** – Qizdirar quyosh, cho‘g‘dek yonar tosh. Dalada hosil, bu qaysi fasl?

**BOLALAR:** – Yoz!

**Tarbiyachi:** – Bo‘m-bo‘sh dala, qir, yog‘adi yomg‘ir. Tinmay muttasil, bu qanday fasl?

**BOLALAR:** – Kuz.

**Tarbiyachi:** – Yerni qor qoplar, soyni muz yopar. Ayoq behazil, bu qaysi fasl?

**BOLALAR:** – Qish.

**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, judayam bilimli, zukko, dono bolalar ekansizlar. Shu vaqt davruga sho‘x musiqa ostida Bilmasvoy kirib keladi.

**BILMASVOY:** – Iye, bu yerda nima bo‘lyapti? Bunchayam odamlar ko‘p!

**Tarbiyachi:** – Bilmasvoy, avval, bizlar bilan salomlashmaysanmi? O‘zing qayerga ketyapsan?

**BILMASVOY:** – Ey! Shuniyam bilmaysizmi, maktabga ketyapman, maktabga!

**Tarbiyachi:** – Xo‘p yaxshi, maktabga ketayotgan ekansan, sanashni, yozishni, o‘qishni bilasanmi?

**BILMASVOY:** – Ey! Meni nima deyapsiz! Qoyillataman!

**Tarbiyachi:** – Bo‘lmasa seni bir sinaylikchi. 2+2 nechchi bo‘ladi?

**BILMASVOY:** – 3 bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘rimi bolalar?

**BOLALAR:** – Yo‘q, noto‘g‘ri, 4 bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – 1+1ni qo‘shsak necha bo‘ladi?

**Bilmasvoy** o‘ylanib qoladi.

**Tarbiyachi:** – Endi o‘qish va yozishga o‘tamiz. Mana shu harflardan “Vatan” va “Ona” so‘zlarini yozib ber-chi. Bilmasvoy harflarni to‘g‘ri qo‘ya olmaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar to‘g‘ rimi?

**BOLALAR:** – Yo‘q, noto‘g‘ri!

**Tarbiyachi:** – Sumkalarni nima qilasan? Qani bir ko‘raylik-chi.

**BILMASVOY:** – Bittasini kelayotib shaftolizor bog‘dan topib oldim. Ikkinchisida o‘zingiz ko‘rib turganingizdek. Meni kechiringlar, men hech narsani bilmayman.

**Bolalar:** Kel birga o‘qiymiz va barchamiz Maktabga birga boramiz.

**Barcha bolalar:** – Quchog‘ingdan ketaman, ardog‘ingdan ketaman. Seni eslayman har dam, maktabim bag‘rida ham.

Hamma bolalar baralla. “Unutmaymiz hech qachon, xayr, mehribon bog‘cham” qo‘shig‘ini ijro etadilar. Bayram dasturi ommaviy raqs bilan yakunlanadi.

### **Musiqali o‘yinlardan bayram ertaliklari va ko‘ngil ochish soatlarida foydalanish**

Musiqali o‘yinlar MTM larida musiqa o‘qitishning asosiy va eng sodda yo‘llaridan hisoblanadi. Ushbu jarayonda bolalar zerikishlarsiz, qiziqib o‘zlari bilgan va doimiy eshitib yurgan ertak, bayram, har xil tomoshalar, TV lar orqali o‘tkaziladigan ko‘rsatuvlar nomlari va ularning tuzilishlari asosida tashkil etiladi. Aynan ushbu jarayon sabab bog‘cha bolalarida katta qiziqish uyg‘otadi. Bayram ertaliklari va ko‘ngil ochishlar bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatga yo‘naltirish manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Bayram ertaliklari – bu har bir bolaga xursandchilik olib keluvchi, hayajonga soluvchi va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoluvchi hodisadir. Bayram ertaliklari ssenariylari o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi faoliyatlarni oladi. Bunda bolalar qo‘shiq aytadilar, raqsga tushadilar, she‘rlar yodlaydilar, bolalar cholg‘ulari orkestrida yoki yakka tarzda chaladilar. Barcha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan bayram ertaliklarida musiqaviy – didaktik o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Bu o‘yinlar mashg‘ulotlar va bo‘sh vaqtlarda o‘tkazilganligi sababli bolalarga yaxshi tanishdir. Shuning uchun ham ularga yangicha ko‘rinish va shakl berib, bayramona bezatilgan holda tashkil etilishi lozim.

Ertalikda, shuningdek, yangi, bolalarga tanish bo‘lmagan o‘yinni ham o‘tkazish mumkin. Bunday o‘yinlarning mazmuni bolalarga tanish musiqiy materiallar asosida tuzilsa bas. Ko‘pgina musiqaviy-didaktik o‘yinlarni sovg‘a o‘rnida ham kiritish mumkin. Bunday o‘yinlar bolalarga sovg‘alar va h.k. tarqatish bilan bog‘lanadi. Masalan, masxaraboz parda ortida turli cholg‘ularda chaladi,

bolalar cholg'ularni ovovzidan farqlab, nomlarini aytadilar. So'ngra, masxaraboz ushbu cholg'u asboblarni barchasini bir vaqtda jaranglashini tinglab ko'rishni taklif etadi va bu hol qanday nomlanishini bolalardan so'raydi. Bolalar: «Orkestr» deb javob beradilar. Shundan so'ng katta guruhlar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan bolalar cholg'ulari orkestrining chiqishi tinglanadi. Yoki, kichik guruhlar tarbiyalanuvchilarining ertaligiga Shum bola (katta guruh bolasi) mehmonga keladi. U metallofonda bolalarga tanish bir nechta qo'shiqlar ohangini chaladi. Kichikintoylar buni qaysi qo'shiq ekanini topadilar. So'ng, Shum bola nog'oracha yoki doira yoki baraban chalib, chalinayotgan cholg'u asbobi shaklidagi kichik qutichalarga joylangan sovg'alarni tarqatadi.

Ertaliklarga ssenariy tuzayotgan vaqtda, unga barcha bolalarni jalb qilish shartligini yodda tutishi lozim. Har bir bolaningi faol ishtirok etishi, keyinchalik uning mustaqil faoliyati davomida o'z aksini topadi.

Kelgan mehmonlar qarshisida tortinchoqlik namoyon qiluvchi bolalar, boshlovchi taklif etgan musiqaviy-didaktik o'yinlarda faollik ko'rsatadilar. Tabiiyki musiqaviy-didaktik o'yinni ertalik mavzusiga ko'ra tanlash va dasturiga moslashtirish lozim. Ya'ni, o'yin alohida chiqishlar bilan bog'lanishi va ssenariyning umumiy, yaxlitligini ta'minlashi lozim.

Masalan, yangi yil bayram ertaligida Qorbobo bilan birgalikda o'rmon hayvonlari ham mehmonga keladilar. Qorbobo bolalarga o'zi bilan qaysi o'rmon hayvonlarini olib kelganligini topishni taklif qiladi. Bolalarga tanish bo'lgan, turli hayvonlar haqidagi qo'shiqlar kuyi birin- ketin yangraydi. Bolalar ularni birin-ketin tanib oladilar. Har bir to'g'ri javobdan so'ng, o'rmon hayvonining kirib kelishi kichkinagina sahna ko'rinishi sifatida o'tkaziladi.

Ko'ngil ochish ham xuddi ertalik kabi muassasaga xursandchilik, quvonch olib keluvchi tadbirdir. Har bir ko'ngil ochish bolalarning taassurotlarini boyitishi, quvnoq hislarni uyg'otuvchi bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasida turli ko'rinishdagi teatr tomoshalari, diafilmlar va multfilmlar tomoshalari, tug'ilgan kunlar, adabiy-musiqiy kechalar, bolalar ijodiyoti ko'riklari, ertaklarni sahnalashtirish kabi ko'ngil ochishlarni tashkil etish mumkin. Ko'ngil ochishlarga

shuningdek, turli musiqaviy-didaktik o'yinlarni ham kiritish mumkin. Bolalarning yoshlariga mos va ular uchun qulay bo'lgan shakl - o'yin shaklida olgan bilimlarini mustahkamlash, bolalar orkestri ijrosida yoki gramyozuvda tinglagan musiqani tanib olish, uning nomi va bastakorining ismini aytish kabi topshiriqlar asosida dasturda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirilishiga erishish mumkin.

Shunday qilib, ko'ngil ochishlarda musiqaviy-didaktik o'yinlarni qo'llash bolalarni ijodiy jarayonga faol jalb qilish imkonini beradi.

Keyingi yillarda insoniyat madaniy merosining ma'naviy boyligiga e'tibor kuchaymoqda. Buni xalqning milliy tiklanish istagi, deb bilish kerak. O'z ona tili, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlarini, san'atida namoyon bo'lgan milliy o'zligini saqlab qolishga intilmaydigan bironta xalq yo'q. Buyuk rus pedagogi K.Ushinskiy 19-asrdayoq G'arb xalqi ruslarga qaraganda o'z ildizlariga, tarixiga, madaniyatiga yaqinroq ekanini ta'kidlagan edi. O'shandan beri ko'p narsa o'zgarmadi va qarindoshlikni eslamaydigan Ivanlarga aylanish xavfi bor. Biz o'z bayramlarimizni ham bilmaymiz. Ehtimol, bu 70 yildan ortiq vaqt davomida ular cherkov bilan "aloqa" bo'lganligi sababli, xuddi ta'qiq ostida bo'lganligining natijasidir? Ammo bizning butun madaniyatimiz doimo din tubida tug'ilgan va ming yillar davomida u bilan bog'langan. Rojdestvo, Maslenitsa, Palm Sunday, Fisih, Trinity, Shafoat... Va, albatta, Ivan Kupala, rasmiy cherkov tomonidan tan olinmagan bo'lsa-da, lekin eng sevimli bayramlardan biri. Rossiyada ular har doim yaxshi ishlashni va bayramlarni chin dildan nishonlashni bilishgan. An'anaviy xalq madaniyatida jismoniy mehnatdan dam olish, o'yin-kulgi hech qachon bekorchilik, mutlaqo bo'sh, band bo'lmagan vaqt sifatida tushunilmaganligini ta'kidlash mumkin. Bayram har doim muhim ijtimoiy funksiyalarni bajargan, chuqur ma'noga ega bo'lib, unda inson o'zini ham individual, ham jamoa a'zosi sifatida his qilgan, bayram doirasida aloqa va erkin muloqot amalga oshirilgan, ularsiz oddiy inson hayoti mumkin emas. Bugungi kunda ta'limning yetakchi tamoyili milliy an'analar negizida olib boriladigan ta'lim deb qaralishi kerak. Bolalik – bu milliy madaniyatning kelib chiqishiga, rus ildizlariga chinakam, samimiy sho'ng'ish mumkin bo'lgan vaqt. Ertaklarni o'qish, bolalar qofiyalari va hazillarini yodlashda bolalar rus xalq

madaniyati bilan uning barcha turlari (og‘zaki xalq ijodiyoti, musiqiy folklor, san‘at va hunarmandchilik) majmuasida hissiy rangni oshirish uchun tanishtiriladi. Bu maqsad xalq bayramlari va marosimlariga ko‘proq mos keladi. Zero, xalq marosimini milliy liboslarsiz, musiqasiz, dehqon hayoti buyumlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ritualda bularning barchasi birlashtirilgan, shuning uchun xalq amaliy san‘ati bilan tanishish sintez vazifasini qo‘yadi: bolalar nafaqat rasm chizishni, haykaltaroshlikni, balki o‘yinda qo‘shiq aytishni, raqsga tushishni va improvizatsiya qilishni ham o‘rganadilar, bu barcha ko‘rinishlarning organik birligini his qiladilar. ijodkorlik. Umuman olganda, bayramlarda insonning mehnati va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan fasllarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha asrlar davomida to‘plangan kuzatishlar butun yaxlitligi va rang-barangligi bilan qayd etiladi. Milliy bayramga tayyorgarlik ko‘rishdan oldin o‘qituvchining o‘zi uning barcha xususiyatlari, an‘analari, urf-odatlari va marosimlari bilan sinchkovlik bilan tanishishi kerak. Bayram mavzusida bolalar va o‘quv adabiyotlari va rasmlarni tanlash kerak. Ota-onalarni birgalikdagi ijodkorlikka jalb qilish juda muhimdir. Ular sizga atributlar va kostyumlar ishlab chiqarishda yordam beradi va bayramning o‘zida ular to‘liq ishtirokchi bo‘lishlari mumkin.

### ***XALQ BAYRAMLARINI TAYYORLANISH BO‘YICHA MASLAHAT***

Bayramga tayyorgarlik bosqichma-bosqich, tashkil etilgan o‘quv faoliyati:

- bilim, badiiy adabiyot o‘qish, muloqot, musiqa, jismoniy tarbiya, badiiy ijod bo‘yicha olib borilishi kerak;

- festivalda san‘atning turli turlarini uyg‘unlashtirishni diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak;

- bayramga tayyorgarlik uzoq va stressli, bolalarni charchatmasligi kerak;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot rejimini buzish holatlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi;

- umumxalq bayramida barcha bolalarning maksimal darajada faol ishtirok etishiga e‘tibor qaratish zarur;

- festivalda chiqish uchun faqat qobiliyatli va iqtidorli bolalarni tanlay olmaysiz;

bayram dasturida ochiq o‘yinlar, dumaloq raqslar, kichik-kichik guruhlar bilan o‘rganilgan raqslar, kattalar qahramonlarining chiqishlari bo‘lishi kerak.

Bayramlar kunning birinchi yoki ikkinchi yarmida o‘tkazilishi mumkin. Ularning davomiyligi bolalarning yoshiga va bayramning mazmuniga qarab 20 daqiqadan va 1 soatdan ortiq emas;

- davomiyligi va mazmuni bo‘yicha bayramlar bolalar uchun zerikarli va to‘yingan bo‘lmasligi kerak;

- bayram kuni tashkil etilgan o‘quv tadbirlari o‘tkazilmasligi kerak;

- bayramdan so‘ng keyingi kunlarda bolalarning iltimosiga ko‘ra siz ularga yoqqan qo‘shiqlarni, dumaloq raqslarni, o‘yinlarni takrorlashingiz mumkin. Bu bayram taassurotlarini birlashtirish, tomoshadan yana bir bor zavqlanish imkonini beradi;

- bayramga tayyorgarlikning barcha tashkiliy masalalari oldindan muhokama qilinadi;

- axloqiy xulq-atvorni, guruhdagi bolalar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni tarbiyalashga hissa qo‘shadigan xalq bayramlari ssenariylarining mazmuniga katta e‘tibor qaratish lozim;

- milliy bayramning mavzusi va musiqiy repertuari bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib murakkablashishi kerak;

- bolalar xalq bayramlari va o‘yin-kulgilarini tayyorlashda imkon qadar faol ishtirok etishlari kerak<sup>9</sup>.

## **MAKTABGACHA TA ‘LIM MUASSASALARIDA MASHG‘ULOT OLIB BORISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN NOTALAR**

---

<sup>9</sup> Read more at: <https://minikar.ru/uz/pritchi/rol-narodnyh-prazdnikov-v-vospitanii-detei-doshkolnogo-vozrasta/>  
Shchelkonogova G.N., tarbiyachi "TsRR - "Ertaklar" bolalar bog'chasi OP "Romashka" bolalar bog'chasi estrodiol tip", Kovytkino, Mordoviya Respublikasi

## BAHOR

### K. Rahim sheri I. Akbarov musiqasi

*O'rtacha tez ijro etiladi.*

7 Cha-man- cha-man o-chi lar\_\_ ba hor\_cho-g'i gul-lo-la. Gul-ni\_yax-shi ko'-ra-di

12 kat - ta - ki-chik har bo - la. Ket-gan qush-lar\_\_ u - zoq-dan ya - na biz - ga\_\_

17 qay - ta - di. Kur-tak och- gan\_\_ shox-lar - da\_\_ say - rab qo'-shiq ay - ta - di.

*mf*

*p*

#### Qo'shiq matni

Chaman-chaman ochilar  
Bahor chog'i gul-lola.  
Gulni yaxshi ko'radi  
Katta-kichik har bola.

Ketgan qushlar uzoqdan  
Yana bizga qaytadi.  
Kurtak ochgan shoxlarda  
Sayrab qo'shiq aytadi.

Bahor chog'i ko'p yaxshi,  
Ariq to'lib suv oqar.  
Mayin yelgan shabada  
Badanlarga xo'b yoqar.

Uchib o'tar osmondan  
Gala-gala suqsur g'oz.  
Go'zal bahor ketidan  
Yetib kelar issiq yoz.

## MUZQAYMOQ

H. Qayumov sheri A. Mansurov musiqasi

Shoshilmasdan ijro etiladi

Muz-dek, muz-dek muz-qay- moq, Sut-day op - poq soz qay- moq.

5 Muz-dek, muz-dek muz-qay- moq, Sut-day op - poq soz qay- moq.

9 As-ta-gi-na a-vay - lab, a- vay - lab, Chay-na-mas-dan a-tay - lab, a- tay - lab,

13 sol-ga-nim-da og' zim-ga E-rib ke-tar bir zum- da. E-rib ke-tar bir zum- da.

17 Soz qay-mo-g'im muz-qay - moq.

### Qo'shiq matni

Muzdek, muzdek muzqaymoq,  
Sutday oppoq soz qaymoq.  
Astagina avaylab,  
Chaynamasdan ataylab,  
Solganimda og'zimga,  
Erib ketar bir zumda.

Muzdek, muzdek muzqaymoq,  
Sutday oppoq soz qaymoq.  
Muzqaymog'im hozir ham,  
Eridi-yu, yo'qoldi.  
Lekin totli mazasi,  
Mening og'zimda qoldi.

# KUZ

N. Ro'zimuhammedova sheri S. Abramova musiqasi

**Allegretto**  
8va

*mf*

5

Ku-lib kel-di jav-har kuz, San-diq och-di gav-har kuz,

*mf*

10

Bog'-lar - ning sa-ho - va-ti - So-chil - di noz - ne' ma - ti.

15

Lya lya lya lya lya lya So-chil - di noz - ne'- ma - ti.

Bog'lar - ning sa-ho - va-ti - So-chil - di noz - ne'- ma - ti.

8va

Музыкальный портал АктивБалл.ру  
Музыкальный портал АктивМетрика.ру

## SALOM YANGI YIL

### I. Muslim sheri G'. Qodirov musiqasi

*O'rtacha tez ijro etiladi*

Musical score for the first system of 'Salom Yangi Yil'. It consists of two staves: a vocal line and a piano accompaniment line. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 2/4. The lyrics are: Sa - lom yan - gi yil bay - ram ku - ni - miz.

5

Musical score for the second system of 'Salom Yangi Yil'. It consists of two staves: a vocal line and a piano accompaniment line. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 2/4. The lyrics are: Bax - ti - yor o' - tar ku - ni tu - ni - miz.

Активация Windows  
Чтобы активировать Windows, перейди  
к параметрам компьютера.

# "RAQS"

O'zbek xalq kuyi

Moderato ♩=108-112

Musical score for "RAQS" in 2/4 time, Moderato tempo (♩=108-112). The score is written in treble clef with a key signature of one sharp (F#). It consists of five staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp, and a 2/4 time signature. The music features a mix of eighth and sixteenth notes, with some rests. A repeat sign is present at the end of the first staff. The second staff starts at measure 7. The third staff starts at measure 14. The fourth staff starts at measure 21. The fifth staff starts at measure 28 and ends with a repeat sign and a double bar line. A key signature change to one sharp is indicated at the beginning of the fifth staff.

# "BOLALAR MARSHI"

R.Abdurahmonov musiqasi  
O.Azizov fortepiano uchun moslashtirgan

Musical score for "BOLALAR MARSHI" in 2/4 time, Allegro tempo. The score is written in treble and bass clefs with a key signature of two sharps (F# and C#). It consists of two staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of two sharps, and a 2/4 time signature. The music features a mix of eighth and sixteenth notes, with some rests. The second staff starts at measure 7 and features a bass clef, a key signature of two sharps, and a 2/4 time signature. The music features a mix of eighth and sixteenth notes, with some rests.

7

13

17



# "MARSH"

D.Omonullayeva musiqasi

Tempo di marshe

The first system of the musical score is in 2/4 time with a key signature of one sharp (F#). The right-hand part begins with a fortissimo (*f*) dynamic, playing a series of chords. The left-hand part plays a steady bass line of quarter notes. After four measures, there is a repeat sign, and the right-hand part changes to a melody with a mezzo-piano (*mp*) dynamic, while the left-hand part continues with quarter notes.

The second system starts at measure 9. The right-hand part begins with a fortissimo (*f*) dynamic, playing a melody of eighth notes. The left-hand part plays a bass line of quarter notes. The system concludes with a final chord in the right hand.

Активация Windows  
Чтобы активировать  
параметры компь

## **TEST SAVOLLARI:**

**1.Malum bir musiqiy kuy tovushlarining uzun-qisqa bo'lib almashinib turishiga nima deyiladi?**

- A. Pauza S. Tonalik
- B.Ritm D. Lad

**2. Katta ashula qaysi vohaning musiqa uslubiga xos?**

- A.Fag'ona-Toshkent. S.Buxoro-Samarqand
- B.Surxandaryo-Qashqadaryo. D.Xorazm.

**3.O'zbekistonda nechta asosiy maqom turi bor?**

- A.4ta B.5ta S.3ta D.2ta

**4.Qo'l, oyoq va badan harakatlariga asoslangan san'at turi?**

- A.Maqom. S.Raqs.
- B.Dostonchilik. D.Balet.

**5. Kuy bu nima?**

- A.Kuy – bu qo'shiq.
- B.Kuy – bu har qanday musiqaning asosi.
- S.Kuy – bu lapar.
- D.Kuy – bu ohang.

**6.Ohangdorlik nima?**

- A.Kuyning ashulasi.
- B.Kuyning ohangi.
- S Kuyning asosiy fazilatidir.
- D.Qo'shiq.

**7.Oynadik hech to'ymadik qo'shig'ining musiqasini kim yozgan?**

- A. Sh.Yormatov.
- B. N.Norxo'jayev.
- S. D.Omonullayeva.
- D. A.Mansurov.

**8.Kompazitor Sh.Yormatov nechanchi yilda tug'ilgan?**

- A.1956-yilda S.1939-yilda

B.1946-yilda D.1959-yilda

**9.Shermat Yormatov o‘zlari tashkil etgan xor jamoasining nomi?**

A.Binafsha. S.Oymomo.

B.Bulbulcha. D.Chittigul.

**10.Sog‘lom avlod qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. A.Mansurov. S. Sh.Yormatov.

B. D.Omonullayeva. D. N.Norxo‘jayev.

**11.Yarim nota necha ..... ga teng?**

A.2i ga S.1 yoki I ga

B.4i ga D.1i ga.

**12. Chorak nota necha I gat eng?**

A.2i ga S.4i ga

B.1i ga D1 yoki I ga

**13. Butun nota necha I gat eng?**

A.1i ga S.1 yoki I ga

B.2i ga D.4i ga

**14. Mi notasi nota chizig‘ining qaysi chizig‘ida yoziladi?**

A.pastki qo‘shimcha chizig‘da

B.Birinchi chizig‘da.

S.Ikkinchi va birinchi chiziq orasida

D.Ikkinchi chiziqda.

**15.Do notasi nota chizig‘ining qaysi chizig‘ida yoziladi?**

A.Pastki qo‘shimcha chizig‘da

B.Birinchi chizig‘da.

S.Ikkinchi va birinchi chiziq orasida

D.Ikkinchi chiziqda.

**16.Yosh askarlar qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. A.Mansurov. S. ShYormatov

B. N.Norxo‘jayev. D. H.Rahimov.

**17.Do bilan RE notasining oralig‘I necha ton?**

A.2 ton S.1 ton

B.2,5 ton D.3 ton

**18.RE bilan SOL notasining oralig‘I necha ton?**

A.2 ton S.1 ton

B.2,5 ton D.3 ton

**19.Kompazitor H. Rahimov nechanchi yilda tug‘ilgan?**

A.1947-yilda S.1956-yilda

B.1948-yilda D.1946-yilda

**20.Kompazitor H. Rahimovning qaysi qo‘shig‘ini yod oldik?**

A.Diloromning qo‘shig‘i. S.Shirin-shirin

B.Men g‘unchaman D.Navro‘zim

**21. “Men g‘unchaman” qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. A.Mansurov. S. ShYormatov

B. N.Norxo‘jayev D. H.Rahimov.

**22.Qaysi qatorda alteratsiya belgilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A.Diyez, forta, piano. S.Diyez, bemol, bekar.

B.Piano, bemol, bekar D.Bekar,forte, diyez

**23. “Shirin-shirin” qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. X.Xasanova. S. H.Rahimov.

B. Sh.Yormatov. D. N.Norxo‘jayev.

**23.Uchtovushlik nechanchi pog‘onalardan tuziladi?**

A.1,5,6. S.1,4,5.

B.1,3,5. D.1,3,4.

**24.Si notasining uchtovushligi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A.Do, mi, sol. S.Si, do, mi.

B.Mi,sol, si. D.Si, re, fa.

**25.Qaysi qatorda dinamik belgilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A.Diyez, forta, piano.

B.Forte, piano, dimuniendo, krishchendo,

S.Dimuniendo,forte, bemol.

D.Forte, krishchendo, bekar.

**26. Musiqada nechta lad bor?**

A.1 ta B.3 ta S.4 ta D.2 ta

**27. “Sumalak eng kerak” qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. X.Xasanova. S. H.Rahimov.

B. Sh.Yormatov. D. N.Norxo‘jayev.

**28.Qaysi qatordagi qoshiq qish fasli qo‘shiqlariga kiradi?**

A.Yaxshi bola. S.Boychechak.

B.Sovuq kimni izlaydi. D.Chittigul.

**29.Nimchorak nota necha I ga teng?**

A.1i ga S.1 yoki I ga

B.2i ga D.4i ga

**30. “Biz askarmiz” qo‘shig‘ining musiqasini kim yozgan?**

A. X.Xasanova. S. H.Rahimov.

B. Sh.Yormatov. D. N.Norxo‘jayev.

**31.Yalla deb nimaga aytiladi?**

A.Sozandachilar jamoasiga.

B.Band naqarot shaklidagi aytim va raqs.

S.Torli cholg‘ular jamoasiga.

D.Xonanadalar jamoasiga.

**32.To‘xtasin Jalilov nechanchi yilda qayerda tug‘ilgan?**

A.1897-yil Andijon. S.1896-yil Andijon

B.1912-yil Farg‘ona D.1896-yil Samarqand

**33.T. Jalilov nechtadan ortiq musiqali dramalarga kuy bastalagan?**

A.12 tadan S.20 tadan

B.40 tadan D.36 tadan

**34.T.Jalilov xalq musiqa boyliklarini kimdan o‘rgandi?**

A.Buxorolik Boruxdan S.Ota Jalol Nosirdan

B.Qo‘qonlik Yusufjondan D.Yunus Rajabiydan.

**35. “Navbahor qo‘shig‘I”ning musiqasini kim yozgan?**

A. X.Xasanova. S. H.Rahimov.

B. Sh.Yormatov. D. G.Qo‘chqorova.

**36.Ramazon marosimi qachondan boshlab o‘tkazilgan?**

A.Har oyning uchinchi kunidan.

B.Ramazon oyining uchinchi kunidan.

S.Ramazon oyining birinchi kunidan

D.Ramazon oyining yettinchi kunidan.

**37. “Navro‘z qo‘shigi”ning musiqasini kim yozgan?**

A. X.Xasanova. S. H.Rahimov.

B. Sh.Yormatov. D. N.Norxo‘jayev.

**38. Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘quv yili qanday tashkil etiladi ?**

A. 2-sentabrdan 2-sentabrgacha S.2-sentabrdan 31-avgustgacha

B.2-sentabrdan 30-avgustgacha D.2-sentyabrdan 31- maygacha

**39. Musiqa darsiga o‘qituvchi ijodiy yondoshib qaysi faoliyat turidan boshlashi mumkin?**

A. Istagan faoliyat turidan S. Musiqa tinglashdan

B. Jamoa bo‘lib ko‘ylashdan D. Musiqa savodidan

**40. “Metodika” so‘zi qaysi so‘zdan olingan va u nima dma’noni anglatadi?**

A. Inglizcha “o‘rganish usuli”, tadqiqot yo‘li

B. Grekcha “tadqiqot yo‘li”, “bilish usuli”

S. Franso‘zcha “izlanish usuli”, “bilish yo‘li”

D. Nemischa “tadqiqot yo‘li”, “bilish usuli”

## MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-8
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	8-17
MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR MUSIQA TARBIYASINING VAZIFALARI .....	17-24
BOLALAR MUSIQIY FAOLIYATINING MAZMUNI.....	24-28
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TINGLASH.....	28-46
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI QO'SHIQ KUYLASHGA O'RGATISH.....	46-63
MUSIQIY RITMIK FAOLIYAT.....	63-72
KICHIK VA O'RTA GURUHLARDA MUSIQA MASHG'ULOTLARIDAN NAMUNALAR TASHKIL ETISH.....	72-81
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BAYRAM TADBIRLARINI O'TKAZISH HAMDA SSENARIYLARINI TUZISH.....	81-99
MUSIQALI O'YINLARDAN BAYRAM, ERTAKLAR VA KO'NGIL OCHISH SOATLARIDA FOYDALANISH.....	99-102
XALQ BAYRAMLARINI TAYYORLANISH BO'YICHA MASLAHAT.....	102-103
TEST SAVOLLARI.....	103-108
ADABIYOTLAR.....	110

## ADABIYOTLAR:

1. Boltayev B, Xodjayev J.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi (darslik) – Samarqand. – B. 83.
2. Namozova D.T, Nosirov D.T. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim metodikasi. – Qo'qon: 2006-y.
3. Eydemiller E.G. Yustisiskis V. Psixologiya i psixoterapiya semi. Sankt-Peterburg: —Piterll, 2000.
4. Karimov M., Ikromova M. Raqs elementlari orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish. – T.: “Ilm ziyo” nashriyot uyi, 2008-y.
5. Altibayeva G.M. Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya metodikasi. Maruza matni. – Termiz. 2018.
6. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013,
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008
8. Зацепина М.Б. Музыкальное воспитание в детском саду. – Москва: Мозайка – Синтез, 2008.
9. Ishmuhamedov R., M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Nihol, 2010.
10. Кадыров Р. Музыкальная педагогика. – Ташкент: ЎзДК, 2013.
11. N.Rejametova O'zbek xalq cholg'u asboblarini chalishni o'rgatish metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.
12. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
13. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
14. Panjiyev Q.B., Rejametova N.I. Ualiyeva G.I. MTM musiqa rahbarlari uchun O'UM. – T. 2017.
15. R Abdurahmonov, S Mahkamjonov. Bolalar bog'chasida musiqa o'quv uslubiy qo'llanma. – Namangan. 2022.